**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc 03/10.12.2019.1.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

***Qoʻlyozma huquqida***
***UDK: 336.58:37-048.32(575.1)***

**VALIYEV SHAMSIDDIN ESHPULATOVICH**

# OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA XARAJATLARNI MOLIYALASHTIRISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
(iqtisodiyot fanlari)

**Iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan**

**D I S S ER T A TS I YA**

**Ilmiy rahbar:** Xudoyqulov Sadirdin Karimovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Toshkent – 2024**

## MUNDARIJA

KIRISH ........................................................................................ 3
I-BOB. OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA XARAJATLARNI MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI ........................ 13
1.1. Oliy ta'lim muassasalarida xarajatlarning iqtisodiy asoslari va ularning o'ziga xosligi ........................ 13
1.2. Oliy ta'lim muassasalarida xarajatlarni moliyalashtirishga oid ilmiy-nazariy qarashlar ........................ 24
1.3. Oliy ta'lim muassasalarida xarajatlarni moliyalashtirishning xorij tajribasi ........................ 41
II-BOB. O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI XARAJATLARINI MOLIYALASHTIRISHNING EMPIRIK TAHLILI .... 56
2.1. O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalari xarajatlarini moliyalashtirishning tashkiliy asoslari ........................ 56
2.2. O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalari xarajatlarini moliyalashtirish omillar ta'sirining tahlili ........................ 64
2.3. O'zbekistondagi mavjud davlat oliy ta'lim muassasalarida "xarajatlar xastaligi" muammosi empirik tahlili ........................ 77
III-BOB. O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI XARAJATLARINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI ........................ 99
3.1. O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalari xarajatlarini moliyalashtirish muammolari ........................ 99
3.2. O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalari xarajatlarini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish yo'llari ........................ 109
XULOSA ........................ 122
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI ........................ 131
ILOVALAR ........................ 143

# KIRISH

**Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurligi.** Jahonda ta'lim olish imkoniyatlarini tubdan yaxshilash va rivojlantirish maqsadida qabul qilingan Birlashgan Millatlar Tashkilotining barqaror rivojlanish maqsadlarining to'rtinchi yo'nalishi (SDG4) bo'lgan sifatli ta'lim olishni ta'minlashning moliyaviy ko'rsatkichlari so'nggi yillarda xavotirli jihatlarni namoyon etmoqda. Jumladan, YUNESKOning 2023-yil uchun Global ta'limni monitoring qilish hisobotiga ko'ra "2005-2021-yillar davomida dunyo mamlakatlarining YaIMga nisbatan ta'limga sarflar 2005-yildagi 3,9 %dan 2021-yilga kelib bor-yo'g'i 0,3 %ga oshib, 4,2 %ga yetganligi katta muammo sifatida e'tirof etilmoqda. Bundan tashqari 2017-2021-yillar davomida dunyodagi 178 mamlakatlarning uchdan bir qismida ta'limga sarflar uchun o'rnatilgan maqsadli ko'rsatkichlar sifatida belgilangan YaIMdan 4 % va davlat budjetidan 15 %lik ko'rsatkichlarga erishishning imkoni bo'lmagan"[1]. Bu esa ta'limning asosiy bo'g'ini bo'lgan oliy ta'lim sohasiga ham yetarlicha moliyaviy resurslarni yo'naltirishda e'tibor berilishi lozim bo'lgan tendensiyalarni yuzaga keltirmoqda.

Jahon miqyosida ta'limning asosiy bo'g'ini hisoblangan oliy ta'lim muassasalari xarajatlarini moliyalashtirishning turli jihatlari tadqiq qilinmoqda. Oliy ta'limda xarajatlarga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar, xarajatlarni optimallashtirish uchun zarur chora-tadbirlar, oliy ta'limni samarali subsidiyalash rejimlari, oliy ta'lim uchun narx belgilash siyosati, talabalarga moliyaviy ko'mak dasturlarining asosiy jihatlari, xalqaro ilmiy tadqiqot markazlari, ilmiy tadqiqot institutlari, oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy tushumlarini diversifikatsiya qilish, ularning passiv tushumlarini yaxshilash, moliyaviy resurslarni ajratish, xarajatlarni moliyalashtirish tamoyillarini tadqiq etish bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonda jadal islohotlar natijasida oliy ta'limga talab keskin oshib, oliy ta'lim muassasalari va talabalar soni shiddat bilan ortib bormoqda. Oliy ta'lim

---

[1] https://www.unesco.org/sdg4education2030/en/education-financing

muassasalarining turli tashkiliy-huquqiy shakllari paydo bo‘lib, davlat oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy va boshqaruv tamoyillari ham tubdan o‘zgarmoqda. Mamlakatda ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish talablariga javob beruvchi oliy ma’lumotli kadrlarni tayyorlash ishlarini samarali yo‘lga qo‘yish oliy ta’lim muassasalari zimmasiga bir qancha vazifalarni yukladi. Xususan, ularda moliyalashtirish va iqtisodiy samaradorlikni ta’minlashga qaratilgan islohotlarni amalga oshirish muhim zarurat sifatida namoyon bo‘la boshladi. Bu esa ularga tegishli moliyalashtirish jarayonlarining ilmiy asosini ishlab chiqish va bu borada keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish zaruratini yuzaga keltirdi. Shu nuqtayi nazardan mamlakatimizda boshlangan oliy ta’lim olishning yangi davri xususiyatlari va olib borilayotgan islohotlar natijalari asosida oliy ta’lim muassasalari xarajatlarini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish va ilmiy asosda o‘rganish bo‘yicha keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilishini taqozo qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni, 2021-yil 24-dekabrdagi PQ-61-sonli “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-sonli “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-avgustdagi 419-sonli “Moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta’lim muassasalarida davlat buyurtmasi (davlat granti) asosida kadrlar tayyorlash uchun O‘zbekiston Respublikasi davlat budjetidan moliyalashtirish tartibini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2022-yil 21-fevraldagi 80-son “Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to‘g‘risidagi yagona nizomni tasdiqlash haqida”gi qarorlari hamda sohaga tegishli qator me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublikada fan va

texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Ta’limning iqtisodiy asoslari va uning xizmat o‘laroq iqtisodiyotda namoyon bo‘lishiga tegishli fundamental tadqiqotlar klassik iqtisodiyot namoyondalari bo‘lgan A.Smit, A.Marshall, D.Rikardoning asarlarida o‘rganilgan[2].

Xorijiy tadqiqotchilardan U.Bouen, G.Bekker, J.Minser, G.Stigler, K.Errou, M.Spens, X.Bouen, R.Archibald, D.Feldman, J.Psaxaropoulos, E.Koun, T.Shuls, B.Jonston, P.Markuchchi, N.Tekseyra, L.Kerdeyra, R.Martin, N.Barr singari tadqiqotchilar ta’lim, xususan, oliy ta’limning iqtisodiy va moliyaviy masalalarini tadqiq qilganlar[3]. Bu tadqiqotchilar tomonidan, avvalo, ta’lim iqtisodiyotidagi eng asosiy maktablar bo‘lgan inson kapitali va ta’limda signallar nazariyalari maktablari atrofida turli tadqiqotlar olib borilgan.

Rossiyalik zamonaviy olimlardan A.V.Aistov, I.V.Abankina, T.V.Abankina, P.V.Derkachev, K. Zinkovskiy, I.Kravchenko, K.Semenova, I.O.Bessonov, S.A.Belyakov kabilar oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishga oid ilmiy

---

[2] Смит А. Исследования о природе и причинах богатства народов. Москва. 1962 г. –408 с.; Маршалл, А. «Принципы экономической науки. Т. III» / А. Маршалл. – М.: Издательская группа «Прогресс», 1993. – 350 с.; Петти, В., Смит, А., Рикардо, Д., Кейнс, Д., & Фридмен, М. (2000). Классика экономической мысли: Сочинения. – М.: Изд-во Эксмо-Пресс, 616.

[3] Bowen W. G. The ’cost disease’in higher education: is technology the answer? //The Tanner Lectures Stanford University. – 2012.; Becker, G.S. and B.R. Chiswick (1966), ’Education and the distribution of earnings’, American Economic Review, 56 (2), 358–69.; Becker G.S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis. New York: Columbia University Press for NBER. 1964. Ch. 2.; Mincer J., Polachek S. Family Investment in Human Capital: Earnings of Women // Journal of Political Economy. 1974. Vol.82. P.S76-S108.; Stigler G.J. Information in the Labor Market // Journal of Political Economy. 1962. Vol. 70. P. 94–105.; Arrow K. Higher Education as a Filter // .Journal of Public Economics. 1973. Vol. 2. P. 193-216.; Spence M. Job Market Signaling // The Quarterly Journal of Economics. 1973. Vol. 87. P. 355-374; Bowen, H. R. (1980). The costs of higher education: How much do colleges and universities spend per student and how much should they spend? San Francisco: JosseyBass.; Archibald R. B., Feldman D. H. Explaining increases in higher education costs //The Journal of Higher Education. – 2008. – T. 79. – №. 3. – S. 268-295.; Psacharopoulos G., Patrinos H. A. Human capital and rates of return //International handbook on the economics of education. – 2004. – S. 1-57.; Cohn, E. and J.T. Addison (1998), ’The economic returns to lifelong learning‘, Education Economics, 6 (3), 253–308.; Schultz T. Investment in Human Capital // American Economic Review. 1961. Vol. 51. P. 1–17.; Johnstone D. B., Marcucci P. N. Financing higher education worldwide: Who pays? Who should pay?. – JHU Press, 2010.; Teixeira P. N. et al. (ed.). Cost-sharing and accessibility in higher education: A fairer deal?. – Springer Science & Business Media, 2006. – T. 14.; Cerdeira L. Cost-sharing policy in the European higher education: A comparative perspective //Problems of Education in the 21st Century. – 2009. – T. 15. – S. 60.; Martin R. E. The college cost disease: Higher cost and lower quality. – Edward Elgar Publishing, 2011.; Barr N., Crawford I. Funding higher education in an age of expansion //Education Economics. – 1998. – T. 6. – №. 1. – S. 45-70.

tadqiqotlar olib borganlar[4]. Bu tadqiqotlarda inson kapitali nazariyasi va skrininglar nazariyalari zamirida Rossiyada oliy ta'limni moliyalashtirishning empirik tahlillari yoritib berilgan.

Mamlakatimizda oliy ta'lim muassasasalarini moliyalashtirish va ularda xarajatlarni oʻrganish, shuningdek, bu boradagi xorijiy tajribalarni oʻrganish borasida A.Toshqulov, S.Mexmonov, A.Ostonaqulov, M.Saidov, D.Rustamova, A.Sherov, A.Mahmudov, S.Buzrukxonov, Sh.Sindarov, X.Rejapov, A.Rasulov va K.Abduraxmanov izlanishlar olib borganlar[5]. Mazkur tadqiqotlarda oliy ta'limni moliyalashtirishning asosiy jihatlari, subsidiyalash tartiblari, oliy ta'limni davlat moliyasi tarkibida moliyalashtirishning turli xususiyatlari oʻrganilgan. Ammo oliy ta'limning xarajatlari xususiyatlarini atroflicha oʻrgangan holda ommaviylashuv davri uchun mos tadqiqotlar yetarlicha olib borilmaganligini qayd etish mumkin.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bogʻliqligi**. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga

---

[4] Аистов А.В. О фильтрующей роли образования в России. //Экономический журнал Высшей школы экономики. – 2009. – Т. 13. – №. 3. – С. 452-481.; Абанкина И.В. Финансирование образования: тренд на персонализацию. //Журнал Новой экономической ассоциации, 2019. – Т. 41. – №. 1. – С. 216.; Абанкина И.В., Абанкина Т.В., Деркачев П. В. Исследование «болезни издержек» в российском высшем образовании. //Университетское управление: практика и анализ, 2014. – №. 4-5 (92-93). – С. 52-65.; Деркачев, П.В., Зиньковский, К.В., Кравченко, И. А., & Семенова, К. А. (2021). «Экономика масштаба» или «экономика разнообразия»: на что опираться вузам в конкурентной борьбе? Университетское управление: практика и анализ, 25(1). – С. 131-141.; Бессонов И.О. Оценка отдачи от образования. //Тестирование теории скрининга в России. /Материалы Юбилейной научной конференции. – С. 234-239.; Беляков С.А. и др. Модели финансирования вузов: анализ и оценка. //Научные труды Фонда «Институт экономической политики им. Е.Т. Гайдара», 2005. – №. 93. – С. 1-282.

[5] Toshkulov A. Mas'uliyat va ijro intizomi – islohotlar garovi // Strategy of Uzbekistan. 2021. №3; Mexmonov S.U. Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi: nazariya va amaliyot. Monografiya – T.: "Iqtisod va moliya". 2016. – 136 б.; Ostonaqulov A.A. "Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablagʻlari hisobi va hisoboti metodologiyasini takomillashtirish" monografiya. T: VNESHINVESTPROM nashriyoti, 2021, 208 бет.; Саидов М.Х. Финансовый менеджмент в системе высшего образования: учебное пособие. – Т.: Тафаккур-Бостони, 2011. 432 с.; Рустамова Д.Д. Проблемы финансирования системы высшего образования в Узбекистане //Современное образование (Узбекистан). 2014. №8.; Шеров А.Б. Американский опыт финансирования высших учебных заведений. // Научный прогресс, 2021. №6; Махмудов А. Финансирование в высших учебных заведениях. международная практика системного управления; Buzrukxonov S.M. Innovatsion iqtisodiyotga oʻtish sharoitida oliy ta'limni moliyalashtirishni takomillashtirish. – TMI, 04.04.2022; Sindarov Sh.E. Oliy ta'lim muassasalarida moddiy qiymatliklar hisobi va nazorati metodologiyasini takomillashtirish. – TMI, 04.04.2022; Режапов Х.Х. Зарубежный опыт финансирования высшего образования. // Экономика и финансы (Узбекистан). – 2012. – №9. – С. 31-35.; Расулов А. Зарубежный опыт кредитного финансирования образования. // Экономика и образование, 2023. – Т. 24. – № 3. – С. 348-354.; Абдурахманов К. Финансирование науки и высшего образования из государственного бюджета. // Экономика и образование, 2023. – Т. 24. – № 4. – С. 150-155.

muvofiq “O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning makroiqtisodiy barqarorligi va prognozlashtirilishini ta’minlashning ilmiy-uslubiy asoslari va uslubiyatlarini takomillashtirish” mavzusida loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** oliy ta’lim muassasalari xarajatlarini moliyalashtirish amaliyotiga tegishli ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari**:

xarajatlar iqtisodiy asoslari va ularning oliy ta’lim sohasida amal qilishi, oliy ta’lim sohasida ishlab chiqarish funksiyasida xarajatlarning namoyon bo‘lishiga tegishli ilmiy nazariy yondashuvlarni tahlil qilish;

oliy ta’lim sohasini moliyalashtirish borasida shakllangan xorij tajribasini o‘rganish va ularning muhim jihatlarini yoritib berish;

mamlakatimizda oliy ta’lim olishning yangi bosqichiga tegishli va oliy ta’lim muassasalari xarajatlarini moliyalashtirishga hamda davlat oliy ta’lim muassasalari uchun “xarajatlar xastaligi” muammosi borasida tegishli ilmiy asoslangan statistik va empirik tahlillar o‘tkazish;

o‘rganishlar va olingan tahlillar natijasida mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishga tegishli muammolarni aniqlash;

mavjud muammolarni hal etish va moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish yuzasidan ilmiy xulosalar berish va ilmiy-amaliy takliflarni shakllantirish.

**Tadqiqotning obyekti** O‘zbekistondagi davlat oliy ta’lim muassasalari va nodavlat oliy ta’lim tashkilotlari hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti**ni oliy ta’lim muassasalari xarajatlarini moliyalash-tirishga tegishli iqtisodiy munosabatlar tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot ishida monografik tadqiqot, statistik kuzatuv, sintez, qiyoslash, nazariy va empirik tahlil, deduksiya va induksiya, vaqt qatorlari orqali tahlil, ekonometrik modellashtirish, istiqbollash usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta’lim muassasalarida daromadlar taqchilligini hamda ularning o‘zini-o‘zi moliyalashtirish imkoniyatlarini istiqbollash modeli homiylik va ilmiy tadqiqot natijalarini tijoratlashtirishdan tushgan, maqsadli

kapital va boshqa mablag‘lar hisobiga moliyalashtiriladigan endaument jamg‘armalarini kiritish orqali takomillashtirilgan;

to‘lov-kontrakt asosida o‘qitish narxlarini to‘g‘ri xarajatlarga nisbatan ta’sirchanligini ta’minlash va ularning ta’lim bozorida to‘laqonli o‘z funksiyasini bajarish borasida narx belgilash xususiy manbalar hisobiga qoplanishi zarur bo‘lgan xarajatlar salmog‘ini belgilash asosida takomillashtirilgan;

ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha tayyorlanadigan mutaxassislar uchun davlat buyurtmalari asosida mablag‘lar ajratish tartiblariga mos subsidiyalash rejimlari ishlab chiqishda davlat moliyasi intervensiyasining maqsadga muvofiqligini belgilovchi mutaxassisni tayyorlash va uning faoliyatidan kutiladigan ijobiy qaytimlarni hisobga olish taklifi asoslangan;

oliy ta’lim muassasalariga qilinadigan xarajatlarning iqtisodiy, tashkiliy va konseptual jihatlari ochib berilishining ilmiy-uslubiy asosini ishlab chiqish va oliy ta’lim muassasalarini samarali moliyalashtirishga tegishli olib borilishi lozim bo‘lgan ilmiy tadqiqotlar taksonomiyasi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

oliy ta’lim muassasalari xarajatlarini moliyalashtirishda daromadlar taqchilligini yumshatish maqsadida oliy ta’lim muassasalarining passiv tushumlari o‘rnini oshirishga qaratilgan homiylik va ilmiy tadqiqot natijalarini tijoratlashtirishdan tushgan, maqsadli kapital va boshqa mablag‘lar hisobiga moliyalashtiriladigan endaument jamg‘armalarini (endowment fund) tashkil etish taklif etilgan;

davlat oliy ta’lim muassasalariga pedagogika, tibbiyot, qishloq xo‘jaligi, ekologiya va ijtimoiy sohaga tegishli bir qancha ta’lim yo‘nalishlariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlarini aniqlashda tadqiqot ishiga ko‘ra ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha tayyorlanadigan mutaxassislarning kelajakda ushbu sohada ish haqlari va daromadlarining oshishi istiqbollari hamda ushbu mutaxassisliklar faoliyatidan jamiyatda yuzaga keluvchi bilvosita ijobiy ta’sirlarni hamda muayyan ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha mutaxassislar tayyorlashning iqtisodiy sarflari singari omillarni hisobga olgan holda davlat buyurtmasi parametrlarini aniqlash amaliyoti taklif qilingan;

mamlakatimizda oliy ta’limning ommaviylashuv davriga mos talabalarga moliyaviy ko‘mak dasturlarini joriy etish bo‘yicha ma’muriy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlarni narx siyosatiga mos ravishda isloh qilish muhimligi asoslangan;

nodavlat oliy ta’lim tashkilotlari faoliyatini davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablariga muvofiq holda tashkil etish va sohada sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish maqsadida litsenziya talablari va shartlarini moliyaviy tannarx nuqtayi nazaridan hisobga olish hamda nodavlat oliy ta’lim tashkilotlari faoliyatini litsenziyalash talablari va shartlarini takomillashtirish taklif etilgan;

OTMlar xarajatlarini moliyalashtirishga tegishli bir-birini to‘ldiruvchi va o‘zaro bog‘liq omillar majmuasi va ularga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillar majmuasi asoslab berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqot ishi uchun olingan ilmiy yondashuvlar uzoq yillar davomida butun dunyoda ko‘pgina ilmiy maktablar zamirida shakllangan yondashuvlar va ular asosida o‘tkazilgan empirik izlanishlar asosida olinganligi, tahlillar uchun ikki bosqichli ilmiy asoslangan ko‘rsatkichlar majmuasi tatbiq etilganligi, ishlab chiqilgan model uchun ilgari taklif etilgan turdosh modellar mavjudligi, tahlillarda foydalanilgan ma’lumotlarning rasmiy manbalardan va ilgari tahlil qilingan ishonchli manbalardan olinganligi, olingan natijalar asosida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning davlat mutassadi organlari tomonidan qabul qilingan qarorlari va dasturlarida joriy etilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot ishi natijalarining ilmiy ahamiyati olingan ilmiy xulosalardan oliy ta’lim muassasalari xarajatlarini moliyalashtirishni samarali tashkil etishda ilmiy-uslubiy, nazariy-metodologik va uslubiy apparatni hamda tadqiqot yo‘nalishiga oid ilmiy tadqiqotlarda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati uning natijalaridan oliy ta’lim muassasalari xarajatlarini moliyalashtirish amaliyoti samaradorligini oshirish va takomillashtirish yuzasidan ishlab chiqiluvchi va tatbiq etiluvchi qarorlar, dasturlar, yo‘l xaritalari, konsepsiyalar va turli chora-tadbirlar hamda rejalarda, shuningdek, ularni amalga oshirishda qo‘llash mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Oliy ta’lim muassasalarida xarajatlarni moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish masalalari bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta’lim muassasalarida daromadlar taqchilligini hamda ularning o‘zini-o‘zi moliyalashtirish imkoniyatlarini istiqbollash modeli homiylik va ilmiy tadqiqot natijalarini tijoratlashtirishdan tushgan, maqsadli kapital va boshqa mablag‘lar hisobiga moliyalashtiriladigan endaument jamg‘armalarini kiritish orqali takomillashtirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi PQ-61-son “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori 3-bandida o‘z aksini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 9-fevraldagi 03/03-420-son ma’lumotnomasi). Natijada moliyaviy mustaqillik berilgan 40 ta davlat oliy ta’lim muassasalarida ilmiy xulosalar asosida olingan daromadlar taqchilligini istiqbollash modelidan oliy ta’lim muassasalarida daromadlar taqchilligini istiqbollash hamda ularning o‘zini o‘zi moliyalashtirish imkoniyatlarini prognozlashda foydalanilgan;

to‘lov-kontrakt asosida o‘qitish narxlarini to‘g‘ri xarajatlarga nisbatan ta’sirchanligini ta’minlash va ularning ta’lim bozorida to‘laqonli o‘z funksiyasini bajarish borasida narx belgilash xususiy manbalar hisobiga qoplanishi zarur bo‘lgan xarajatlar salmog‘ini belgilash asosida takomillashtirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi PQ-61-son “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida o‘z aksini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 9-fevraldagi 03/03-420-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida moliyaviy mustaqillik berilgan 40 ta davlat oliy ta’lim muassasalarida to‘lov-kontrakt asosida o‘qitish qiymati bir talaba uchun to‘g‘ri keladigan o‘rtacha xarajat miqdoridan kelib chiqib, biroq oliy ta’lim muassasasini o‘zini o‘zi to‘liq moliyaviy ta’minlash, istiqbolda rivojlantirish hamda ta’lim xizmatlari bozoridagi o‘zaro raqobat asosida belgilanishi borasidagi tartiblar, olingan narxlarni to‘g‘ri xarajatlarga nisbatan ta’sirchanligini ta’minlash va ularning

ta’lim bozorida to‘laqonli o‘z funksiyasini bajarishi borasida tartiblar joriy qilinishiga erishilgan;

ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha tayyorlanadigan mutaxassislar uchun davlat buyurtmalari asosida mablag‘lar ajratish tartiblariga mos subsidiyalash rejimlari ishlab chiqishda davlat moliyasi intervensiyasining maqsadga muvofiqligini belgilovchi mutaxassisni tayyorlash va uning faoliyatidan kutiladigan ijobiy qaytimlarni hisobga olish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 15-iyundagi F-31-son “2023/2024 o‘quv yili uchun davlat oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to‘g‘risida”gi farmoyishi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida o‘z aksini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Bosh vazir kotibiyati Axborot-tahlil va yuridik ta’minlash departamentining 2024-yil 18-apreldagi 16-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida 2023/2024 o‘quv yili uchun davlat oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlarini aniqlashda tadqiqot ishiga ko‘ra ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha tayyorlanadigan mutaxassislarning kelajakda ushbu sohada ish haqlari va daromadlarining oshishi istiqbollari hamda ushbu mutaxassisliklarning faoliyatidan jamiyatda yuzaga keluvchi bilvosita ijobiy ta’sirlar hamda muayyan ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlashning iqtisodiy sarflari kabi omillarni hisobga olgan holda davlat buyurtmasi parametrlarini aniqlash imkoni yaratilgan;

oliy ta’lim muassasalariga qilinadigan xarajatlarning iqtisodiy, tashkiliy va konseptual jihatlari ochib berilishining ilmiy-uslubiy asosini ishlab chiqish va oliy ta’lim muassasalarini samarali moliyalashtirishga tegishli olib borilishi lozim bo‘lgan ilmiy tadqiqotlar taksonomiyasidan foydalanish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar

to‘g‘risida”gi qarorida o‘z aksini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 9-fevraldagi 03/03-420-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqilgan va unga ko‘ra oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, yosh olimlar va talabalarning ilmiy tadqiqot natijalari va innovatsion ishlanmalarini amaliyotga joriy etish tizimini samarali tashkil etish imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot ishining natijalari 5 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 3 ta respublika miqyosidagi hamda 2 ta xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma’ruzalar ko‘rinishida bayon etilgan va ma’qullangan.

Tadqiqot ishi natijalariga ko‘ra shakllantirilgan ilmiy-nazariy xulosa va takliflardan “Moliya” fani o‘quv dasturlarini boyitish va o‘qitishda foydalanilmoqda.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi.** Tadqiqot ishi mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy maqola va tezislar nashr qilingan bo‘lib, ulardan 4 tasi xorijiy va 13 tasi mahalliy nashrlarda chop etilgan. Jumladan nashr etilgan maqolalarning 8 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda e’lon qilingan bo‘lib, ularning 2 tasi xorijiy va 6 tasi mahalliy nashrlar hisoblanadi.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishining tarkibi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiya ishining tarkibi 142 betni tashkil etgan.

# I-BOB. OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA XARAJATLARNI MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

## 1.1. Oliy ta’lim muassasalarida xarajatlarning iqtisodiy asoslari va ularning o‘ziga xosligi

Oliy ta’lim muassasalari xarajatlarini moliyalashtirishni tashkil etishda eng avvalo xarajatlar tushunchasining iqtisodiy asoslarini va ularning o‘ziga xos jihatlarining ochib berilishi muhim ahamiyatga ega.

Xarajatlar tushunchasiga umumiy va xos ma’noda, iqtisodiy va moliyaviy (buxgalteriya) ma’nolarda turli xil ta’riflarni keltirishimiz mumkin. Umumiy ma’noda xarajatlar biror narsa uchun to‘langan yoki undirilgan qiymat yoxud uning ekvivalentini ifodalasa[6], xos ma’noda biror konkret resursni jarayonga jalb etish uchun sarf etilishi lozim bo‘lgan to‘lovning pul ko‘rinishidagi ifodasi deb qaraladi. Iqtisodiy ma’noda esa xarajatlar biror tanlov uchun voz kechilishi talab etiladigan boshqa tanlovlarning muqobil qiymatini o‘zida ifodalovchi to‘lov sifatida tushuniladi[7].

Moliya va buxgalteriya hisobi borasida berilgan ta’rifga ko‘ra esa, xarajatlar hisobot davrida aktivlarning kamayishi yoxud majburiyatlarning ko‘payishi, shuningdek ma’lum maqsadlarda foydalaniladigan resurslar hajmining puldagi ifodasi deya qaraladi[8].

D.S.Toshnazarovaning keltirishicha: “Xarajatlar - bu ko‘zlangan maqsadlarga (mahsulot ishlab chiqarish, tovarlar xaridi, xizmatlar ko‘rsatish, ishlarni bajarish, loyihalarni amalga oshirish) erishish uchun sarflangan barcha resurslar qiymatining puldagi ifodasidir”[9].

Shuningdek bir qancha umumiy ma’lumotlar bazasi va yirik ensiklopediyalarda ham xarajatlar tushunchasiga tegishli bo‘lgan turli xil ta’riflar keltirilgan (1-jadval).

---

[6] https://www.merriamwebster.com/dictionary/cost#:~:text=Definition%20of%20cost&text=1a%20%3A%20the%20amount%20or,cost%20of%20losing%20several%20friends.
[7] https://www.britannica.com/topic/cost
[8] Karimov A.A., Kurbanbayev J.E., Jumanazarov S.A. “Buxgalteriya hisobi”, Darslik – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019, 387 b.
[9] Тошназарова Д. Понятие затрат и затрат, их содержание и описание //Экономика и инновационные технологии. – 2021. – №. 3. – С. 31-41.

**1-jadval.**

**Xarajatlar tushunchasiga turli xil manbalarda berilgan ta’riflar**[10]

| t/r | Xarajatlar tushunchasiga berilgan ta’rif | Manbasi |
|---|---|---|
| 1. | “Xarajatlar, sarfxarajatlar, chiqimlar — tovarlarni ishlab chiqarish va muomalasi jarayonida turli resurslar (xom ashyo, materiallar, mehnat, xizmatlar, mablag‘lar) sarflari bilan bog‘liq chiqimlarning pul shaklidagi ifodasi”[11]. | O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi (onlayn shaklida) |
| 2. | “Xarajatlar – tashkilot, korxona va tadbirkorlar sarflarining pulda ifodalangan ko‘rinishidir”[12]. | Katta rus ensiklopediyasi |
| 3. | “Xarajatlar – ma’lum bir vaqt oralig‘ida iqtisodiy faoliyatni tashkil etish jarayonida foydalaniladigan resurslar miqdori (odatda qiyoslash va boshqa maqsadlarda qiymat ko‘rinishida taqdim etiladi)”[13]. | Vikipediya ma’lumotlar bazasi |
| 4. | “Xarajatlar – umumiy ma’noda ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar sotib oladigan tovar va xizmatlarning pul qiymati”[14]. | Buyuk Britaniyaning “Britannica” ensiklopediyasi |
| 5. | “Ishlab chiqarish xarajatlari korxonalarning mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish bilan bog‘liq to‘g‘ridan - to‘g‘ri (bevosita) va bilvosita xarajatlarini anglatadi”[15]. | Investopedia ma’lumotlar bazasi |

Yuqorida keltirilgan xarajatlar tushunchasiga tegishli ta’riflar asosida quyidagi jihatlarni umumiy ma’noda qayd etish o‘rinlidir:

1. Har qanday iqtisodiy jarayonlarni tashkil etish ushbu faoliyatlarni amalga

[10] Muallif tomonidan ishlangan
[11] https://qomus.info/
[12] Затраты / А.С. Нешитой // Большая российская энциклопедия : [в 35 т.] / гл. ред. Ю. С. Осипов. — М. : Большая российская энциклопедия, 2004—2017.
[13] https://ru.wikipedia.org/wiki/Затраты
[14] https://www.britannica.com/topic/cost
[15] https://www.investopedia.com/terms/p/production-cost.asp

oshirish uchun ma'lum bir resurslar (kapital, mehnat resurslari, tabiiy boyliklar yoki tadbirkorlik omili va hakazo) jalb etilishini taqazo etadi.

2. Ma'lum bir iqtisodiy faoliyatni tashkil etish uchun yo'naltirilgan resurslar boshqa yo'nalishlar uchun ushbu resurslarni jalb etish imkoniyati cheklanganligini bildiradi va bu orqali muqobil tanlov va muqobil qiymat tushunchalari paydo bo'ladi.

3. Iqtisodiy va moliyaviy jihatdan qaralganda jalb etilgan resurslarni universal o'lchov birligi yoxud umumiy ekvivalent qiymati bo'lgan pul ko'rinishida ifodalanishi mumkin.

4. Aynan u yoki bu tarmoqda qilingan xarajatlar ushbu tarmoq xususiyatlari va unumdorlik ko'rsatkichlari orqali tushuntirilishi mumkin. Biroq tarmoqlarning o'ziga xos xususiyatlari orqali xarajatlar va unumdorlik ko'rsatkichlarini izohlashda ayrim tafavvutlar yuzaga kelishi mumkin.

Xarajatlar borasida yuqorida keltirilgan ta'riflar va tushunchalar asosida oliy ta'lim muassasalari uchun ushbu kategoriyani atroflicha tahlil qilishga kirishishimiz mumkin bo'ladi. Buning uchun avvalo oliy ta'lim muassasalari va ularning asosiy missiyalari, vazifalari va maqsadlarini tushunishimiz talab etiladi.

Butun dunyoda oliy ta'lim muassasalarining eng asosiy ikkita missiyasi ajratib ko'rsatiladi. Bular bilim va ilmiy ma'lumotlarni yig'ish va ko'paytirish (ilmiy faoliyat), shuningdek ularni tarqatish (ta'lim berish)[16]. Birlamchi ma'noda oliy ta'lim muassasalarining asosiy vazifasi jamiyatda oliy ta'limga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlash hisoblanadi. Odatda ko'pchilik tadqiqotchilar tomonidan oliy ta'lim muassasasining quyidagi asosiy funksiyalari ajratib ko'rsatiladi[17]:

1) ta'lim berish (teaching);

2) ilmiy tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanish (research);

3) Jamoatchilik ishlari borasidagi faoliyat (public services).

Aynan mana shu funksiyalar va tadbirkor universitet g'oyasini ilgari surgan holda Universitet 3.0 konsepsiyasi taklif etilgan bo'lib, aynan ushbu konsepsiya

---

[16] Elchanan Cohn and Samuel T. Cooper, Multi-product cost functions for universities: economies of scale and scope - International handbook on the economics of education/edited by Geraint Johnes, Jill Johnes.pp. 579-612.
[17] Elchanan Cohn and Samuel T. Cooper, Multi-product cost functions for universities: economies of scale and scope - International handbook on the economics of education/edited by Geraint Johnes, Jill Johnes.pp. 579-612.

orqali oliy ta’lim muassasalarining vazifa va funksiyalari kengroq qamrab olinishi nazarda tutiladi.




**1-rasm. Oliy ta’lim muassasalarining asosiy funksiyalari[18]**

O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining 11-moddasiga ko‘ra: “Oliy ta’lim bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta’minlaydi”[19]. Demak oliy ta’lim sohasining asosiy vazifasi bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta’minlash hisoblanadi.

Ammo so‘nggi yillarda o‘zaro manfaatdor tomonlar (davlat, fuqarolar, ishlab chiqaruvchilar, nodavlat notijorat tashkilotlari va h.z) ning barchasiga taaluqlilik nuqtayi nazaridan oliy ta’lim muassasalarining quyidagi muhim missiya va vazifalarini alohida ajratib ko‘rsatish kuzatilmoqda[20]:

✓ Jamiyatda ilm va tadqiqotlarni rivojlantiruvchi, yangi innovatsiya va texnolgiyalarni, axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi subyekt sifatida namoyon bo‘ladi;

---

[18] Elchanan Cohn and Samuel T. Cooper, Multi-product cost functions for universities: economies of scale and scope - International handbook on the economics of education/edited by Geraint Johnes, Jill Johnes. pp. 579-612. asosida muallif ishlanmasi.
[19] https://lex.uz/docs/5013007
[20] Sanyal B. C., Johnstone D. B. “International trends in the public and private financing of higher education”, Published online: 18 March 2011, UNESCO IBE 2011;

✓ Globalizatsiya jarayonlarining muhim ishtirokchisi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bunda bilimlar, tajribalar va turli innovatsiyalarning manbai sifatida oliy ta’lim muassasalari muhim o‘rin tutishni boshlamoqda;

✓ Ilmga asoslangan jamiyat va iqtisodiyotning asosiy kuchi (drayveri) sifatida namoyon bo‘lish;

✓ Ta’lim xablari strategiyasida kuchli tijoratlashtirish va diversifikatsiya orqali ochiq iqtisodiyot subyektlari (eksporterlar) sifatida faoliyat yuritish;

✓ Yashil iqtisodiyot va ekologik jihatdan barqaror iqtisodiyotni joriy etishda asosiy tashabbuskor (drayver) sifatida namoyon bo‘lish.

Bilvosita olib qaralganda oliy ta’lim muassalari o‘z faoliyatini amalga oshirish borasida ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning ishtirokchisi, soliq to‘lovchi, ish beruvchi va iste’molchilar uchun xizmatlar ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyekti sifatida ham namoyon bo‘lishi kuzatiladi. Yuqoridagilardan xulosa qilib, oliy ta’lim muassasalarining umumiy va xususiy, birlamchi va qo‘shimcha vazifalarini ajratish mumkinligini xulosa qilish mumkin.

Yuqorida keltirilgan asosiy missiyalar, vazifa va funksiyalardan kelib chiqqan holda oliy ta’lim muassasalariga yetarlicha resurslarni jalb etish, muxtasar qilib aytganda yetarlicha moliyalashtirish talab etiladi. Aynan kun tartibidagi ushbu masala natijasida oliy ta’lim muassasalarining iqtisodiyotdagi roli va ulushi keskin oshishi hamda ularning faolligi ortishi kuzatilmoqda. Tarmoqqa yetarlicha ishchi kuchi, moliyaviy resurslar, kapital sarflar va boshqa xarajatlarni yo‘naltirish davlat siyosati va jamiyat taraqqiyotining ajralmas qismi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Oliy ta’lim muassasalari xarajatlarining iqtisodiy ma’noda o‘ziga xos jihatlarni sharhlashdan oldin, oliy ta’lim sohasiga tegishli bo‘lgan quyidagi xususiyatlarni keltirib o‘tish maqsadga muvofiqdir:

1. Iqtisodiy ma’noda oliy ta’lim sohasi xizmatlar ko‘rsatish sifatida tasniflanadi. Xususan, iqtisodiy tarmoqlar umumiy tasniflanishiga ko‘ra va iqtisodiy faoliyat ko‘rsatkichlarning yuritilishi statistikasida oliy ta’limdagi faoliyat - ta’lim xizmatlari deya tasniflanadi. Bu esa oliy ta’lim faoliyatini iqtisodiy ma’noda xizmat ko‘rsatish faoliyati sifatida qarashimiz kerakligini anglatadi.

2. Oliy ta’lim berish ma’lum bir standartlarga asoslangan xizmat ko‘rsatish sohasi hisoblanadi. Bunda oliy ta’lim berish shartlari (talablari) ma’lum normativ-huquqiy aktlar asosida tartibga solinadi.

3. Oliy ta’lim, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasida yuzaga kelgan jarayon bo‘lib, unda xizmat ko‘rsatish va iste’mol bir vaqtda yuz beradi. Ya’ni oliy ta’lim xizmatlarining o‘zi “yakuniy mahsulot” sifatida qaraladi.

4. Oliy ta’lim berish sohasi personal xizmatlar ko‘rsatish sohasi sifatida qaraladi. Bu esa ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasida ta’lim berish jarayoniga ma’lum bir standartlar qo‘yilishini talab etadi. Bu bir o‘qituvchiga ma’lum miqdorda talaba ko‘rsatkichini o‘rnatilishida o‘z ifodasini topadi.

5. Oliy ta’lim sohasi yuqori malakali ishchi kuchi talab etuvchi soha hisoblanadi. Ya’ni ishchi kuchi ko‘rsatkichining intensivligiga (labor intensive) asoslangan tarmoq deya e’tirof etiladi. Ushbu holat o‘qituvchi – talaba ko‘rsatkichlarini belgilanganligida o‘z ifodasini topgan.

6. Ishchi kuchi ko‘rsatkichining intensivligiga (labor intensive) qat’iy bog‘langanlik omilini hisobga olgan holda tarmoqda kapital intensivligi (capital intensive) past va xizmat ko‘rsatishda kapital orqali ishchi kuchi omilini o‘rnini bosish imkoniyati cheklangan. Ya’ni sanoat yoki qishloq xo‘jaligi sohalarida bo‘lgani kabi kapitallashuv darajasini oshirish hisobiga mehnat resurslarini optimallashtirish imkoniyatlari cheklangan.

7. Shuningdek oliy ta’lim sohasi yuqori malakali ishchi kuchini talab etuvchi tarmoq hisoblanadi. Ushbu holat professor-o‘qituvchilarga ham ma’lum bir talablar (ilmiy salohiyat, mutaxassislik bo‘yicha) o‘rnatilganligi bilan izohlanadi.

8. An’anaviy oliy ta’lim berish sohasi texnologik jihatdan o‘zgarishi pedagogik, o‘quv-uslubiy yo‘nalishlarda yuz berishi mumkin. Ammo ishlab chiqarish unumdorligini oshirishga ushbu texnologik o‘zgarishlarning aloqasi yo‘q. Oliy ta’limda so‘nggi vaqtlarda ta’lim berishning yangi shakllari bo‘lgan masofaviy va blended kabi turlari ommalashmoqda. Biroq bu shakllar an’anaviy oliy ta’limdan boshqa shakllar bo‘lib, an’anaviy oliy ta’limning o‘zidagi ishlab chiqarish jarayonidagi texnologik o‘zgarishlarni ifodalamaydi.




**2-rasm. Oliy ta’lim sohasining iqtisodiy ma’noda o‘ziga xos xususiyatlari**[21]

Shu o‘rinda oliy ta’lim xizmatlarini ko‘rsatishni tashkil etuvchi ikki asosiy muassasa shakllarini guruhlashimiz mumkin. Bular davlat oliy ta’lim muassasalari va nodavlat oliy ta’lim tashkilotlari ko‘rinishidagi shakllar bo‘lib, oliy ta’lim xizmatlari ushbu ikki shakldagi muassasalar orqali tashkil etiladi. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunining 3-moddasiga ko‘ra:

“***Davlat ta’lim muassasasi*** — davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan davlat mulki bo‘lgan mol-mulk negizida tashkil etilgan, davlat ta’lim standartlariga va davlat ta’lim talablariga muvofiq ta’lim beradigan muassasa. ***Nodavlat ta’lim tashkiloti*** — davlat ta’lim standartlari, davlat ta’lim talablari va o‘quv dasturlariga muvofiq ta’lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan litsenziya asosida yoki xabardor qilish tartibida ta’lim xizmatlari ko‘rsatuvchi yuridik shaxs”[22].

---

[21] Muallif ishlanmasi
[22] https://lex.uz/docs/5013007

Yuqoridagi barcha o‘ziga xos jihatlarni hisobga olgan holda oliy ta’lim muassasalarida xarajatlarga yondashuv ham bir qancha xususiyatlarga egaligini ko‘rishimiz mumkin:

- Oliy ta’lim xarajatlarini moliyalashtirishda bitta talabaga nisbatan aniqlash amaliyoti qabul qilingan bo‘lib, bunda kunduzgi ta’lim berish shakli ekvivalentidagi ko‘rsatkich asosida hisoblash amalga oshirilishi nazarda tutiladi;
- Oliy ta’lim muassasalari xarajatlari mehnat unumdorligi tushunchasiga asoslangan holda unumdorlikdagi turg‘unlik asosida o‘rganilishi muhim ahamiyat kasb etadi;
- Oliy ta’lim sohasida ish haqlariga sarflarning umumiqtisodiy ish haqi ko‘rsatkichlariga qiyoslash asosida xulosalar olinishi maqsadga muvofiqdir;
- Oliy ta’lim xarajatlarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tarmoqda iqtisodiy miqyos samarasi (economies of scale) va iqtisodiy xilma-xillik samarasi (economies of scope) qanday amal qilishini o‘rganish muhim masala hisoblanadi;
- Oliy ta’lim muassasalarining davlat va nodavlat shakllariga mutanosib ravishda ularda xarajatlarning iqtisodiy va tashkiliy tasniflanishi farqlanadi;

Oliy ta’lim muassasalarining davlat va nodavlat shakllarida xarajatlarning tasniflanishi va aks ettirilishi farqlanadi. Davlat oliy ta’lim muassasalarida xarajatlar budjet tizimi budjetlariga asoslangan holda O‘zbekiston Respublikasi “Budjet kodeksi”ga asosan tasniflangan (2-jadval).

O‘zbekiston Respublikasi “Budjet kodeksi”ning 23-moddasiga ko‘ra budjet tizimi budjetlarining iqtisodiy belgilar bo‘yicha xarajatlari quyidagi xarajatlar guruhlariga bo‘lingan:

**birinchi guruh** — ish haqi, pensiyalar, nafaqalar, stipendiyalar, kompensatsiya to‘lovlari va kam ta’minlangan oilalarga moddiy yordam;

**ikkinchi guruh** — ijtimoiy ehtiyojlarga ajratmalar;

**uchinchi guruh** — kapital qo‘yilmalar (rivojlanish davlat dasturlarida nazarda tutilgan aniq yo‘naltirilgan ro‘yxatlarga muvofiq);

**to‘rtinchi guruh** — boshqa xarajatlar.

Xarajatlarni tasniflash va ularni iqtisodiy guruhlarga ajratish mablag‘larni ajratish va moliyalashtirishni tashkil etishning ajralmas qismi hisoblanadi. Oliy ta’lim muassasalari xarajatlarini moliyalashtirishda so‘nggi yillarda davlat buyurtmasi instituti keng qo‘llanila boshlandi. Ushbu institut nodavlat oliy ta’lim tashkilotlariga ham qo‘llanilmoqda.

Shuningdek ko‘pgina davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish amaliyoti qo‘llanila boshlandi. Bu borada Prezident farmonlari va Hukumat qarorlari qabul qilinib, bosqichma-bosqich izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

**2-jadval.**

**Davlat oliy ta’lim muassasalarida xarajatlarni budjet tizimi bo‘yicha tasniflanishi**[23]

| t/r | Budjet tizimi budjetlari xarajatlari tasnifining tuzilmasi | Tavsifi |
|---|---|---|
| 1 | Budjet tizimi budjetlari mablag‘larining manbalari va darajalari bo‘yicha tasniflash | Amalga oshirilayotgan xarajatlarning tegishli mablag‘lar manbalari va budjetlar darajalariga mansubligini aniqlash uchun qo‘llaniladi |
| 2 | Vazifa jihatidan tasniflash | Xarajatlarning vazifa jihatidan tasnifi davlat funksiyalarini bajarish uchun mablag‘lar yo‘nalishini aks ettiruvchi xarajatlarni guruhlashdir |
| 3 | Dasturiy tasniflash | davlat, tarmoq va hududiy rivojlantirish dasturlarini bajarish uchun mablag‘lar yo‘nalishini aks ettiruvchi xarajatlarni guruhlashdan iborat |
| 4 | Tashkiliy jihatdan tasniflash | Xarajatlarning tashkiliy tasnifi budjet tizimi budjetlarining mablag‘larini taqsimlovchilar bo‘yicha kodlashdan iborat bo‘ladi |
| 5 | Iqtisodiy jihatdan tasniflash | Xarajatlarning iqtisodiy tasnifi xarajatlarni iqtisodiy yo‘nalishiga ko‘ra kodlashdan iborat bo‘ladi |
| 6 | Hududiy tasniflash | Hududiy tasnif budjet tashkilotlarining va budjet mablag‘lari oluvchilarning tegishli ma’muriy-hududiy birlikka mansubligini aniqlash maqsadida qo‘llaniladi |

[23] O‘zbekiston Respublikasi “Budjet kodeksi”ning 22-moddasiga asosan muallif ishlanmasi

Oliy ta'lim sohasida xarajatlarni oliy ta'lim muassasasining asosiy missiyalari va vazifalaridan kelib chiqib tasniflashdan tashqari talaba nuqtayi nazaridan ham yondashish muhim ahamiyatga ega. Zero, oliy ta'lim faoliyatining amalga oshishi har ikki tomonning (oliy ta'lim muassasasi va talaba) xarajatlarining umumlashtirilgan holda tadqiq etilishini talab etadi (3-rasm). Butun jahon tajribasida ham ushbu xarajatlarga kompleks yondashuv asosida baho berish amal qilishini hisobga olsak, mamlakatimizda ham oliy ta'limni tashkil etishda ikki tomonning xarajatlariga e'tibor berish maqsadga muvofiq deb hisoblash mumkin.




**3-rasm. Oliy ta'lim muassasasi va talaba xarajatlarining asosiy yo'nalishlari[24].**

Shuningdek talaba xarajatlarida iqtisodiy ma'noda ularning oliy ta'limda o'qish davrida ishchi kuchi bozoriga jalb qilinmasligi oqibatida paydo bo'luvchi "*yo'qotilgan daromadlar*" yoxud "*o'tkazib yuborilgan daromadlar*"i ham hisobga olinishi kerak.

Umumiqtisodiy yondashuv asosida davlat, talabalar va boshqa subyektlar

[24] Muallif ishlanmasi

tomonidan oliy ta’limga qilingan xarajatlarni investitsiyalar deya baholash taklif etiladi[25]. Ushbu xarajat (sarf)larni investitsiyalar deya qabul qilish va ularga nisbatan xususiy va ijtimoiy qaytimni xisoblash orqali ularni baholash imkoniyati paydo bo‘ladi.

Ushbu iqtisodiy qaytimlar oliy ta’lim jarayonida ishtirok etuvchi hamda ushbu jarayonga sarmoya kirituvchi subyektlarda quyidagicha namoyon bo‘ladi:

- Xususiy ma’noda talaba, uning oilasi uchun kelajakda daromadlarning oshishi, ish haqi va unga bog‘liq bo‘lgan to‘lovlarning oshishi orqali namoyon bo‘ladi;
- Davlat va umumjamiyat nuqtayi nazaridan aholi daromadlari ortishi, soliq tushumlarining ko‘payishi va ijobiy iqtisodiy o‘sishni ta’minlash imkoniyatining yaxshilanishi orqali namoyon bo‘ladi.

Oliy ta’limda xarajatlarni moliyalashtirish borasida umumiy xulosalar shundan iboratki,

Birinchidan, so‘nggi yillarda oliy ta’lim xarajatlarini moliyalashtirishda davlat moliyasidagi cheklovlar kuchayib borayotganligini kuzatilmoqda.

Ikkinchidan, oliy ta’lim tizimi oldiga ommaviy qamrov darajasiga erishish borasidagi maqsad va ko‘rsatkichlarga erishish masalasi qo‘yilmoqda. Bu esa oliy ta’lim sarflarining oshiruvchi miqdoriy (ekstensiv) omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Uchinchidan, so‘nggi yillarda talaba birligiga xarajatlarning oshishi ham oliy ta’lim xarajatlari borasidagi asosiy masalalardan biri sifatida yuzaga chiqmoqda.

To‘rtinchidan, oliy ta’limni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish masalasi kabi omillar ushbu jarayon uchun asosiy jihatlar bo‘lib qolmoqda.

Aynan yuqorida qayd etilgan omillar va jihatlardan kelib chiqqan holda oliy ta’lim muassasalari xarajatlarini va ularni moliyalashtirishning ilmiy-nazariy asoslarini hamda ular borasida shakllangan xorij tajribasini o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

---

[25] Рубинштейн А.Я., Славинская О.А., Бураков Н.А. К вопросу финансирования опекаемых благ в сфере культуры, образования и науки //Вестник института экономики РАН. – 2019. – №. 3. – С. 9-31.

## 1.2. Oliy ta’lim muassasalarida xarajatlarni moliyalashtirishga oid ilmiy-nazariy qarashlar

Oliy ta’lim muassasalari xarajatlarini moliyalashtirishda ularning tarmoq xususiyatlari asosida bir qancha ilmiy-nazariy qarashlar shakllangan. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab iqtisodiy qarashlarda inson resurslari, inson kapitali kabi tushunchalar paydo bo‘ldi. Go‘yoki, iqtisodiy qiymat yaratishda mehnat, jismoniy kapital, tabiiy resurslar va tadbikorlik faoliyati kabi omillar keng o‘rganilishi va ularning iqtisodiy rivojlanish, jamiyat farovonligini oshirishdagi o‘rni kapitalning yangi “turi” bilan boyitildi.

Inson kapitali nazariyasining qisqacha mazmuni shundan iboratki, inson resurslarini ta’lim jarayoniga jalb qilish orqali uning mehnat unumdorligi oshishiga va bu orqali qo‘shimcha qiymat yaratilishiga erishiladi. Ta’limning turli bo‘g‘inlari orqali tizimli ravishda inson resurslariga sarmoya kiritish kelajakda xususiy ma’noda ta’lim oluvchiga shaxsiy daromadlarining ortishi va umumjamiyat nuqtayi nazaridan ekzogen omil sifatida iqtisodiy o‘sishni ta’minlovchi sifatida qaytim olib kelishi empirik dalillar asosida ilmiy isbotini topdi. Garchi klassik iqtisod maktabi namoyondalari bo‘lgan A.Smit[26], D.Rikardo[27] va A.Marshall[28] kabilar inson resurslari mehnat unumdorligini oshirishda qayta tayyorlash va malaka oshirishning o‘rnini alohida ta’kidlashgan bo‘lsada, 1960-yillardan boshlab inson kapitali xususiyatlarini o‘rganish maqsadlarida ta’lim iqtisodiyoti maktabi maxsus yo‘nalish sifatida rivojlanib bordi.

Inson kapitali va ta’limda signallar nazariyasi va ta’limning bilvosita ijobiy ta’sirlari maktablari namoyondalari g‘arb iqtisodiy maktablarida juda ko‘plab tadqiqotlar olib borishdi (3-jadval).

Ta’lim iqtisodiyoti maktabida turli nazariyalarning rivojlanib borish zamirida oliy ta’lim iqtisodiyoti borasida ham turli tadqiqotlar, nazariyalar va qarashlar

[26] Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. – Litres, 2022.
[27] Петти, В., Смит, А., Рикардо, Д., Кейнс, Д., & Фридмен, М. (2000). Классика экономической мысли: Сочинения. М.: Изд-во Эксмо-Пресс, 616.
[28] Маршалл А. Принципы политической экономии. – 1993.

shakllanib bordi. Ushbu tadqiqotlarda oliy ta'lim xarajatlarining xususiyatlari, o'zgarishi va ularning oliy ta'lim xizmatlari narxlariga ta'siri o'rganilgan.

**3-jadval.**

**1960-yildan so'ng ta'lim iqtisodiyotida tadqiqot yo'nalishlari rivojlanish bosqichlari[29]**

| | Tadqiqot yo'nalishlari | | |
|---|---|---|---|
| | **Inson kapitalidan xususiy qaytim nazariyalari** | **Ta'limda skrining va signallar nazariyalari** | **Ta'limdan ijobiy bilvosita ta'sirlar nazariyalari** |
| *1960-yillar* | X | | |
| *1970-yillar* | X | X | |
| *1980-1990-yillar* | X | X | X |

Shuningdek ta'limning markazlashgan tartibda tashkil etuvchi mamlakatlarda oliy ta'lim uchun budjet mablag'larini ajratish va ularni o'zlashtirish borasida ham bir qancha tadqiqotlar olib borilgan.

Bundan tashqari oliy ta'lim xarajatlarini "xarajatlar xastaligi" tashxisi bilan o'rganish borasida, oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishda xarajatlarni taqsimlash (cost sharing) borasida, oliy ta'lim muassasalari xarajatlarini moliyalashtirishda iqtisodiy miqyos va xilma-xillik samarasining qo'llanilishi borasida hamda oliy ta'lim muassasalari xarajatlarini moliyalashtirishni daromadlar nazariyasi asosida o'rganish borasida bir qancha tadqiqot va nazariy qarashlar shakllanganligini qayd etish mumkin (4-jadval).

Ushbu tadqiqotlar va ilmiy-nazariy qarashlarning barchasi o'ziga xos hususiyatlarga ega bo'lib, oliy ta'lim xarajatlarining xususiyatlari hamda bog'liqliklarini tadqiq etishga qaratilgan. Empirik ma'lumotlar asosida har bir ilmiy-nazariy qarashlarni tadqiq etish borasida bir qancha tadqiqot ishlari dunyoning bir qancha oliy ta'lim tizimlari doirasida olib borilgan va ular asosida turli xulosalar va ilmiy farazlar shakllangan.

***Oliy ta'lim xarajatlarini "xarajatlar xastaligi" tashxisi bilan o'rganish borasida shakllangan ilmiy-nazariy qarashlar.*** 1966-yilda U.Baumol va U Bouenlar[30] tomonidan san'at va madaniyat tashkilotlari iqtisodiy xususiyatlari

[29] Psacharopoulos G. "Economics of education: A Research Agenda" , Economics of Education Review, Vol. 15, No. 4, pp. 339-344, 1996

[30] W.J. Baumol and W.G. Bowen Performing Arts. The Economic Dilemma. A study of Problems common to Theater, Opera, Music and Dance. New York, The Twentieth Century Fund, 1966, XVI p. 582 p.

borasida tadqiqot natijalari e’lon qilindi. Ular yakka xizmat ko‘rsatishga asoslangan tarmoqlar iqtisodiy samaradorligi borasida yuz berishi mumkin bo‘lgan o‘zgarmas xususiyat, turg‘unlikka e’tibor qaratishdi.

**4-jadval.**

**Oliy ta’lim muassasalarida xarajatlarni moliyalashtirishga oid ilmiy-nazariy qarashlar[31]**

| t/r | Ilmiy-nazariy qarashlar | Ilmiy-nazariy qarashlar borasida izlanishlar olib borgan tadqiqotchilar |
|---|---|---|
| **1** | Oliy ta’lim xarajatlarini “xarajatlar xastaligi” tashxisi bilan o‘rganish borasida shakllangan ilmiy-nazariy qarashlar | U. Bouen, R.Archibald, D.Feldman, A.Rubinshteyn, I.Abankina, T.Abankina, P.Derkachev |
| **2** | Oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishda xarajatlarni taqsimlash (cost sharing) borasida shakllangan ilmiy-nazariy qarashlar | B.Jonston, P.Markuchchi, P.Teksera, X. Vossenshteyn, V.Karpenter |
| **3** | Oliy ta’lim muassasalari xarajatlarini moliyalashtirishda iqtisodiy miqyos va xilma-xillik samarasining qo‘llanilishi borasida shakllangan ilmiy-nazariy qarashlar | R.Koshal, M.Koshal, E.Koun, J.Jons, D.Laband, B.Lens, A. Vorsington, S.Rayn, M.Santosh, P.Derkachev, K. Zinkovskiy, I.Kravchenko, K.Semenova |
| **4** | Oliy ta’lim muassasalari xarajatlarini moliyalashtirishda daromadlar nazariyasi asosida shakllangan ilmiy qarashlar | H.Bouen, R.Archibald, D.Feldman, T.Keyn, P.Orzag, D.Ganter. |
| **5** | Oliy ta’lim xarajatlarini signallar (skrining) nazariyasi orqali tahlil qilish borasida shakllangan ilmiy-nazariy qarashlar | J.Stigler, M.Spens, K.Erou, A.Klark, I.O.Bessonov, A.V.Aistov |

Tadqiqotlarga ko‘ra Betxovenning torli kvartet ijrosi uchun XIX asrda to‘rt kishi talab etilgan bo‘lsa, XX asrda ham xuddi shuncha ijrochi talab etiladi. Vaholanki, ushbu davrda ushbu ijrochilarning ish haqlari boshqa iqtisodiyot tarmoqlaridagi ishchilar kabi real miqdorlarda oshishda davom etgan. Boshqacha qilib aytganda mehnat unumdorligi o‘zgarmagan holda ish haqlari oshishi kuzatiladi va ushbu tashkilotlarda iqtisodiy samaradorlik tushunchasini yo‘qqa chiqaradi. Masalaning qiziq jihati shundaki, ushbu san’at asarini ijro etish uchun ijrochilar

[31] Muallif ishlanmasi

sonini uchta yoki ikkita qilish imkonsiz. Bu ijroning amalga oshishiga imkon bermaydi. Bu ushbu sohaning asosiy texnologik xususiyati. Ushbu xususiyat mehnat unumdorligi oshmagan holda real ish haqlari oshadigan yakka xizmatlar ko‘rsatish texnologiyasiga asoslangan yana bir qancha tarmoqlar uchun ham xosligi ilmiy isbotlandi. Xususan, ta’lim sohasi, davlat xizmatlari, yuridik xizmatlar va tibbiyot xizmatlari sohalarida ham ushbu xususiyat borligi kuzatildi. Ushbu sohalarning xarajatlari xususiyatlarida yangi “xarajatlar xastaligi” muammosi iborasi qo‘llanila boshlandi. Ushbu xulosaga ko‘ra boshqa tarmoqlardagi real ish haqlari oshishiga mutanosib ravishda mehnat unumdorligi oshmagan holda ish haqlarining oshib borish samarasi mavjud tarmoqlar, sohalar va iqtisodiy subyektlar “xarajatlar xastaligi” tashxisi bilan o‘rganiladigan bo‘ldi. Ushbu xususiyatlar oliy ta’lim muassasalari uchun ham o‘rinli ekanligi XX asrning ikkinchi yarmida ko‘pgina tadqiqotlar bilan isbotlandi. 1960-yillarda U.Bouen AQSHning eng yirik uchta xususiy universitetlari kesimida so‘nggi oltmish yil ichidagi xarajatlarni tahlil qilgan holda ularda “xarajatlar xastaligi” bo‘lganligini ilmiy isbotladi[32]. Shuningdek, I.V.Abankina, T.V.Abankina, P.V.Derkachevlar tomonidan 2000-2012-yillar uchun Rossiya Federatsiyasi oliy ta’lim muassasalari uchun o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra ham ushbu davrda “xarajatlar xastaligi” muammosi bo‘lganligi o‘z tasdig‘ini topgan[33].

Oliy ta’lim xarajatlarining tarkibida aynan ish haqi sarflarining muhim ahamiyatga ega bo‘lganligi tufayli asosiy ilmiy-nazariy qarashlar ushbu omil atrofida shakllangan deyish mumkin. Bunda oliy ta’lim sohasida mehnat unumdorligining turg‘unligi (stagnatsiyasi) va ishlab chiqarish samarasining umumiy iqtisodiyotdagi ko‘rsatkichlaridan ortda qolishi (productivity lag) borasida bir qancha ilmiy-nazariy qarashlar shakllangan.

Ushbu masalada U.J.Baumolning ilmiy-nazariy qarashlari e’tiborga loyiq[34]. Ikkita sektordan iborat iqtisodiyotni tasavvur qilib ko‘raylik deydi U.Baumol.

[32] Bowen W. G. The ’cost disease’in higher education: is technology the answer? //The Tanner Lectures Stanford University. – 2012.
[33] Абанкина И. В., Абанкина Т. В., Деркачев П. В. Исследование" болезни издержек" в российском высшем образовании //Университетское управление: практика и анализ. – 2014. – №. 4-5 (92-93). – С. 52-65.
[34] Baumol U. D. Anatomiya defitsita //Otechestvenпые zapiski. – 2005. – №. 4. – S. 25.

Birinchi sektor mehnat unumdorligi vaqt o‘tishi bilan kapital sig‘imi oshishi, texnologik yuksalish oqibatida ish soatlari birligiga mahsulot birligi o‘sib boruvchi avtomobil ishlab chiqarish sektori bo‘lsin. Ikkinchi sektor esa Gaydnning fortepiano triosi ijrosi bilan shug‘ullanuvchi xizmat ko‘rsatish sektori bo‘lsin. Tasavvur qilaylik avtomobil ishlab chiqarish sektorida kapital sig‘imi oshishi, texnologik yuksalish oqibatida ish soatlari birligiga mahsulot birligini har yilda 4 foizga oshirish imkoniyati mavjud. Ikkinchi sektorda musiqa ijrochilarining mehnat unumdorligi (ish soatlari birligiga ijro qilingan konsertlar soni) o‘zgarishsiz qoladi deb tasavvur qilaylik. Avtomobil ishlab chiqarish sektorida yuz bergan 4 foizlik mehnat unumdorligining oshishi ushbu tarmoqda ishlovchilar uchun real ish haqlarini oshirish imkonini beradi va yillar davomida texnologik yutuqlarning ushbu tarmoqda qo‘llanishi orqali bunday imkoniyatlar yaxshi ta’minlangan bo‘ladi. Ammo musiqa ijrochiligi sektorida bunday imkoniyat mavjud bo‘lmaydi. Jonli va ijrochilar soni qat’iy cheklangan ushbu tarmoqda real ish haqlarini ta’minlash so‘roq ostida qoladi. Aynan shu tufayli ham bu tarmoqda band bo‘lgan ishchi kuchining real ish haqlarini mehnat unumdorligiga bog‘lagan holda oshirish imkoniyati mavjud bo‘lmaydi. Ammo ushbu tarmoqda band bo‘lgan ishchi kuchining ham real ish haqlarini iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida band bo‘lgan ishchi kuchi real ish haqlariga mutanosib ravishda oshirib borish talab etiladi. Aks holda tarmoqda raqobatbardosh ish haqlarining ta’minlanmasligi ushbu tarmoqqa ishchi kuchini jalb etish borasida muammolar yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin. Oliy ta’lim muassasalarida ham ushbu tashxis o‘rinli bo‘lib, mehnat unumdorligining ortda qolishi masalasi ilmiy o‘rganilishini talab etadi. Oliy ta’lim xizmatlarini ko‘rsatishdagi asosiy xususiyat ushbu faoliyat mahsulot birligini oshirish va ularni ish kuchi birligiga oshirishni emas balki mavjud birliklarga qiymat qo‘shish ya’ni ularning malakasini oshirishga qaratilgan bo‘ladi. Aynan shu xususiyat orqali ta’lim xizmatlari narxini u yoki bu tarzda xarid qilinishi (davlat yoki nodavlat buyurtmalari orqali) mehnat unumdorligidagi ushbu bo‘shliqni to‘ldirishi mumkinligi e’tirof etiladi.

Oliy ta’lim xarajatlarini oshishi zamirida aynan “xarajatlar xastaligi” omili yotadimi yoki boshqa omillarining ham ta’siri bormi degan savol ham tadqiqotchilar

tomonidan atroflicha o‘rganilgan. 2008-yilda R.Archibald va D.Feldmanlar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotda[35] bir qancha tarmoqlarda narxlar oshishi va xarajatlarning o‘zgarish dinamikasi tadqiq etilgan. Tadqiqot xulosalariga ko‘ra oliy ta’lim sohasi bilan yaqin texnologik xususiyatga ega bo‘lgan bir qancha sohalar, jumladan huquqiy xizmat, tibbiy xizmatlar va stamotologik xizmatlar shuningdek ilmiy xodimlar tomonidan ko‘rsatiladigan personal xizmatlarda ham oliy ta’lim sohasi bilan mushtarak jihatlar kuzatilgan. Tadqiqot xulosasiga ko‘ra “xarajatlar xastaligi” omili personal xizmat ko‘rsatishga asoslangan va yuqori malakali ishchi kuchini talab etadigan tarmoqlarga xosligi kuzatilgan.

Umumiy qilib aytganda, “xarajatlar xastaligi” asosida oliy ta’lim sohasi xarajatlarini o‘rganish nazariyalarida quyidagi jihatlar o‘rtaga tashlanadi:

- Oliy ta’lim sohasida mehnat unumdorligining turg‘unligi natijasida uning ortda qolish omili mavjud (productivity lag) va bu omil tannarxni pasaytirish va mehnat unumdorligining miqdoriy oshishi natijasida real ish haqlarini oshirish imkoniyatlarini cheklaydi;
- Oliy ta’lim personal xizmat ko‘rsatish sohasi bo‘lib, xizmatlarning ko‘rsatilish jarayonining o‘zi yakuniy mahsulot hisoblanadi. Bu esa mahsulot birligiga mehnat resurslari miqdorini optimallashtirish imkoniyatlarini cheklovchi omil sifatida namoyon bo‘ladi;
- Oliy ta’lim sohasi yuqori malakali ishchi kuchini talab etuvchi soha hisoblanadi. Bu esa ushbu toifadagi ishchi kuchining ish haqlarini mehnat bozoridagi raqobatli narxlarda jalb etishni taqazo etadi. Natijada oliy ta’limda xarajatlar oshishi uchun turtki paydo bo‘lishi kuzatiladi.

Shuningdek oliy ta’lim xarajatlari oshishida “xarajatlar xastaligi” omilini o‘rganish asnosida oliy ta’lim xizmatlari narxlarining tez sur’atlarda oshishi ham empirik ma’lumotlar asosida o‘rganilgan. Xususan, R.Archibald va D.Feldmanlar o‘z tadqiqotida[36] ushbu jihatga alohida to‘xtalganligini ko‘rish mumkin. Ushbu

[35] Archibald R. B., Feldman D. H. Explaining increases in higher education costs //The Journal of Higher Education. – 2008. – T. 79. – №. 3. – S. 268-295.
[36] Archibald R. B., Feldman D. H. Explaining increases in higher education costs //The Journal of Higher Education. – 2008. – T. 79. – №. 3. – S. 268-295.

tadqiqotda 1960-yillarda Bela Belassa [37](1964-yil) va Paul Samuelson[38] (1964-yil) lar tomonidan 1821-yilda David Rikardo[39] tomonidan tadqiq etilgan ilmiy xulosa asosida tovar va xizmatlar narxining turli mamlakatlarda o‘zgarishi borasida tadqiqotlarga asoslanib ayrim xulosalarga kelingan. David Rikardoning fikriga ko‘ra tovar ishlab chiqarish gullab yashnagan mamlakatlarda uy xo‘jaligi xizmatlariga tegishli tovar va xizmatlar narxi yuqori bo‘lishi ta’kidlangan. Shuni hisobga olib, Belassa-Samuelson samarasiga ko‘ra sotish uchun mo‘ljallangan tovarlar ishlab chiqarish rivojlangan davlatlarda turli xizmatlar va umuman narx darajasi ham yuqori bo‘lishi kuzatiladi. Bunda ko‘pgina davlatlarning aholi jon boshiga YaIM va narxlar darajasi empirik dalillar asosida qiyosiy tahlil qilinadi. Feldman va Archibaldlarning xulosasiga ko‘ra oliy ta’lim xizmatlarining oshganligining sababi aynan “xarajatlar xastaligi” emas balki, Belassa-Samuelson samarasi ham sabab bo‘la olishi mumkin deb ta’kidlaydi. Ammo, Feldman va Archibaldlarning xulosasiga ko‘ra oliy ta’lim va unga o‘xshash yuqori malakali ishchi kuchini talab etuvchi soha va tarmoqlar uchun “xarajatlar xastaligi” omili o‘rinli ekanligi o‘z isbotini topgan.

Rossiya Federatsiyasi davlat oliy ta’lim muassasalari uchun “xarajatlar xastaligi” borasida o‘tkazilgan tadqiqotlarda ham bir necha omillar tahliliga ko‘ra 2000-2012-yillar uchun davlat oliy ta’lim muassasalarida “xarajatlar xastaligi” bo‘lganligi o‘z tasdig‘ini topgan. Ammo, aynan daromadlar taqchilligi va Baumol indeksi tahlillari ushbu omilni tasdiqlamaganligi kuzatilgan[40].

Tadqiqotlardan olinadigan asosiy xulosa shundan iboratki, “xarajatlar xastaligi” omili asosida daromadlar taqchilligi yetarlicha moliyaviy ta’minlanishiga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiqligi qayd etiladi.

***Oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishda xarajatlarni taqsimlash (cost sharing) borasida shakllangan ilmiy-nazariy qarashlar.*** Oliy ta’lim xarajatlarini

---

[37] Balassa, B. (1964). The purchasing-power parity doctrine:A reappraisal. The Journal of Political Economy, 72, 584–596.

[38] Samuelson, P. (1964). Theoretical notes on trade problems. Review of Economics and Statistics, 23(May), 145–154.

[39] Ricardo, D. (1821). On foreign trade. In On the principles of political economy and taxation (chap. 7). London: John Murray.

[40] Абанкина И. В., Абанкина Т. В., Деркачев П. В. Исследование" болезни издержек" в российском высшем образовании //Университетское управление: практика и анализ. – 2014. – №. 4-5 (92-93). – С. 52-65.

moliyalashtirishda so‘nggi davrlarda ko‘pgina davlatlarda kuzatilayotgan asosiy tendensiya bu – xarajatlarni bevosita manfaatdor tomonlar o‘rtasida taqsimlash asosidagi yondashuv deb aytishimiz mumkin. Ushbu ilmiy-nazariy qarashga ko‘ra oliy ta’lim xarajatlari talaba, uning ota-onasi (oilasi), davlat va xususiy filantrop yoki buyurtmachi tashkilotlar o‘rtasida taqsimlanishi va shu orqali moliyalashtirish tashkil etilishi kerak. Bunda oliy ta’limning haqiqiy xarajatlari davlat moliyasi orqali soliq to‘lovchilar, talaba va uning oilasiga (grantlar, qarzlar va ularning o‘z mablag‘lari ko‘rinishida), filantroplar uchun ularning endaument fondlari yoki homiylik asosidagi mablag‘lari shuningdek boshqa ko‘rinishlarda moliyalashtirilishi mumkinligi qayd etiladi. 2000-yilda ushbu ilmiy-nazariy qarashni atroflicha o‘rganish maqsadida AQSHning Ford faundeyshn loyihasi asosida 1999-2009-yillar davomida Xalqaro oliy ta’limni moliyalashtirishning qiyosiy taxlili va foydalanish imkoniyatlari (International Comparative Higher Education Finance and Accessibility (ICHEFA) Project) loyihasi bo‘yicha oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishda xarajatlarni taqsimlash amaliyotiga tegishli bir nechta tadqiqotlar o‘tkazilgan[41]. Ushbu tadqiqotlarda asosan quyidagi xulosalar olingan:

1) Oliy ta’limga talab oshganligi va qamrov darajasining o‘zgarishi natijasida oliy ta’limni moliyalashtirishga ekstensiv (demografik) omillar hisobiga “bosim” oshayotganligi ta’kidlangan;

2) Oliy ta’lim xarajatlarining mutlaq miqdorlarda, shuningdek talaba birligiga inflyatsiya darajasidan yuqori sur’atlarda oshayotganligi qayd etilgan;

3) Oliy ta’limni moliyalashtirishning asosiy manbasi hisoblangan davlat budjeti mablag‘larining nobarqaror tus olayotganligi va oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy barqarorligi so‘roq ostida qolayotganligi qayd etilgan;

Yuqoridagi jihatlarni hisobga olgan holda oliy ta’limni moliyalashtirishdagi cheklovlar (financial austerity) tushunchasi kiritilgan. Unga ko‘ra yuqorida ta’kidlangan omillarning chuqurlashuvi oliy ta’lim xarajatlarini yetarlicha moliyalashtirish imkoniyatlarini cheklaydi. Natijada quyidagi salbiy oqibatlar yuzaga

[41] Financing Higher Education Worldwide: Who Pays? Who Should Pay? by D. Bruce Johnstone and Pamela Marcucci. Baltimore: Johns Hopkins University Press, 2010. 322 pp.

kelish xavfi paydo bo‘ladi:

a) Ta’lim berish sifati pasayishi mumkin. Bunda o‘qituvchi birligiga talaba soni, talaba birligiga resurslar hajmi va kapital sarflar miqdori pasayib boradi. Natijada ta’lim berish uchun yetarlicha shart-sharoitlar yaratilishi so‘roq ostida qoladi;

b) Ta’limga qo‘shimcha mablag‘larni jalb qilish maqsadida ta’lim xizmatlari narxlarining oshirilishi yuz berishi mumkin va buning natijasida ta’lim olish imkoniyatlarining cheklanishi muammosi paydo bo‘lishi mumkin (accessibility);

v) Umummilliy ta’lim tizimida oliy ta’lim olish istagida bo‘lgan iqtidorli yoshlarni qamrab olish imkoniyatlari cheklanadi. Natijada ularni yo‘qotish xavfi paydo bo‘ladi. Ularni tizimli ravishda jamiyatning rivojlanishiga jalb qilish imkoniyati yo‘qotilishi mumkin.

Yuqorida qayd etilgan tendensiyalarni tadqiq etgan ko‘pgina mutaxassislar oliy ta’lim yetarlicha moliyalashtirilishi va qamrovni saqlab qolish masalasini bir yo‘la hal etishning yagona yo‘li oliy ta’lim xarajatlarini taqsimlash (cost sharing) orqali hal etilishi mumkin deb hisoblashadi.

Oliy ta’lim xarajatlarini taqsimlash amaliyoti qanday shaklda namoyon bo‘lishi borasida asosan quyidagi jihatlar tadqiq etilganligini xulosa qilish mumkin:

Birinchidan, oliy ta’lim muassasalarida xarajatlarni yetarlicha moliyalashtirish imkonini beruvchi to‘lov kontrakt narxlari joriy etilishi lozim. Ushbu siyosatni ta’lim yo‘nalishlari, davlat va xususiy oliy ta’lim muassasalari hamda moliyalashtirish manbalarini hisobga olgan holda joriy etish talab etiladi.

Ikkinchidan, xarajatlarni moliyalashtirishni davlat (soliq to‘lovchilar) moliyasidan talaba (uning oilasi) va biznes subyektlari o‘rtasida qayta taqsimlash yo‘lidan borish nazarda tutiladi.

Uchinchidan, talabalar uchun moliyaviy ko‘mak dasturlarini samarali ishlab chiqish talab etiladi. Bunda talabalarning ijtimoiy ahvoli hamda o‘zlashtirish ko‘rsatkichlariga asosan (mean-testing) ma’lum bir mezonlar ishlab chiqilishi lozim bo‘ladi. Shuningdek ko‘mak dasturlarida grantlar va qarz berish amaliyotlarini joriy etish kabi yo‘nalishlar dastaklar sifatida qo‘llanilishi mumkin.

To‘rtinchidan, moliyaviy ko‘mak dasturlarini joriy etishda ularning qaytarilish va ular bilan bog‘liq tavakkalchilik (risk) omillarini to‘liq taqsimlash nazarda tutiladi.

Beshinchidan, umumiy tizimni optimallashtirish va ichki va tashqi omillar ta’sirida isloh qilib borish nazarda tutiladi.

Xarajatlarni taqsimlashda ta’lim hizmatlarini moliyalashtirish borasida butun dunyoda tizimli o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Turli davlatlarda xarajatlarni qayta taqsimlash amaliyotiga asoslanishda yuqorida keltirilgan bosqichlar va omillar puxta o‘ylangan va atroflicha tahlil qilingan holda joriy etilishi tavsiya etiladi. Chunki, ushbu taqsimotda yo‘l qo‘yilgan xatolar yoki muammolar quyidagi salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin:

- Oliy ta’lim olish imkoniyatlarini cheklashi va o‘rta va quyi daromadli, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi guruhlarining oliy ta’lim olish imkoniyatlari xavf ostida qolishi mumkin;
- Oliy ta’lim muassasalarini yetarlicha moliyalashtirish manbalarida nobarqarorlik kuzatilishi va bu oliy ta’lim jarayoniga o‘zining salbiy oqibatlarini ko‘rsatishi mumkin;
- Noto‘g‘ri moliyaviy ko‘mak dasturlarini qo‘llash natijasida yirik debitorlik qarzlari va tavakkalchilikning noto‘g‘ri baholanishi oqibatida moliyaviy resurslarning qaytishi so‘roq ostida qolishi mumkin;
- Jarayonda institutsional subyektlarning (vazirlik va idoralar, agentliklar, bank muassasalari, sug‘urta tashkilotlari va h.z.) nomuvofiq ishlashi va *oliy ta’lim muassasasi-talaba-homiylar* sxemasi bilan uzviy va samarali bog‘liqlikda ishlay olmasligi natijasida tizimli muammolar, korrupsion va boshqa risklar paydo bo‘lish xavfi yuzaga kelishi mumkin.

Xarajatlarni taqsimlash amaliyotining moliyaviy, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy omillar natijasida to‘g‘ri qo‘llanilishi ijobiy samaraga olib kelishi bir qancha davlatlar tajribasida o‘z isbotini topgan. Misol uchun rivojlangan davlatlar, Afrika va Lotin

Amerikasining ayrim davlatlarida bu borada ijobiy natijalarga erishilgan[42,43,44].

***Oliy ta'lim muassasalari xarajatlarini moliyalashtirishda iqtisodiy miqyos va xilma-xillik samarasining qo'llanilishi borasida shakllangan ilmiy-nazariy qarashlar.*** Oliy ta'lim muassasalari xarajatlarini baholashda quyidagi ikki yo'nalish asosida ko'pgina tadqiqotlar olib borilgan[45,46,47,48]:

1. Iqtisodiy miqyos samarasi (economies of scale). Bunda asosiy xarajatlar drayveri bo'lgan xarajat turi hamda doimiy sarflarning talaba yoki boshqa universitet faoliyatiga tegishli ko'rsatkichlar (tinglovchi, ilmiy ish va h.z) soniga nisbatan optimallashish holati hisoblanadi.

2. Iqtisodiy xilma-xillik samarasi (economies of scope). Bunda doimiy xarajatlarga nisbatan turli faoliyat turlari orqali sarflarni optimallashtirish nazarda tutiladi. Bunda oliy ta'lim berish, ilmiy faoliyat va turli qisqa muddatli kurslarni tashkil etish kabi faoliyat turlariga xarajatlarni taqsimlash orqali sarflarni optimallashtirishni ko'zda tutadi.

Oliy ta'lim muassasalari tadqiqotlarda ko'p mahsulot ishlab chiqaruvchi tashkilotlar sifatida tasniflanadi (multiproduct organizations). Aynan ana shunday yondashuv asosida umumiy (ray economies of scale) va xususiy (konkret) (product-specific economies of scale) iqtisodiy miqyos samaralari aniqlanadi[49].

Shuningdek, umumiy (global economies of scope) va xususiy (product-specific economies of scope) iqtisodiy xilma-xillik samaralari ham aniqlanadi.

Iqtisodiy miqyos va xilma-xillik samaralarini keng o'rganishning asosiy maqsadi universitetlarning hajmi, ularda tarkibiy o'zgarishlar qilish, ularni

---

[42] Financing Higher Education Worldwide: Who Pays? Who Should Pay? by D. Bruce Johnstone and Pamela Marcucci. Baltimore: Johns Hopkins University Press, 2010. 322 pp.

[43] Johnstone D. B. Higher education finance and accessibility: Tuition fees and student loans in Sub-Saharan Africa //Journal of Higher Education in Africa/Revue de l'enseignement supérieur en Afrique. – 2004. – S. 11-36.

[44] Johnstone D. B., Marcucci P. N. Worldwide trends in higher education finance: Cost-sharing, student loans, and the support of academic research //Commissioned paper V. Lynn Meek and Dianne Davies. – 2007. – T. 81. – S. 1-36.

[45] Деркачев П. В. и др. «Экономика масштаба» или «экономика разнообразия»: на что опираться вузам в конкурентной борьбе? //Университетское управление: практика и анализ. – 2021. – Т. 25. – №. 1. – С. 131-141.

[46] Cohn E. et al. Multi-product cost functions for universities: economies of scale and scope //Chapters. – 2004.

[47] Koshal R. K., Koshal M. Economies of scale and scope in higher education: a case of comprehensive universities //Economics of education review. – 1999. – T. 18. – №. 2. – S. 269-277.

[48] Cohn E., Rhine S. L. W., Santos M. C. Institutions of higher education as multi-product firms: Economies of scale and scope //The review of economics and statistics. – 1989. – S. 284-290.

[49] Johnes G., Johnes J., Thanassoulis E. An analysis of costs in institutions of higher education in England //Studies in Higher Education. – 2008. – T. 33. – №. 5. – S. 527-549.

restrukturizatsiya qilish yoki faoliyatidagi bakalavriat, magistratura va aspirantura yo‘nalishlarini muvofiqlashtirish ko‘zda tutiladi. Ya’ni, agar universitetlar faoliyatini ijobiy iqtisodiy miqyos va xilma-xillik samarasi asosida optimallashtirishga erishish quyidagi natijalarga erishishni ta’minlashi mumkin bo‘ladi:

1. Oliy ta’lim xarajatlarining xususiyatlarini to‘g‘ri va maqsadga muvofiq ishlashi natijasida o‘rtacha sarflarni, chegaraviy sarflarni hamda tannarxni tushirishga erishiladi[50,51,52];

2. Oliy ta’lim muassasalariga sarflanayotgan mablag‘larning samaradorligini va ularning maqsadli ishlatilishi borasida aniq ko‘rsatkichlarni shakllantirish imkoniyati paydo bo‘ladi[53,54];

3. Oliy ta’lim tizimining umumiy iqtisodiy samaradorligini oshirish maqsadlarida universitetlarning hajmlari va yo‘nalishlarini optimallashtirish imkoniyatlari yuzaga keladi[55].

Ammo masalaning boshqa jihati ham mavjud. Universitetlarning iqtisodiy miqyos samarasiga ustuvorlik berishi oqibatida ularning yiriklashuvi va restrukturizatsiya qilinishi boshqa iqtisodiy muammolarni ham yuzaga chiqarishi mumkin. Bunday muammolar jumlasiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- Universitetlarni boshqarish samaradorligi pasayishi mumkin. Ya’ni ularning yiriklashuvi va kengayishi hisobiga yoxud faoliyat turlarining ko‘payishi hisobiga ularni samarali boshqarish, qabul qilingan qarorlarni ijro etish samarasi pasayishi mumkin;

- Ko‘p sonli universitetlar o‘rniga bir necha yirik universitetlarning paydo bo‘lishi, tarmoq xususiyatining ham o‘zgarishiga ya’ni sog‘lom raqobat muhitining

---

[50] Worthington A. C., Higgs H. Economies of Scale and Scope in Australian Higher Education // Higher Education. 2011. Vol. 61, nr. 4. P. 387–414. DOI 10.1007/ s10734-010-9337-3.

[51] Koshal R. K., Koshal M. Economies of Scale and Scope in Higher Education: a Case of Comprehensive Universities // Economics of Education Review. 1999. Vol. 18. P. 269–277. DOI 10.1016/s0272-7757(98)00035-1.

[52] Laband D. N., Lentz B. F. New Estimates of Economies of Scale and Scope in Higher Education // Southern Economic Journal. 2003. Vol. 70, nr 1. P. 172–183. DOI 10.2307/1061638.

[53] Hashimoto K., Cohn E. Economies of Scale and Scope in Japanese Private Universities // Education Economics. 1997. Vol. 5. P. 107–116. DOI 10.1080/09645299700000010.

[54] Daghbashyan Z. The Economic Efficiency of Swedish Higher Education Institutions. Working Paper Series in Economics and Institutions of Innovation (CESIS). Stockholm : KTH Royal Institute of Technology, 2011. 23 p.

[55] Деркачев П. В. и др. «Экономика масштаба» или «экономика разнообразия»: на что опираться вузам в конкурентной борьбе? //Университетское управление: практика и анализ. – 2021. – Т. 25. – №. 1. – С. 131-141.

shakllanmasligiga olib kelishi mumkin. Bunda tarmoqning oligopoliya yoxud monopoliya elementlarining kirib kelishi nafaqat tarmoq va uning ishtirokchilari uchun balkim butun jamiyat uchun ham muammoli bo‘lishi mumkin;

- Davlat budjetidan ajratiladigan mablag‘larning samarali taqsimlanishi va samarali ishlatilishi borasida muammolar paydo bo‘ladi. Bunda kam sonli yirik universitetlar budjet mablag‘larini o‘zlashtirishiga to‘g‘ri kelishi mumkin. Albatta yirik universitetlarning mablag‘larni ishlatish samarasi o‘rta va kichik universitetlardan ko‘ra muammoliroq bo‘ladi[56,57].

So‘nggi vaqtlarda oliy ta’limda ta’limning noan’anaviy shakllari bo‘lgan masofaviy (onlayni), aralash (blended) ham axborot texnologiyalarini intensiv qo‘llash orqali iqtisodiy miqyos samarasini ta’minlash borasida keskin o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Ko‘pgina tadqiqotlarda bu o‘zgarishlar xarajatlarni optimallashtirish hamda tannarxni tushirishda muhim ahamiyat kasb etishini xulosa qilmoqda[58]. Ammo ushbu yo‘nalishda ta’lim shakllarining chuqur va ko‘p tomonlama tadqiq etilishi orqali iqtisodiy samaradorlikni tahlil etish lozim bo‘ladi. Chunki bunda ta’lim sifati va belgilangan malaka talablarining ta’minlanishi masalasini ham chetga surib qo‘yish to‘g‘ri emas. Zero, iqtisodiy samaradorlik ta’lim sifatini “qurbon qilish” hisobiga ta’minlanmasligi kerakligini akademik tadqiqotlarning ko‘pchiligi takror va takror ta’kidlaydi.

***Oliy ta’lim muassasalari xarajatlarini moliyalashtirishda daromadlar nazariyasi asosida shakllangan ilmiy qarashlar.*** Oliy ta’lim muassasalari xarajatlarini moliyalashtirishda daromadlar nazariyasi muallifi H. Bouen[59] bo‘lib, R.Archibald va D.Feldmanlar ushbu nazariyani oliy ta’lim xarajatlarini “xarajatlar xastaligi” tashxisi bilan o‘rganish borasida shakllangan ilmiy-nazariy qarashlar bilan raqobatlashuvchi oliy ta’lim xarajatlariga tegishli asosiy nazariya sifatida e’tirof

---

[56] Daghbashyan Z. The Economic Efficiency of Swedish Higher Education Institutions. Working Paper Series in Economics and Institutions of Innovation (CESIS). Stockholm : KTH Royal Institute of Technology, 2011. 23 p.

[57] Деркачев П. В. и др. «Экономика масштаба» или «экономика разнообразия»: на что опираться вузам в конкурентной борьбе? //Университетское управление: практика и анализ. – 2021. – Т. 25. – №. 1. – С. 131-141.

[58] Morris D. Economies of Scale and Scope in E-Learning. Studies in Higher Education, 2008, vol. 33, nr 3, pp. 331–343. doi 10.1080/03075070802066164. (In Eng.).

[59] Bowen, H. R. (1980). The costs of higher education: How much do colleges and universities spend per student and how much should they spend? San Francisco: JosseyBass.

etishgan[60].

H.Bouen o‘zining daromadlar nazariyasini quyidagicha ta’riflaydi: “Umuman olganda, talaba birligiga sarflar ta’lim xizmatlarini ko‘rsatishga tegishli texnologik talablar bilan ham yoki qandaydir abstrakt lozim bo‘lgan standartlar bilan ham belgilanmaydi. Bu ko‘rsatkichlar talaba birligi orqali shakllantirilishi mumkin bo‘lgan daromadlar bilan belgilanadi. Texnologiya va boshqa lozim talablar qabul va daromadlarga aloqadorligi orqaligini talaba birligi sarflariga ta’sir ko‘rsatishi mumkin” (1980, 18-bet). Bouen bir nechta oliy o‘quv yurtlarida bir xil texnologiya va standartlar asosida tayyorlanayotgan mutaxassislar uchun qilingan xarajatlarni solishtirib ko‘radi. Ularda olingan daromadlar va narx ko‘rsatkichi har xil bo‘lgani holda sarflar farqlanganligiga e’tibor qaratadi. Bu orqali Bouen shunday xulosaga keladiki, oliy ta’lim muassasalari o‘zlari uchun qancha miqdorda daromadlarni shakllantirgan bo‘lsa, shu asosida sarf – xarajatlarini shakllantiradi. Bunda sifat ko‘rsatkichini yaxshiroq ta’minlashga bo‘lgan intilish daromadlarni ko‘paytirish va ularning barchasini yaxshi sifat uchun sarflash hohishini paydo qiladi (quality-cost locus). Ushbu nazariyaga ko‘ra, universitetlar qancha daromad ishlab topsa yoxud budjetdan mablag‘lar olsa ularning barchasini sarflashga harakat qilishadi. Ularning sifatni yaxshilashga bo‘lgan intilishi va reputatsiya borasidagi hohishlari (ambitsiyalari) bunday daromadlar va tushumlarni to‘laligacha sarflanishiga undaydi. Natijada xarajatlar o‘z xususiyatini o‘zgartiradi. Bu holatda xarajatlar funksiyasi yoki texnologik omillar talaba birligiga sarflarni tartibga soluvchi omil sifatida o‘z vazifasini bajara olmay qolishi mumkin. Bouenning fikricha universitetlarning daromadlarni sarflashga bo‘lgan “ishtahalari” bu narsaga yo‘l bermaydi. Bouenning fikricha, bunday yondashuv paytida oliy ta’limni davlat tomonidan moliyalashtirishida qandaydir cheklovlar bo‘lishini ratsional qaror deb baholash mumkin. Bu yerda ikkita omilga e’tibor qaratish lozim deydi Bouen: 1) notijorat oliy ta’lim muassasalarida xarajatlar odatda daromadlar va tushumlarga teng bo‘ladi. Ya’ni universitetlar faoliyat uchun qancha tushum yig‘ish imkoniyatini chamalab

[60] Archibald R. B., Feldman D. H. Explaining increases in higher education costs //The Journal of Higher Education. – 2008. – T. 79. – №. 3. – S. 268-295.

sarflarini shunga qarab rejalashtiraveradi. 2) Aynan shu sababli ham tushumlar sarflarni belgilovchi omilga aylanib qoladi. Ya’ni universitetlar qancha mablag‘ ishlab topishiga qarab sifatni yaxshilash va universitetda ta’limni ko‘tarish maqsadida sarflarni belgilab qo‘yadi. Bu esa sarflarni alohida yondashuv asosida hisobga olish masalasini ikkilamchi masala qilib qo‘yadi. Bunda “universitet qancha daromad ishlab topsa shuncha sarflaydi” degan shartli qoida ishlaydi.

Albatta tijorat maqsadlarida tashkil etilgan va qat’iy normativlar asosida ishlaydigan davlat oliy ta’lim muassasalarida bu nazariyani amal qilishi o‘zgacha bo‘ladi. Chunki, foydani maksimallashtirish va davlat moliyasidagi nazorat va samaradorlikni ta’minlash talablari bu qoida ishlashiga yo‘l bermaydi.

Daromadlar nazariyasining yana bir o‘ziga xos jihati shundan iboratki, oliy ta’limga talabning yuqori vaqtida universitetlar daromadlarni oshirish uchun narxlarni oshirish yo‘lidan borishadi. Garchi, universitetlar imkoniyatlari bu narsaga yo‘l bermasa ham. Bu siyosatning salbiy oqibati natijasida universitetlarga yuqori iqtidorli talabalarni jalb qilish imkoniyatlari cheklanishi mumkin va ushbu omil universitetlarda sifat ko‘rsatkichlarini xavf ostida qoldirishi mumkin. Shu tufayli ko‘pgina oliy ta’lim muassasalari daromadlarni ta’minlash uchun “ko‘r-ko‘rona” qabul usullariga yo‘l qo‘yadi. Aynan mana shu tufayli universitetlar sifat, reputatsiya va obro‘ kabi omillarni ta’minlash yo‘llarini qidira boshlaydi. Bouenning fikricha aynan shu tufayli universitetlarning dominant maqsadi va hohishi sifat, reputatsiya va obro‘ kabi omillar bo‘lib qoladi. Bouenning fikricha aynan mana shu nuqtada universitetlarning faoliyatida ziddiyat yuzaga keladi. Daromad va sifat omillaridan birini tanlash masalasi kun tartibiga chiqadi. Ikkala omilni bira to‘la ta’minlash imkoniyati cheklangan bo‘ladi. Aynan sifatni hisobga olib, daromadlar bo‘shlig‘ini to‘ldirish uchun davlat mablag‘larini oshirishni talab etuvchi universitetlarga nisbatan Bouenning fikricha davlat ularning daromadlarini cheklash yo‘lidan boradi va ularni samarali ishlatishni talab etadi. Aynan shu tufayli davlat va hususiy oliy ta’lim muassasalarining bu boradagi yondashuvi o‘zgacha bo‘ladi. Endaument fondlari va yetarlicha donorlarga ega xususiy oliy ta’lim muassasalarining sifatni ta’minlashga bo‘lgan hohishlari daromadlari cheklangan davlat (public) oliy ta’lim muassasalariga

nisbatan yaxshiroq ta'minlangan bo'ladi. Albatta bu orqali xarajatlarni moliyalashtirish holati ham ikki yondashuvda (davlat va hususiy oliy ta'lim muassasalari uchun) o'zgacha bo'ladi.

***Oliy ta'lim xarajatlarini signallar (skrining) nazariyasi orqali tahlil qilish borasida shakllangan ilmiy-nazariy qarashlar.*** Oliy ta'lim orqali tizimli investitsiyalar qilish orqali mehnat unumdorligini oshirish, inson kapitalini rivojlantirish va bu orqali daromadlarning oshishi, iqtisodiy o'sishga erishish mumkinligi borasidagi inson kapitali nazariyasi 1960-yillardan boshlab tez sur'atlarda rivojlandi. Bu borada Shuls[61] (1961), Minser[62] (1974), Bekker[63] (1964) kabi tadqiqotchilar yirik tadqiqotlarni o'tkazishdi. Ushbu tadqiqotlarga ko'ra ta'limga qilingan sarflar ish kuchining qo'shimcha chegaraviy unumdorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi hamda ushbu sarflar mehnat bozorida ish haqlarining oshishi bilan "mukofotlanadi". Ushbu tadqiqotlarda mavjud ayrim bo'shliqlarni to'ldirish borasida keyinchalik ta'limning ishchi kuchi haqidagi axborot funksiyasi kiritildi. Ushbu nazariy qarashga ko'ra ta'lim o'zining signal berish (skrining) funksiyasi orqali ishchi kuchi bozorida mutaxassislar haqida xabar berishi mumkinligi taxmin qilindi. Bu yerda ishchi kuchi bozori axborot tanqis bo'lgan bozor sifatida tasniflandi. Bunda ish beruvchida informatsion assimetriya (ya'ni ish uchun nomzod haqida yetarlicha ma'lumotga ega emaslik) mavjudligi tufayli ishchi kuchini tanlash va unga haq belgilashda hisobga olinishi mumkin bo'lgan omillar ajratib ko'rsatildi.

Ushbu omillardan eng asosiy ikkitasi bu ishchining *ta'lim darajasi* va *ish tajribasi* deya baholandi. Bundan kelib chiqqan holda ta'limning signal funksiyasi ishchi kuchining yetarlicha malakasi borligidan xabar beradimi yoki nomzodning layoqatidanmi (mehnat unumdorligi oshishi imkoniyatlari) degan qarash shakllandi. Shunga ko'ra ta'limga qilingan xarajatlar signal (skrining) sarflari deya baholandi.

[61] .Schultz T. Investment in Human Capital // American Economic Review. 1961. Vol. 51. P. 1–17.
[62] Mincer J., Polachek S. Family Investment in Human Capital: Earnings of Women // Journal of Political Economy. 1974. Vol.82. P.S76-S108.
[63] Becker G.S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis. New York: Columbia University Press for NBER. 1964. Ch. 2.

Bu bo‘yicha Stigler[64] (1962), Erou[65] (1973), va Spens[66,67] (1973, 1974) kabi tadqiqotchilar bir qancha ilmiy qarashlarni o‘rtaga tashlashdi. Bu orqali ta’limda signallar (skrining) nazariyasi keng rivojlanib bordi. Ishchi kuchi bozoriga oliy ta’lim olgan kadrlarning kirib borishi va ishga joylashishi bo‘yicha bir qancha ilmiy-nazariy qarashlar shakllandi. Ba’zilar ushbu nazariyani inson kapitali nazariyasiga raqobatchi va qarshi nazariya sifatida qabul qilishdi. Ammo ko‘pchilik tadqiqotchilar bu nazariya inson kapitali nazariyasini to‘ldiruvchi nazariya ekanligini ta’kidlaydi. Ba’zi tadqiqotlar signallar nazariyasiga asoslanib ta’lim insonlarning mehnat unumdorligini oshirmaydi balki undagi tug‘ma qobiliyat haqida signal beradi, ta’lim esa faqat saralash (filtrlash) vazifasini bajaradi xolos deydi[68]. Ta’limga qilingan sarflar esa aynan mana shu saralash uchun qilingan deya baholash taklif etiladi. Ikkinchi qarashga ko‘ra esa ta’lim signal berish (saralash) funksiyasi bilan bir qatorda ta’lim oluvchining mehnat unumdorligini ham oshirib boradi va uni ishchi kuchi bozoriga yaxshiroq tayyorlaydi deya xulosa qiladi. Birinchi qarash nisbatan quvvatsiz deb qaraladi[69]. Chunki ta’limni faqatgina axborot funsiyasi bilan tushunish unga qilinayotgan shuncha sarflarni behuda ekanligini va butun boshli tarmoqning mavjudligini so‘roq ostida qoldiradi. Bu esa ikkinchi qarashning nisbatan quvvatli ekanligini tasdiqlaydi.

Oliy ta’lim xarajatlariga tegishli masalaning asosiy jihati shundan iboratki, oliy ta’limga qilingan xarajatlar maqsadli o‘zlashtirilishi va ta’limning o‘z vazifalarini samarali bajarishini ta’minlashi kerak. Zero, ta’limning davlat moliyasi va umumjamiyat nuqtayi nazaridan xarajatlarning “qora tuynuk”iga aylanib qolishi barcha ilmiy nazariy qarashlar tomonidan inkor etiladi.

---

[64] Stigler G.J. Information in the Labor Market // Journal of Political Economy. 1962. Vol. 70. P. 94–105.
[65] Arrow K. Higher Education as a Filter // .Journal of Public Economics. 1973. Vol. 2. P. 193-216.
[66] Spence M. Job Market Signaling // The Quarterly Journal of Economics. 1973. Vol. 87. P. 355-374
[67] Spence M. Competitive Optimal Responses to Signals: An Analysis of Efficiency and Distribution // Economic Theory. 1974. Vol. 7. P. 296-332.
[68] Psacharopoulos G. On the weak versus the strong version of the screening hypothesis // Economics Letters. 1979. Vol. 4. P. 181-185.
[69] Аистов А.В. Образование – сигнал или инвестиции в человеческий капитал в России? Препринт P1/2007/04. – Нижний Новгород: НФ ГУ ВШЭ, 2007. – 39 с.

## 1.3. Oliy ta'lim muassasalarida xarajatlarni moliyalashtirishning xorij tajribasi

Butun dunyoda oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish mamlakatlarning quyidagi xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilganligini ko'rish mumkin:

1) Mamlakatning taraqqiyot darajasi, uning farovonlik va daromadlilik darajasi;

2) Mamlakatning siyosiy tizimi, unda mavjud hukmron mafkuraviy qarashlar;

3) Mamlakat iqtisodiyotining asosiy xususiyatlari (erkin bozor iqtisodiyotiga asoslangan, rejali iqtisodiyotga asoslanganlik yoxud o'tish davridagi (tranzit) iqtisodiyot);

4) Mamlakatlarning demografik omillaridan kelib chiqqan holda;

5) Mamlakatlarning sanoatlashuv darajasi;

6) Oliy ta'lim tizimi xususiyatlari (tarixi, qamrov darajasi, davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalarining nisbati va h.z.).

Butun dunyodagi oliy ta'lim muassasalarini ikkita yirik qutb asosida shakllanganligini ko'rish mumkin. Bular: 1) Nisbatan oliy ta'lim muassasalarining nomarkazlashgan va erkin faoliyatiga asoslangan liberal (atlantika) modeli hamda 2) Nisbatan oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy jihatdan markazlashganlik va akademik jihatdan erkinlik tamoyillari asosida tashkil etuvchi kontinetal modeli. Ammo ushbu ikki yirik qutblardan tashqari qat'iy markazlashgan va akademik jihatdan markazlashgan tamoyillar asosida tashkil etiluvchi "direktiv" qutb ham ajratib ko'rsatiladi. Ushbu oraliq qutbni Xitoy va MDH hududidagi ko'pgina davlatlarga xosligi ta'kidlanadi. Biroq, so'nggi yillarda ushbu davlatlarda ham ushbu modeldan "ketish" holati kuzatilmoqda. Ushbu davlatlardagi oliy ta'lim muassasalari u yoki bu modelga muvofiq tamoyillarga moslashtirilmoqda va ushbu masalada turli islohotlar joriy etilmoqda.

Mamlakatlarning oliy ta'lim muassasalari xarajatlarini moliyalashtirish jarayoni butun ta'lim tizimining holati va xususiyatlaridan kelib chiqishi lozimligi ham ko'pgina tadqiqotlarda ta'kidlangan[70]. Tadqiqotlarga ko'ra mamlakatlarning

---

[70] Mingat, Alain, and Jee-Peng Tan. "The full social returns to education: Estimates based on countries' economic growth performance." (1996).

rivojlanish va daromadlilik darajasi ta'lim tizimi bo'g'inlarining moliyalashtirish darajasini belgilashi ko'rsatib berilgan. Ya'ni mamlakatlarning past va quyi rivojlanganlik hamda daromadlilik darajasi ularning ta'limning quyi bo'g'inlariga ko'proq moliyaviy resurslarni yo'naltirishini taqazo etishi ta'kidlanadi. Shunga ko'ra, odatda yuqori daromadli va rivojlangan davlatlarning oliy ta'lim sohasiga mablag'lari o'rta va past daromadli mamlakatlarga nisbatan yuqori bo'lishi kuzatiladi. Ushbu jihat ta'limdan xususiy va ijtimoiy qaytim ko'rsatkichlari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar bilan ham o'z isbotini topganligini qo'shimcha qilishimiz mumkin[71,72].

Butun dunyoda oliy ta'lim xarajatlarini moliyalashtirishning quyidagi uchta shakli farqlanadi[73]:

1) **Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning byurokratik shakli (usuli) (bureaucratic model)**. Ushbu shaklda asosan oliy ta'lim sohasini moliyalashtirishga ma'sul bo'lgan davlat vakolatli organlari tomonidan moliyalashtirish tashkil etiladi. Jarayondagi har bir ishtirokchilarning vakolatlari, vazifalari va majburiyatlari qonun va qonunosti aktlari bilan belgilab qo'yilgan bo'ladi. Moliyalashtirshni tashkil etish tartibi, hisobot topshirish tartiblari va rejalashtirish tartiblari bo'yicha reglamentlar qat'iy belgilab beriladi.

2) **Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning jamoaviy (kollegial) shakli (usuli) (collegial model)**. Ushbu usulda moliyalashtirish jarayoniga barcha ishtirokchilarning faol jalb etilishi orqali oliy ta'lim harajatlarini moliyalashtirish manbalari va narx qo'llash usullari nisbatan erkinlashtirilgan bo'ladi. Jarayonga audit va kelishuvlar, davlat buyurtmalari institutlari joriy etilishi nazarda tutiladi.

3) **Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning bozor tamoyillari asosida tashkil etish shakli (usuli) (market model)**. Ushbu shaklda jarayon ishtirokchilari bo'lgan barcha subyektlar (davlat, buyurtmachilar, talabalar va barcha xususiy manbalar) o'rtasidagi munosabatlar bozor tamoyillari asosida tashkil etiladi.

---

[71] Birdsall N. Public spending on higher education in developing countries: too much or too little? //Economics of Education Review. – 1996. – T. 15. – №. 4. – S. 407-419.
[72] Psacharopoulos G. Public Spending on Higher Education in Developing Countries: Too Much Rather Than Too Little //Economics of Education Review. – 1996. – T. 15. – №. 4. – S. 421-22.
[73] Pranevičienė B., Pūraitė A. The financing methods of higher education system //Jurisprudencija. – 2010. – T. 122. – №. 4. – S. 335–356-335–356.

Narxlar va qabul parametrlari erkin o‘rnatiladi. Xarajat moddalari va ularning miqdorlari talabdan kelib chiqqan holda oliy ta’lim muassasalari tomonidan mustaqil belgilangan strategiya va rejalar asosida ishlab chiqiladi.

Mos ravishda oliy ta’lim muassasalari xarajatlarini moliyalashtirish ham ana shu xususiyatlardan kelib chiqqan holda tashkil etiladi. Markazlashgan moliyalashtirish va qarorlar qabul qilish, xarajatlarni ma’lum bir qat’iy normativlar asosida rejalashtirish va narxlarni ma’lum bir ijtimoiy motivlar asosida nazorat qilish birinchi modelga xos bo‘lsa, moliyaviy mustaqillik va boshqaruvdagi avtonomlik ikkinchi modelga xosdir. Xarajatlarni bozor tamoyillari asosida rejalashtirish va narx siyosatidagi moslashuvchanlik uchinchi modelning o‘ziga xos xususiyatlari deb aytishimiz mumkin.

Butun dunyoda oliy ta’limni moliyalashtirishga tegishli strategiyaning yo‘nalganlik xususiyatiga ko‘ra quyidagi shakllari mavjud: erkin bozor munosabatlariga yo‘nalgan moliyalashtirish strategiyasi, “umumjamiyat farovonligi”ni ta’minlashga yo‘naltirilgan bozorni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan moliyalashtirish strategiyasi, ijtimoiy yo‘naltirilgan moliyalashtirish strategiyasi. Birinchi va ikkinchi shakllar asosan natijaga yo‘naltirilgan bo‘lib, xarajatlarni miqdori va ularni birlamchi rejalashtirishni pirovard maqsad sifatida qo‘ymaydi. Ijtimoiy yo‘naltirilgan moliyalashtirish strategiyasiga ko‘ra barcha uchun teng imkoniyatlar tamoyili asosida moliyalashtirish tashkil etiladi. Butun dunyoda u yoki bu shaklni mutlaq tadbiq etilishi kamdan-kam kuzatiladi. Oliy ta’limni moliyalashtirish asosan ushbu yo‘nalishlarning qorishmasidan iborat yondashuvlar asosida, qaysidir jihatlarga ustunlik bergan holda tashkil etiladi.

Nisbatan bozor tamoyillari asosida moliyalashtirish kontinental Yevropadan tashqarida bo‘lgan AQSH, Buyuk Britaniya, Shotlandiya, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Janubiy Afrika mamlakatlarida tashkil etiladi. Shuningdek so‘nggi yillarda Ispaniya, Niderlandiya, Shvetsiya va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida ham bozor yondashuviga asoslangan moliyalashtirish usullari qo‘llanilishini ko‘rish mumkin.

“Umumjamiyat farovonligi”ni ta’minlashga yo‘naltirilgan bozorni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan moliyalashtirish strategiyasini asosan kontinental Yevropa mamlakatlari bo‘lgan Germaniya, Fransiya, Italiya va Skandinaviya mamlakatlarida ko‘rish mumkin.

Butun dunyoda oliy ta’lim muassasalari xarajatlarini moliyalashtirishning asosiy manbasi davlat budjeti mablag‘lari bo‘lib qolmoqda. Aynan shu jihatni hisobga olgan holda ko‘pgina davlatlar universitetlarga yetarlicha avtonomlik bergan holda ularning samaradorligini oshirishni ta’minlash choralarini pirovard maqsad qilib qo‘ymoqda. Bunda universitetlar va davlat organlari o‘rtasida o‘ziga xos shartnomaviy munosabatlar asosida transparent (shaffof) hisobdorlik tamoyillarini joriy etish ko‘zda tutiladi. Shartnomaviy munosabatlarda talabalar soni, berilishi kutilayotgan ilmiy darajalar miqdori, tadqiqotlar bo‘yicha ko‘rsatkichlar va sifat, ish bilan ta’minlanish ko‘rsatkichlari kabi mezonlar kiritilishi mumkin. Aynan mana shu kabi indikatorlardan universitetlar xarajatlarining samaradorligini baholash uchun foydalanishi ko‘zda tutiladi.

Shuningdek butun dunyoda oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishning to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita usullari farqlanadi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri moliyalashtirish usulida resurslar oliy ta’lim muassasalari tomonidan taqdim etilgan rejalar va talablar asosida ularning o‘zlariga ajratiladi. Ya’ni moliyalashtirish davlat tomonidan oliy ta’lim muassasalarining o‘ziga amalga oshiriladi.

Bilvosita moliyalashtirish usulida oliy ta’lim muassasalari xarajatlariga tegishli resurslar talabalar orqali ularga nisabatan qarz berish, kechiktirib to‘lash, imtiyozlar berish yoxud vaucherlar berish kabi usullarni qo‘llash orqali amalga oshirilishi nazarda tutiladi.

Ba’zi mamlakatlarda ushbu ikki yondashuvning qorishmasidan iborat bo‘lgan usullardan ham foydalanilishi mumkin. Albatta har ikki yondashuvning o‘ziga xos afzalliklari va kamchiliklari mavjud.

Mutaxassislar tomonidan odatda moliyalashtirishni oliy ta’lim muassasasiga bevosita amalga oshirgan ma’qulmi yoki bilvosita talaba va hizmatlarni oluvchilar

orqali amalga oshirgan yaxshiroqmi degan savol oʻrtaga tashlanadi. Ya’ni ajratiladigan resurslarni universitetlarning oʻziga berish kerakmi yoki talabalar orqali amalga oshirish samaraliroqmi degan mulohaza koʻzda tutiladi.

Soʻnggi yillarda ikkala usulning afzallik va kamchiliklarini hisobga olgan holda moliyalashtirishning yangi innovatsion usullari ham joriy etilayotganligini koʻrish mumkin (5-jadval).

**5-jadval.**

**Oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishning innovatsion usullari[74]**

| | **Kelishilgan taqsimot (Negotiated Allocations)** | **Raqobat asosida taqsimot (Competitive Mechanisms)** |
|---|---|---|
| **Bevosita moliyalashtirish (taklif asosida) (Supply-side)** | - Natijaga tayangan shartnomalar (kelishuvlar) asosida moliyalashtirish (Avstriya, Daniya, Fransiya, Finlyandiya, Ispaniya, Chili, AQSH (ayrim shtatlarida);<br>- Belgilangan talablarni bajarish uchun shartnomalar asosida moliyalashtirish (JAR, AQSH (ayrim shtatlari). | Raqobatli fondlar taqsimoti (Indoneziya, Shri-Lanka, Mozambik, Gana, Argentina, Chili, Boliviya, Bolgariya, Vengriya, Misr, Tunis) |
| **Bilvosita moliyalashtirish (talab asosida) (Demand-side)** | - Talabalarning daromadlariga bogʻlangan qarz berish amaliyoti asosida moliyalashtirish (Tailand, AQSH, JAR, Yangi Zelandiya, Avstraliya, Shvetsiya);<br>- Inson kapitali uchun shartnoma tuzish (Chili, Kolumbiya, Germaniya, AQSH);<br>- Universal vaucherlar (AQSH, Bolgariya);<br>- Butun hayot davomida ta’lim olish uchun hisoblar berish orqali moliyalashtirish (Kanada, Shvetsiya, Buyuk Britaniya). | Tanlov asosida vaucherlar berish orqali moliyalashtirish (Qozogʻiston, Chili, Gruziya, Vengriya) |

[74] Джамиль С. и др. Сценарии устойчивого финансирования высшего образования //Вестник международных организаций: образование, наука, новая экономика. – 2010. – Т. 5. – №. 1. – С. 79-96.

Ko‘pgina mamlakatlarda aynan universitetlarning asosiy xususiyatlarini saqlab qolish masalasiga muvofiq ravishda, moliyalashtirishni samarali tashkil etish bo‘yicha boshqaruv tamoyillarini joriy etishga qaratilgan bir qancha islohotlar amalga oshirildi. Xususan, universitetlarning tarixiy xususiyatlarini saqlab qolgan holda ularga tadbirkorlik subyektlariga xos unsurlarni qo‘llash taklif etildi. Yangi universitetlarning menejment nazariyasi ishlab chiqildi va ko‘pgina Bolloniya jarayoniga kirgan universitetlarga tadbiq etila boshlandi. Bunda oliy ta’limni moliyalashtirishning ham yangi usullarini joriy etish nazarda tutilgan.

Oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirish mamlakatlarning rivojlanish darajasiga qarab turlicha shakllanganligini ko‘rish mumkin. Rivojlanish darajasiga qarab, oliy ta’limdagi qo‘llab-quvvatlash instrumentlari, davlat va xususiy sektor ulushi, ta’lim uchun narx belgilash siyosatlarini farqlash mumkin bo‘ladi. Mamlakatlarning oliy ta’lim xarajatlarini moliyalashtirish ahvolini quyidagi to‘rtta umumiy jihatlar asosida tahlil qilishimiz mumkin bo‘ladi:

1. To‘lov kontrakt summalari (TKS)ni qo‘llash siyosati;
2. Moliyalashtirishda ota-onalar va talabalarning hissalari (ishtiroki);
3. Davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash holati;
4. Nodavlat sektorning rasmiy rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash ahvoli.

Aynan mana shu jihatlarni hisobga olgan holda yuqori, o‘rta va past daromadli hamda rivojlanish darajasiga ega mamlakatlarda oliy ta’lim sohasini moliyalashtirish xususiyatlarini sharhlashimiz mumkin.

**Yuqori daromadli va rivojlangan davlatlarda** oliy ta’limni moliyalashtirish nisbatan bozor tamoyillariga asoslangan va natijaga yo‘naltirilgan bo‘lib, kuchli raqobat muhiti asosida resurslarni taqsimlashni nazarda tutadi[75].

---

[75] Xalqaro oliy ta’limni moliyalashtirishning qiyosiy taxlili va foydalanish imkoniyatlari (International Comparative Higher Education Finance and Accessibility (ICHEFA) Project) loyihasi bo‘yicha oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishda xarajatlarni taqsimlash amaliyotiga tegishli tadqiqotlar asosida o‘rganilgan. Financing Higher Education Worldwide: Who Pays? Who Should Pay? by D. Bruce Johnstone and Pamela Marcucci. Baltimore: Johns Hopkins University Press, 2010. – 235-240-betlar.

**6-jadval.**

**Yuqori daromadli rivojlangan mamlakatlarda to‘lov kontrakt summalari shakllanishi holati**[76]

| | | |
|---|---|---|
| To‘lov kontrakt summalarini joriy etish holati | Yuqori (3000 AQSH dollaridan yuqori) | Avtraliya, Kanada, Angliya, Yaponiya, Janubiy Koreya, AQSH |
| | O‘rta (1000 AQSH dollaridan 3000 AQSH dollarigacha) | Portugaliya, Yangi Zelandiya, Niderlandiya, |
| | Nominal (past) yoki mavjud emas (1000 AQSH dollaridan past) | Avstriya, Fransiya, Germaniya, Irlandiya |
| To‘lov kontrakt summalarini amalga oshirish talablari | Oldindan to‘lov | Avstriya, Yaponiya, Janubiy Koreya, AQSH, Portugaliya, Niderlandiya |
| | Kechiktirib to‘lash | Avstraliya, Angliya, Yangi Zelandiya |

Davlatning bilvosita qo‘llab-quvvatlash dastaklari ishlashi va maqsadli moliyalashtirish dasturlarining keng qo‘llanilishi ushbu mamlakatlarda ko‘p uchraydi.

Yuqori daromadli va rivojlangan davlatlarda to‘lov kontrakt summalarini erkin joriy etish orqali ularning yuqori va o‘rtacha miqdorlari keng joriy etilganligini ko‘rish mumkin. Faqatgina kontinental Yevropa mamlakatlarida nominal, past yoki umuman to‘lov kontrakt summalari joriy etilmaganligini guvohi bo‘lishimiz mumkin.

To‘lov kontrakt summalarini amalga oshirishning asosan ikki usuli mavjud bo‘lib, bular ushbu to‘lovlarni oldindan amalga oshirish (Up front payments) va kechiktirib amalga oshirish (deferred payments) shakllaridir.

Oliy ta’lim xarajatlarini moliyalashtirishda talaba, uning ota-onalari ishtiroki, hissasi bo‘yicha ularning to‘lov kontrakt summalariga nisbatan va talabalarning yashash xarajatlariga nisbatan holatini tahlil qilishimiz mumkin bo‘ladi.

[76] Muallif ishlanmasi

**7-jadval.**

**Yuqori daromadli rivojlangan mamlakatlarda talaba, uning ota-onalarining TKS va yashash sarflaridagi ishtiroki** [77]

| | | |
|---|---|---|
| TKS miqdoriga nisbatan | Mavjud | Avstraliya, Avstriya, Kanada, Yaponiya, Janubiy Koreya, Niderlandiya, Portugaliya, AQSH |
| | Mavjud emas | Shvetsiya, Shotlandiya, Norvegiya, Yangi Zelandiya, Irlandiya, Fransiya, Angliya |
| Talaba yashashi xarajatlariga nisbatan | Mavjud | Avstraliya, Avstriya, Kanada, Yaponiya, Janubiy Koreya, Niderlandiya, Portugaliya, AQSH, Shotlandiya, Yangi Zelandiya, Irlandiya, Fransiya, Angliya |
| | Mavjud emas | Norvegiya, Shvetsiya |

Davlat tomonidan oliy ta'limga tegishli xarajatlarni moliyalashtirishni qo'llab-quvvatlash holatini quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tahlil qilishimiz mumkin:

- davlat tomonidan grantlar berish amaliyoti;
- ta'lim uchun qarz berish amaliyoti;
- ovqatlanish va yashash uchun subsidiyalar hamda stipendiyalar berish amaliyoti.

Oliy ta'lim xarajatlarini nodavlat (xususiy) sektor tomonidan tashkil etilishi holati ham yuqori daromadli va rivojlangan mamlakatlarda turli ko'rinishda namoyon bo'lganligini ko'rish mumkin.

Bunda nodavlat (xususiy) sektorni bevosita (operatsion xarajatlarni va kapital sarflarni moliyalashtirish) va bilvosita (talabalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash) qo'llash dastaklarini tahlil qilish mumkin.

[77] Muallif ishlanmasi

**8-jadval.**

**Yuqori daromadli rivojlangan mamlakatlarda davlat tomonidan oliy ta'limga tegishli asosiy xarajatlarni moliyalashtirishni qo'llab-quvvatlash holati** [78]

| | | |
|---|---|---|
| Grantlar berish amaliyoti | Ta'lim uchun | Avstriya, Kanada, Niderlandiya, AQSH |
| | Yashash uchun | Avstraliya, Avstriya, Kanada, Angliya, Fransiya, Irlandiya, Niderlandiya, Yangi Zelandiya, Portugaliya, Norvegiya, Shotlandiya, Shvetsiya, AQSH |
| | Mavjud emas | Yaponiya, Janubiy Koreya |
| Qarz berish amaliyoti | Ta'lim uchun | Avstraliya, Avstriya, Kanada, Angliya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Niderlandiya, Yangi Zelandiya, Portugaliya, AQSH |
| | Yashash uchun | Kanada, Angliya, Fransiya, Yaponiya, Niderlandiya, Yangi Zelandiya, Portugaliya, Norvegiya, Shotlandiya, Shvetsiya, AQSH |
| | Mavjud emas | Irlandiya |
| Ovqatlanish va yashash uchun subsidiya va stipendiyalar berish amaliyoti | Ovqatlanish uchun | Portugaliya |
| | Yashash uchun | Avstraliya, Fransiya, Niderlandiya, Yangi Zelandiya, Portugaliya |
| | Transport uchun | Avstraliya, Avstriya |
| | Mavjud emas | Kanada, Angliya, Germaniya, Irlandiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Norvegiya, Shotlandiya, AQSH, Shvetsiya |

Oliy ta'limga qabul ko'rsatkichlarida nodavlat oliy ta'lim muassasalarining ulushiga ko'ra minimal (10 %dan kam), o'rta (10-25%) va keng (25 %dan yuqori) ko'rinishlarini tasniflashimiz mumkin bo'ladi.

Yuqorida tahlil qilganimizdek, yuqori daromadli va rivojlangan mamlakatlarda oliy ta'lim muassasalari xarajatlarini moliyalashtirishda davlatning ishtiroki yuqori deb baholash mumkin. Aynan mana shu sababli ushbu mamlakatlarda xarajatlarni taqsimlash siyosatini joriy etish hamda qarz berish va kechiktirib to'lash dasturlarni

[78] Muallif ishlanmasi

keng joriy etish orqali to‘lov kontrakt summalarining o‘rnini oshirishga qaratilgan tashabbuslar ko‘p uchrayotganligini qayd etish mumkin.

**9-jadval.**

**Yuqori daromadli rivojlangan mamlakatlarda davlat tomonidan nodavlat (xususiy) sektorni qo‘llab-quvvatlash holati [79]**

| | | |
|---|---|---|
| Rag‘batlantirish shakli | bevosita (operatsion xarajatlarni va kapital sarflarni moliyalashtirish) | - |
| | bilvosita (talabalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash) | Avstriya, Angliya, Irlandiya, Norvegiya, |
| | Aralash (ham bevosita, ham bilvosita) | Avstraliya, Kanada, Fransiya, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Niderlandiya, Yangi Zelandiya, Portugaliya, Shotlandiya, Shvetsiya, AQSH |
| Nodavlat sektor ko‘lami | minimal (10 %dan kam) | Avstraliya, Avstriya, Kanada, Angliya, Irlandiya, Germaniya, Niderlandiya, Yangi Zelandiya, Norvegiya, Shotlandiya, Shvetsiya, |
| | o‘rta (10-25%) | Fransiya, AQSH |
| | keng (25 %dan yuqori) | Yaponiya, Janubiy Koreya, Portugaliya |

Oliy ta’lim muassasalari xarajatlarini oshirish tufayli yuzaga keladigan ijtimoiy bosimni kamaytirish uchun davlatning qo‘llab-quvvatlash dasturlarining rolini oshirish borasida ham bir qancha takliflar ishlab chiqilganligini ko‘rish mumkin. Yuqori daromadli va rivojlangan mamlakatlarda oliy ta’limga tegishli xarajatlarni moliyalashtirishning asosiy xususiyatlari 1-ilovada keltirildi.

**O‘rta daromadli va rivojlanayotgan mamlakatlarda**[80] to‘lov kontrakt summalarini qo‘llash siyosatida ularning miqdori Polsha, Ruminiya, Janubiy Afrika Respublikasi, Rossiya va Vengriya mamlakatlarida yuqori bo‘lsa, Xitoy Xalq

[79] Muallif ishlanmasi

[80] Xalqaro oliy ta’limni moliyalashtirishning qiyosiy taxlili va foydalanish imkoniyatlari (International Comparative Higher Education Finance and Accessibility (ICHEFA) Project) loyihasi bo‘yicha oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishda xarajatlarni taqsimlash amaliyotiga tegishli tadqiqotlar asosida o‘rganilgan. Financing Higher Education Worldwide: Who Pays? Who Should Pay? by D. Bruce Johnstone and Pamela Marcucci. Baltimore: Johns Hopkins University Press, 2010. – 252-259-betlar.

Respublikasi, Meksika, Fillipin, Kolumbiya va Misr kabi mamlakatlarda o‘rtachaligini ko‘rish mumkin. Turkiya, Malayziya, Indoneziya, Hindiston, Vyetnam va Chexiya Respublikasi kabi mamlakatlarda to‘lov kontrakt miqdorlari nominal (past) ekanligini ko‘rish mumkin. Odatda o‘rta daromadli va rivojlanayotgan mamlakatlar amaliyotida to‘lov kontrakt summalarini kechiktirib to‘lash (deferred payment) usuli kuzatilmaydi. Deyarli barcha mamlakatlarda to‘lov kontrakt summalarini oldindan to‘lash shakli amal qiladi. Rivojlanayotgan mamlakatlarning, ayniqasa sobiq sotsialistik tuzumda bo‘lgan mamlakatlarda ikki yo‘nalishli (dual track) to‘lov kontrakt miqdorlarini belgilash amal qiladi. Bunda ma’lum bir kirish talablari orqali nomzodlar ikki guruhga ajratiladi. Ularning yuqori birinchi guruhiga davlat tomonidan moliyalashtirish joriy etilsa, quyi ikkinchi guruhiga ma’lum bir to‘lov kontrakt summalari o‘rnatiladi. Rossiya, Chexiya Respublikasi, Polsha, Vengriya, Ruminiya va Misr kabi mamlakatlarda aynan mana shunday siyosat amal qiladi (O‘zbekistonda ham davlat oliy ta’lim muassasalarida mana shu tartib amal qiladi).

O‘rta daromadli va rivojlanayotgan mamlakatlarning deyarli barchasida to‘lov kontrakt summalarini to‘lash va yashash sarflarini moliyalashtirishda ota-onalarning faol ishtiroki mavjud. Birgina Braziliya va Lotin Amerikasining ayrim mamlakatlarida mavjud emasligini ko‘rish mumkin.

To‘lov kontrakt summalari va yashash xarajatlari uchun grantlar berish, qarz berish va subsidiyalar berish, shuningdek stipendiyalar berish borasida rivojlanayotgan mamlakatlarda turli xildagi yondashuvlar amal qilinishini ko‘rish mumkin. Xitoy Xalq Respublikasi, Vengriya, Vetnam, Chili, Hindiston va Fillipin kabi mamlakatlarda ta’lim uchun grantlar berish amaliyoti mavjud bo‘lib, Chexiya Respublikasi, Vengriya, Polsha, Ruminiya, Rossiya, Kolumbiya, Meksika va Marokash mamlakatlarida talabalar yashashi uchun grantlar berish amal qilishini ko‘rishimiz mumkin. O‘rta daromadli va rivojlanayotgan mamlakatlarning deyarli barchasida ta’lim va yashash uchun qarz berish amaliyoti mavjud. Faqatgina Chexiya Respublikasi va Misrda bunday amaliyot mavjud emas. Braziliyada esa qarz berish amaliyoti faqat xususiy sektor uchun amal qilishining guvohi bo‘lishimiz mumkin.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning ko‘pchiligida talabalarning turar joy uchun va ovqatlanish xarajatlarini subsidiyalash faqat davlat oliy ta’lim muassasalari uchun amal qilishini ko‘rish mumkin. Braziliya, Chili, Kolumbiya, Hindiston, Indoneziya, Turkiya, Malayziya va Meksika kabi mamlakatlarda esa bunday amaliyot umuman mavjud emas.

O‘rta daromadli va rivojlanayotgan mamlakatlarida nodavlat (xususiy) sektorni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish usullari bo‘yicha ham tahlillarni keltirishimiz mumkin. Davlatning nodavlat (xususiy) sektorni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish bevosita (operatsion xarajatlarni va kapital sarflarni moliyalashtirish) va bilvosita (talabalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash) yoki ikkala usulni aralash holda qo‘llash orqali amalga oshirishining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Ruminiya, Rossiya, Indoneziya, Fillipin va Turkiya kabi mamlakatlarda nodavlat (xususiy) sektorni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish bevosita amalga oshiriladi. Xitoy Xalq Respublikasi, Kolumbiya, Malayziya, Meksika va Marokash kabi mamlakatlarda nodavlat (xususiy) sektorni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish bilvosita amalga oshiriladi. Chexiya Respublikasi, Vengriya, Polsha, Braziliya, Chili kabi mamlakatlarda esa bevosita va bilvosita rag‘batlantirish usullaridan (aralash) foydalanilishi kuzatiladi. Oliy ta’lim sohasida nodavlat sektor ko‘lami bo‘yicha (minimal (10 %dan kam), o‘rta (10-25%) va keng (25 %dan yuqori)) o‘rta daromadli va rivojlanayotgan mamlakatlarning ko‘pchiligida o‘rta va keng ko‘lamda shakllanganligini qayd etish o‘rinli. Polsha, Braziliya, Chili, Kolumbiya, Hindiston, Malayziya, Meksika va Fillipin mamlakatlarida nodavlat sektor ko‘lami keng bo‘lsa, Vengriya, Ruminiya, Rossiya, Vetnam va Misr mamlakatlarida o‘rta darajada ekanligini ko‘rish mumkin. Xitoy Xalq Respublikasi, Chexiya Respublikasi, Marokash, Janubiy Afrika Respublikasi va Turkiya kabi mamlakatlarda nodavlat sektor ulushi minimal ekanligini qayd etish mumkin. O‘rta daromadli va rivojlanayotgan mamlakatlarda oliy ta’limga tegishli xarajatlarni moliyalashtirishning asosiy xususiyatlari 2-ilovada keltirildi.

Burkino-Faso, Efiopiya, Gana, Keniya, Mozambik, Namibiya, Nigeriya, Pokiston, Tanzaniya va Uganda kabi **past daromadli mamlakatlarda**[81] asosan o‘rta va nominal (past) miqdordagi to‘lov shartnoma miqdorlari amal qiladi. Ularda ikki yo‘nalishli, oldindan to‘lovga hamda kechiktirib to‘lashga asoslangan to‘lov shartnoma shakllari mavjudligini qayd etish mumkin. To‘lov shartnoma miqdorlarini hamda talabalarning yashash xarajatlarini moliyalashtirishda ota-onalarning hamda talabalarning ishtiroki mavjud. Davlat tomonidan to‘lov shartnomalarini va turar joy uchun, shuningdek boshqa sarflarni moliyalashtirish uchun grantlar va qarz berish, shuningdek subsidiya va stipendiyalar berish nisbatan sust amal qilishini kuzatish mumkin. Shuningdek past daromadli mamlakatlarning ko‘pchiligida nodavlat (xususiy) sektorni qo‘llab-quvvatlash usullari mavjud emas. Mozambik va Uganda kabi mamlakatlarda xususiy sektor ko‘lami keng bo‘lsa, Burkino-Faso, Efiopiya, Keniya, Pokiston va Tanzaniya kabi mamlakatlarda o‘rta darajada shakllangan. Gana, Namibiya va Nigeriya kabi mamlakatlarda nodavlat (xususiy) sektorning ulushi minimal darajada. Past daromadli mamlakatlarda oliy ta’limga tegishli xarajatlarni moliyalashtirishning asosiy xususiyatlari 3-ilovada keltirildi. Odatda butun dunyoda oliy ta’lim muassasalariga ikki xil yo‘nalish orqali mablag‘lar yo‘naltiriladi. Albatta bunda ilmiy-tadqiqot ishlanmalari va boshqa faoliyat natijalarini hisobga olmagan holda ushbu yo‘nalishlar ajratib ko‘rsatiladi. Bular davlat moliyasi va to‘lov kontrakt summalari (tuition fees) orqali moliyalashtirishni tashkil etish. Davlat moliyasi orqali jalb qilish soliq to‘lovchilar zimmasiga tushganligini tufayli ko‘pgina siyosiy muhokamalar ushbu moliyalashtirish usulini optimallashtirish atrofida yuz beradi. Aynan aholini ijtimoiy himoyalashga ustuvorlik beruvchi va “ijtimoiy davlat” (welfare state) konsepsiyasiga ko‘ra ta’limni moliyalashtiruvchi mamlakatlarda oliy ta’lim muassasalari xarajatlarini moliyalashtirishda davlat moliyasining ulushi yuqoriligi kuzatiladi. Aksincha maksimal halaqit bermaslik (Láissez-fáire) tamoyili

[81] Xalqaro oliy ta’limni moliyalashtirishning qiyosiy taxlili va foydalanish imkoniyatlari (International Comparative Higher Education Finance and Accessibility (ICHEFA) Project) loyihasi bo‘yicha oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishda xarajatlarni taqsimlash amaliyotiga tegishli tadqiqotlar asosida o‘rganilgan. Financing Higher Education Worldwide: Who Pays? Who Should Pay? by D. Bruce Johnstone and Pamela Marcucci. Baltimore: Johns Hopkins University Press, 2010. – 259-271-betlar.

asosida yondashuvchi davlatlar oliy ta’lim xarajatlarini moliyalashtirishda xususiy manbalarga ustuvorlik berishadi. Ikkala yondashuvning ham o‘ziga xos muammo va ijobiy xususiyatlari mavjud bo‘lib, mutlaq bitta yondashuv asosida oliy ta’lim xarajatlarini moliyalashtirish odatda hech bir mamlakatda kuzatilmaydi. Kuzatishlarga ko‘ra yuqori daromadli va rivojlangan mamlakatlarda yuqori to‘lov kontrakt to‘lovlari va xususiy manbalarning keng qo‘llanilishi qayd etilsa, o‘rta va past daromadli, rivojlanayotgan mamlakatlarda davlat moliyasining o‘rni yuqori ekanligini ko‘rish mumkin.

Tadqiqotlarda deyarli ko‘pgina mamlakatlarda davlat tomonidan oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishning quyidagi shakllari keltirib o‘tilgan[82]:

1. Oliy ta’lim muassasalarining joriy va kapital xarajatlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri (bevosita) moliyalashtirish (smeta orqali);
2. O‘rta maktab bitiruvchilariga vaucherlar taqdim etish orqali moliyaviy resurslarni oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida taqsimlash;
3. Oliy ta’lim muassasalarini sifat ko‘rsatkichlari va natijadorligiga qarab moliyalashtirish (ta’lim berish, ilmiy faoliyat va bitiruvchilar sifati kabi ko‘rsatkichlarga asosan);
4. Grantlar, subsidiyalar ajratish orqali OTMlarini moliyalashtirish;
5. Imtiyozli ta’lim kreditlari taqdim etish orqali bilvosita moliyalashtirish;
6. Ota-onalarga soliq imtiyozlari berish orqali bilvosita ko‘mak ko‘rsatish orqali moliyaviy resurslarni oliy ta’lim muassasalariga yo‘naltirish;

Turli mamlakatlarning oliy ta’lim xarajatlarini moliyalashtirish holatini tahlil qilar ekanmiz, rivojlangan mamlakatlar tajribasidan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, quyidagi yo‘nalishlardagi ishlarning samarali tashkil etilganligiga qarab u yoki bu davlatda oliy ta’limni moliyalashtirishni baholash imkoniyatiga ega bo‘lamiz:

1. Oliy ta’lim sohasi ta’limning boshqa bo‘g‘inlari bilan hamohanglikda qanchalik diversifikatsiyalashgan (tarmoq diversifikatsiyasi masalasi)? Misol uchun ko‘pgina rivojlangan davlatlarda ikki yillik kasbiy ta’limning samarali ishlashi kasbga

---

[82] Мажитова С. К. Современные источники финансирования высшего образования. – 2017, 105-бет.

yo‘naltirilgan ta’limning samarasi o‘laroq oliy ta’lim tizimiga moliyaviy bosimni 40 foizgacha pasaytirishi kuzatiladi[83]. Aynan bunday tarmoqning diversifikatsiyalashuvi ta’limning bo‘g‘inlari o‘rtasida “moliyaviy yuk”ning nisbatan barqaror taqsimlanishini anglatadi;

2. Samarali tashkil etilgan nodavlat ta’lim tizimi. Ta’limning barcha bo‘g‘inlarida nodavlat (xususiy) ta’lim sektorining keng, samarali va barqaror faoliyat yuritishi natijasida davlat moliyasi va soliq to‘lovchilarga nisbatan “og‘riqsiz” ta’sir kuzatiladi. Bunday tizim oliy ta’lim sohasidagi sog‘lom raqobat muhiti bilan hamohang ravishda tashkil etilishi moliyaviy samaradorlikka ijobiy ta’sir ko‘rsatadi;

3. Davlat oliy ta’lim muassasalarining deyarli ko‘pchiligida to‘lov shartnoma narxlari ta’lim berish sarflarini 20-45 foizini tashkil etadi. Bu esa to‘lov qobiliyatiga moslashish va qamrovni ta’minlashga juda yaxshi zamin yaratadi;

4. Oliy ta’lim muassasalariga juda xilma-xil, diversifikatsiyalashgan va moslashuvchan moliyaviy dastaklarning joriy etilganlik holati. Bunda federal, mahalliy darajadagi budjetlar, xususiy manbalardan, turli homiylik institutlaridan (endaument va vasiylik fondlari kabi) grantlar, qarzlar va subsidiyalarning samarali joriy etilganligi tushuniladi.

Aynan yuqorida qayd etilgan yo‘nalishlarning tizimli ishlash holatiga qarab muayyan mamlakatda oliy ta’limni moliyalashtirish tajribasiga baho berish imkoniyatiga ega bo‘lish mumkin. Shuningdek, ushbu yo‘nalishlarda erishilgan natijalar, tajribalar va yutuqlarni aynan yoki moslashtirilgan holda boshqa oliy ta’lim tizimlariga ham tadbiq etish imkoniyati paydo bo‘ladi. Qolaversa ko‘pgina xalqaro tashkilotlar ushbu tajribalarni o‘rganish, ommalashtirish va rivojlanayotgan mamlakatlarda qo‘llash borasida ham o‘zlarining bir qancha dasturlarini ishlab chiqadi va taklif etadi.

---

[83] Xalqaro oliy ta’limni moliyalashtirishning qiyosiy taxlili va foydalanish imkoniyatlari (International Comparative Higher Education Finance and Accessibility (ICHEFA) Project) loyihasi bo‘yicha oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishda xarajatlarni taqsimlash amaliyotiga tegishli tadqiqotlar asosida o‘rganilgan. Financing Higher Education Worldwide: Who Pays? Who Should Pay? by D. Bruce Johnstone and Pamela Marcucci. Baltimore: Johns Hopkins University Press, 2010. – 226-227-betlar

# II-BOB. O‘ZBEKISTONDA OLIY TA’LIM MUASSASALARI XARAJATLARINI MOLIYALASHTIRISHNING EMPIRIK TAHLILI

## 2.1. O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalari xarajatlarini moliyalashtirishning tashkiliy asoslari

O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimini yaxlit tuzilma sifatida tasavvur etgan holda ushbu tizimda asosan quyidagi yo‘nalishdagi oliy ta’lim muassasalarini tasniflash orqali ularning xarajatlarini moliyalashtirishning tashkiliy asoslarini o‘rganish mumkin bo‘ladi:

1. Davlat oliy ta’lim muassasalari.
2. Nodavlat oliy ta’lim tashkilotlari.
3. Xorijiy oliy ta’lim muassasalarining filiallari.

Aynan Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan ham oliy ta’lim muassasalari ushbu toifalarga ajratilganligini ta’kidlash o‘rinli[84].

Davlat oliy ta’lim muassasalari universitetlar, institutlar, akademiyalar, filiallar hamda konservatoriyalar shaklidagi muassasalardan iborat bo‘lib, tegishliligi bo‘yicha turli vazirlik va davlat organlari tasarrufida faoliyat yuritadi. Ularni moliyalashtirish aynan ushbu jihatlarni hisobga olgan holda davlat budjeti ijrosining bir qismi hamda ushbu oliy ta’lim muassaslariga tegishli normativlar asosida tashkil etiladi.

Nodavlat oliy ta’lim tashkilotlari yuridik va jismoniy shaxslar muassisligida tashkil etilgan bo‘lib, qonunchilikda ko‘zda tutilgan tijorat va notijorat shakldagi tashkiliy-huquqiy ko‘rinishlardan biri sifatida faoliyat yurituvchi tashkilotlar hisoblanadi. Ularni moliyalashtirish esa ta’sischilar mablag‘lari va faoliyat natijalari asosida tushumlar hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi[85].

Xorijiy oliy ta’lim muassasalari filiallari O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lgan yuridik shaxslar, xususan davlat organlari va tashkilotlari, tadbirkorlik subyektlari hamda notijorat tashkilotlari bilan xorijiy oliy ta’lim muassasalari

---

[84] O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi rasmiy sayti - https://stat.edu.uz/Univer-list.php
[85] O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni 62-moddasi 2-xatboshisi.

o‘rtasida tashkil etilgan xalqaro oliy ta’lim muassasalari filiallari bo‘lib, akademik yoxud moliyaviy tomondan bosh xorijiy oliy ta’lim muassasasiga bo‘ysunuvchi maqomida bo‘ladi. Ularni tashkil etish Prezident qarorlari, Hukumat qarorlari, davlat idoralari qarorlari hamda rezident tijorat va notijorat yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat oliy ta’lim muassasalari xarajatlarini moliyalashtirish nuqtayi nazaridan eng muhim jihat bir talaba uchun to‘g‘ri keladigan o‘rtacha xarajat miqdoridan kelib chiqib moliyalashtirish tartibining joriy etilishi deb aytish mumkin.




**4-rasm. Moliya yili uchun OTMga ajratiladigan budjet mablag‘lari hajmini aniqlashda qo‘llaniladigan xarajatlarning bazaviy normativlari[86]**

Bir talaba uchun to‘g‘ri keladigan o‘rtacha xarajat miqdoridan kelib chiqib moliyalashtirish tartibi bo‘yicha qabul qilingan Nizomga ko‘ra moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta’lim muassasalarida davlat buyurtmasi (davlat granti) asosida ta’lim olayotgan talabalarni o‘qitish uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti hisobidan ajratiladigan mablag‘larni bakalavriat ta’lim yo‘nalishi (magistratura mutaxassisligi), turi, bosqichi va shaklidan kelib chiqib, har bir davlat granti asosidagi o‘rin uchun sarflanadigan xarajatlar normativini hisoblash metodologiyasini,

[86] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta’lim muassasalarida davlat buyurtmasi (davlat granti) asosida kadrlar tayyorlash uchun O‘zbekiston Respublikasi davlat budjetidan moliyalashtirish tartibini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 01.08.2022-yildagi 419-son qarori asosida muallif ishlanmasi

ajratilgan mablag‘larni moliyalashtirish hamda sarflash tartibini belgilaydi. Ushbu tartibga ko‘ra davlat oliy ta’lim muassasalarida moliya yili xarajatlarni qoplash uchun ajratiladigan mablag‘larni moliyalashtirish uchun xarajatlarning bazaviy normativlarini qo‘llash amaliyoti amal qilishi keltirilgan.

Nodavlat oliy ta’lim muassasalari xarajatlarini guruhlash va tasniflash quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida tashkil etiladi:

- O‘zbekiston Respublikasi “Buxgalteriya hisobi” to‘g‘risidagi qonuni (yangi tahriri);

- O‘zbekiston Respublikasi Buhgalteriya hisobining milliy standartlari (BHMS);

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” gi 1999-yil 5-fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan Nizom.

Shuningdek nodavlat oliy ta’lim muassasalari xarajatlari shakllanishida litsenziya talablari asosida o‘rnatiladigan normativ miqdorlar ham muhim o‘rin tutadi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to‘g‘risidagi yagona nizomni tasdiqlash haqida”gi 2022-yil 21-fevraldagi 80-son qarori asosida tasdiqlangan oliy ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha litsenziya talablari belgilangan. Ushbu talablar nodavlat oliy ta’lim muassasalari xarajatlari shakllantirilishida asosiy me’yorlarni belgilab beradi.

Aynan qonunchilikdagi umumiy xarajatlar tasnifiga ko‘ra nodavlat oliy ta’lim tashkilotlari xarajatlari quyidagicha tasniflanishi nazarda tutiladi[87]:

- xizmatning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar:

a) bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar;

b) bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari;

v) boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar, shu jumladan ishlab chiqarish

[87] O‘zbekiston Respublikasi Milliy qonunchilik bazasi - https://lex.uz/docs/264422

xususiyatiga ega bo‘lgan ustama xarajatlar;

- ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydigan, biroq asosiy faoliyatdan olingan foydada hisobga olinadigan hamda davr xarajatlariga kiritiladigan xarajatlar:

a) sotish xarajatlari;

b) boshqarish xarajatlari (ma’muriy sarf-xarajatlar);

v) boshqa operatsion xarajatlar va zararlar;

- xo‘jalik yurituvchi subyektning umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda yoki zararlarni hisoblab chiqishda hisobga olinadigan xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy faoliyati bo‘yicha xarajatlari:

a) foizlar bo‘yicha xarajatlar;

b) xorijiy valyuta bilan operatsiya bo‘yicha salbiy kurs tafovutlari;

v) qimmatli qog‘ozlarga qo‘yilgan mablag‘larni qayta baholash;

g) moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa xarajatlar;

- favqulodda zararlar, u foydadan olinadigan soliq to‘langunga qadar foyda yoki zararlarni hisoblab chiqishda hisobga olinadi.

Nodavlat oliy ta’lim muassasalarida xarajatlarni ularning tijorat va notijorat shakllariga ko‘ra farqlash zarur. Ushbu farqlar quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ladi:

1) Tijorat maqsadlarida tashkil etilgan oliy ta’lim muassasalarida xarajatlar narxni belgilash uchun tannarxni aniqlash maqsadida guruhlanishi va nazorat qilinishi amal qiladi;

2) Tijorat maqsadlarida tashkil etilgan oliy ta’lim muassasalari bozorga moslashish maqsadlarida hamda chegirmalar o‘rnatish uchun xarajatlarni o‘z zimmasiga olishi mumkin. Bu ularning rentabelligiga bevosita ta’sir qilishiga olib kelishi mumkin;

3) Notijorat oliy ta’lim muassasalarida xarajatlar mablag‘larning maqsadli ishlatilishi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa notijorat oliy ta’lim muassasalarining asosiy maqsadi foydani maksimallashtirish emas balki oliy ta’lim faoliyatining o‘ziga qaratilishi bilan xarakterlanadi;

4) Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat va notijorat faoliyatlariga investitsiyalarni, moliyaviy resurslarni jalb qilishda foyda me’yori asosiy motivator

(jalb qiluvchi kuch) sifatida namoyon bo‘ladi. Shunday ekan tijorat maqsadlarida tashkil etilgan oliy ta’lim muassasalarida foyda me’yori muhim o‘rin tutadi. Shunday ekan oliy ta’lim muassasasini tashkil etishdan asosiy maqsad muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga ko‘ra tijorat oliy ta’lim tashkilotlarida notijorat oliy ta’lim tashkilotlariga nisbatan xarajatlarni optimallashtirishga ko‘proq e’tibor qaratilishi mumkin. Notijorat maqsadlarda esa sifat va boshqa nomoliyaviy omillar xarajatlarni optimallashtirish masalasini ikkinchi o‘ringa qo‘yilishiga olib kelishi ehtimoli mavjud.

Xorijiy oliy ta’lim muassasalarining filiallari ham qonunchilikda belgilangan tashkiliy-huquqiy shakllar asosida tijorat yoki notijorat shakllarda faoliyat yuritadi. Ularning xarajatlari to‘lov shartnoma asosidagi tushumlar, ta’sischilar mablag‘lari va qonunchilikda ta’qiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi. Ayrim xorijiy oliy ta’lim muassasalarining filiallari davlat budjeti yoki vasiylik kengashi mablag‘larini jalb qilish orqali ham o‘z xarajatlarini moliyalashtirishni tashkil etishi mumkin.

Oliy ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirishning qonuniy asoslari O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni 62-moddasiga asosan belgilangan bo‘lib, moliyalashtirishning asosiy manbalari va qo‘shimcha manbalari orqali amalga oshirilishi belgilab berilgan. 10-jadvalda oliy ta’lim tashkilotlari turlariga ko‘ra moliyalashtirish manbalari keltirib o‘tilgan. Shuningdek qonunchilikda davlat-xususiy sherikligi asosida oliy ta’lim faoliyatini tashkil etish hamda moliyalashtirish asoslari ham belgilab berilgan. Bundan tashqari ta’limni rivojlantirish maqsadlarida jamg‘armalar tashkil etish orqali ularni moliyalashtirish tartiblari ham belgilab berilgan. Umumiy konseptual jihatdan olib qaralganda jamiyatda oliy ta’lim xarajatlarini moliyalashtirishning pirovard (prinsipial) manbalari quyidagi to‘rtta subyektlar hisoblanadi[88]:

1. Davlat budjeti mablag‘lari (soliq to‘lovchilar hisobidan);
2. Talabalarning o‘zlarining mablag‘lari hisobidan;

[88] Financing Higher Education Worldwide: Who Pays? Who Should Pay? by D. Bruce Johnstone and Pamela Marcucci. Baltimore: Johns Hopkins University Press, 2010. 40 pp.

3. Talabalarning yaqinlari (ota-onasi, qarindoshlari va yaqinlari) mablag‘lari hisobidan;

4. Individual va institutsional donorlar (filantroplar, homiylar va buyurtmachilar, turli jismoniy va yuridik shaxslar) mablag‘lari.

**10-jadval.**

**Oliy ta’lim muassasalari xarajatlarini moliyalashtirish manbalari**[89]

| t/r | Oliy ta’lim muassasasi turi | Xarajatlarni moliyalashtirish manbasi |
|---|---|---|
| 1 | Davlat oliy ta’lim muassasalari | - davlat budjeti mablag‘lari (subsidiya, grant va moliyalashtirishning boshqa shakllari orqali);<br>- to‘lov-shartnoma asosida to‘langan mablag‘lar;<br>- moliyaviy ko‘mak dasturlari va homiylik mablag‘lari;<br>- ilmiy faoliyat asosida olingan mablag‘lar;<br>- qo‘shimcha faoliyat orqali mablag‘lar jalb qilish (pulli ta’lim xizmatlari va boshqa xizmatlar ko‘rsatish, shuningdek tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish);<br>- qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag‘lar. |
| 2 | Nodavlat oliy ta’lim tashkilotlari | - muassislarning pul mablag‘lari;<br>- kadrlar buyurtmachilarining pul va moddiy mablag‘lari;<br>- to‘lov-shartnoma asosida to‘langan mablag‘lar;<br>- moliyaviy ko‘mak dasturlari va homiylik mablag‘lari;<br>- ilmiy faoliyat asosida olingan mablag‘lar;<br>- qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar |
| 3 | Xorijiy oliy ta’lim muassasalarining filiallari | - muassislarning pul mablag‘lari;<br>- kadrlar buyurtmachilarining pul va moddiy mablag‘lari;<br>- to‘lov-shartnoma asosida to‘langan mablag‘lar;<br>- moliyaviy ko‘mak dasturlari va homiylik mablag‘lari;<br>- ilmiy faoliyat asosida olingan mablag‘lar;<br>- qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar |

[89] Muallif ishlanmasi

Butun dunyodagi tajriba shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim xarajatlarining katta qismi davlat moliyasi orqali moliyalashtiriladi. Ular grantlar, subsidiyalar, ijtimoiy ko‘mak dasturlari, imtiyozlar va turli maqsadli moliyalashtirish shakllari orqali amalga oshiriladi. Ammo so‘nggi yillarda xarajatlarni moliyalashtirish bo‘yicha moliyaviy yuk davlat moliyasidan (soliq to‘lovchilardan) talaba va uning yaqinlari va kadrlar buyurtmachilari tomoniga qayta taqsimlanayotganligi kuzatilmoqda.

O‘zbekistonda ham oliy ta’lim muassasalari xarajatlari ushbu subyektlar tomonidan moliyalashtirilishi tashkil etiladi. Ushbu moliyalashtirish turli shakllarda amalga oshiriladi va ularning subyektlar bo‘yicha shakllari 5-rasmda keltirilgan. Oliy ta’lim muassasalari xarajatlarini moliyalashtirish ushbu to‘lov shakllaridan tushumlar ko‘rinishida olinadi.




**5-rasm. O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalari xarajatlarini turli subyektlar tomonidan moliyalashtirish shakllari[90].**

Mamlakatimizda ham moliyalashtirishning asosiy ikki jihatiga e’tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ijtimoiy ko‘mak dasturlari (imtiyozlar) va ta’lim kreditlari institutlari orqali oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy resurslarni yo‘naltirish hisoblanadi. Aynan ushbu ikki yo‘nalish odatdagi moliyalashtirish

[90] Muallif ishlanmasi.

shakllariga qaraganda dinamik va islohotlar ta'sirida keskin o'zgarayotgan moliyalashtirish institutlari deb baholash mumkin. Oliy ta'limda qamrov oshishi, talabalar sonining ortib borishi va oliy ta'lim olish imkoniyatlarini barqaror ta'minlash maqsadlarida ushbu yo'nalishlarda izchil islohotlar o'tkazilmoqda.

Ijtimoiy himoya dasturlari va ular bo'yicha shakllantiriladigan yagona davlat reestri asosida kam ta'minlangan va ijtimoiy himoyaga muxtoj aholi qatlamiga nisbatan to'lov shartnoma narxlarini to'lab berish amaliyoti tizimli yo'lga qo'yilganligini qayd etish mumkin. Shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 18-avgustdagi 457-son qarori asosida xotin-qizlarning ta'lim olishida qo'llab-quvvatlash maqsadlarida ularning to'lov-kontrakt asosida ta'lim olishi uchun ta'lim kreditlari ajratish tartiblari belgilangan. Shuningdek mamlakatimizda oliy ta'lim muassasalarida o'qish uchun qonunchilikda o'rnatilgan tartibda yo'naltirilgan mablag'lar bo'yicha daromad solig'idan imtiyozlar berish amal qiladi. Aynan ushbu ijtimoiy qo'llab-quvvatlash choralari va imtiyozlar orqali talabalarning to'lov-kontrakt to'lovlarini amalga oshirilishida bilvosita dastaklar ishlashi orqali moliyalashtirishni amalga oshirish ko'zda tutiladi.

**11-jadval.**

**Ta'lim kreditlari berish bo'yicha eski va yangi amaliyotga tegishli asosiy ma'lumotlar[91].**

| Ta'lim kreditiga tegishli ma'lumotlar | 318-son qaror asosidagi eski tartib | 527-son va 457-son qarorlar asosidagi yangi tartib |
|---|---|---|
| Moliyalashtirish manbasi | Tijorat banklari o'z mablag'lari | Davlat budjeti mablag'lari |
| Ta'lim kreditini qaytarish muddatlari | O'qish davri bilan: Bakalavriat – 10 yil Magistratura – 5 yil | O'qish davrisiz: O'qish muddati tugagandan so'ng 7-oydan boshlab 7 yil |
| Birinchi kurslar uchun taqdim etish muddati tartibi | 1-oktyabr va 15-mart | Qarz oluvchining murojaati bo'yicha (cheklov yo'q) |
| Foiz shartlari | MB tomonidan qayta moliyalashtirish stavkasi ortsa ortadi, kamaysa o'zgarmaydi | MB tomonidan qayta moliyalashtirish stavkasi ortsa o'zgarmaydi, kamaysa kamayadi |
| Ta'lim krediti uchun kafillik shartlari | Barcha taqdim etishi zarur | Ijtimoiy reestrga kirgan oila farzandlaridan talab etilmaydi |

[91] "O'zbekistonda ta'lim tizimini moliyalashtirish: islohotlar va istiqbollar", Monografiya. – T.:"Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2021. – 259 b.

Oliy ta’lim muassasalari uchun to‘lov-kontrakt summalarini ta’lim kreditlari instituti orqali moliyalashtirish tartiblari ham so‘nggi yillarda keskin o‘zgarayotganligini qayd etish mumkin. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 26-iyuldagi “Oliy o‘quv yurtlarida to‘lov-kontrakt asosida o‘qish uchun ta’lim kreditlari berish to‘g‘risida”gi 318-son qarori bekor qilinib, 2021-yilning 18-avgustida “Oliy, o‘rta maxsus va professional ta’lim tashkilotlarida to‘lov-kontrakt asosida o‘qish uchun ta’lim kreditlari ajratishni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 527-son qarori qabul qilindi. 11-jadvalda eski va yangi tartib asosida ta’lim berish to‘g‘risida asosiy ma’lumotlardan ko‘rish mumkinki, talabalarning ta’lim olishi uchun qarz berish amaliyoti ancha liberallashganini guvohi bo‘lishimiz mumkin.

## 2.2. O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalari xarajatlarini moliyalashtirish omillar ta’sirining tahlili

So‘nggi yillarda butun dunyoda oliy ta’lim sohasining moliyalashtirilishiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi omillar keskin tus olmoqda. Bunda moliyalashtirish hajmini belgilovchi ekstensiv omillar, xarajatlarning mutlaq va talaba birligiga oshishi tendensiyalari hamda daromadlar tarkibining nobarqarorlashuvi kabi omillarni hisobga olish talab etilmoqda. Aynan ushbu omillarning har tomonlama hisobga olgan holda to‘g‘ri moliyalashtirish usullari va dastaklarini qo‘llash oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini ijobiy ta’minlashi mumkin. Shu maqsadda O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirish jarayoniga o‘zining kuchli ta’sirini ko‘rsatayotgan hamda deyarli ko‘pgina davlatlarda kuzatilayotgan quyidagi tendensiyalar (omillar)ning o‘rinli yoki o‘rinli emasligini tadqiq etish (tekshirish) lozim bo‘ladi:

1. Oliy ta’limga talab va taklif ko‘rsatkichi va oliy ta’lim bilan qamrov darajasi ko‘rsatkichlarini tahlil qilish. Ushbu tahlil moliyalashtirishga ekstensiv omil ta’siri borasida hisobga olinishi lozim bo‘lgan tendensiyalarni belgilab beradi.

2. Oliy ta’lim muassasalari tushumlari va ularga ajratilayotgan mablag‘lar dinamikasini, tarkibini va ularning o‘zgarishlarini tahlil qilish. Ushbu tahlil asosida oliy ta’lim muassasalarining daromadlar tarkibi, ularni istiqbollash va ularning xarajatlarga nisbatan muvofiqligini tekshirish maqsadlarida o‘tkazilishi nazarda tutiladi.

3. Bitta talabaga to‘g‘ri keluvchi xarajatlar ko‘rsatkichining dinamikasini kuzatish va ushbu ko‘rsatkichni inflyatsiya sur’atlari bilan solishtirish. Xarajatlarning mutlaq va bitta talabaga to‘g‘ri keluvchi ko‘rsatkichlarini inflyatsiya ko‘rsatkichlari bilan qiyoslash orqali to‘lov shartnoma narxlariga nisbatan xavotirli signallarni baholash imkoniyatiga ega bo‘linadi. Shuningdek oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy samaradorligi masalasining ham hisobga olinishi borasida xulosalar qilinishiga erishiladi.

**O‘zbekistonda oliy ta’limga talab va taklif ko‘rsatkichi va oliy ta’lim bilan qamrov darajasi ko‘rsatkichlarining tahlili.** Mamlakatimizda 2011-2021-yillarda

oliy ta'lim muassasalari bakalavriat yo'nalishiga topshirilgan arizalar va qabul qilingan talabalar soni dinamikasiga qaraydigan bo'lsak, ushbu davrda topshirilgan arizalar soni 3 barobarga, qabul qilingan talabalar soni esa taxminan 4 barobarga oshganligini ko'rish mumkin (6-rasm). Maktab ta'limidagi islohotlar natijasida (11 yillik umumiy o'rta ta'lim qayta kiritilishi munosabati bilan) 2019-yilda topshirilgan arizalar soni keskin oshganligi kuzatilgan. Magistratura yo'nalishida ham topshirilgan arizalar soni 2011-2021-yillar davomida 4 barobar oshgan bo'lsa, qabul qilingan talabalar soni taxminan 3 barobar ortgan (7-rasm). Umumiy trend asosida xulosa qilish mumkinki, mamlakatimizda hali ham oliy ta'limga nisbatan yuqori darajadagi qondirilmagan talab mavjud.




**6-rasm. 2011-2021-yillarda O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalariga bakalavriat yo'nalishi bo'yicha topshirilgan arizalar va qabul qilingan talabalar soni o'zgarishi[92]**

Ushbu ko'rsatkichlar asosida qayd qilish mumkinki, oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi, akademik va ilmiy imkoniyatlari yuqori talabni qisqa muddatda qondirish va ushbu ko'rsatkichlarga muvofiq bo'lishi eng dolzarb masala hisoblanadi. So'nggi yillarda oliy ta'lim muassasalarining resurs salohiyati oshishi talabalar soni oshish sur'atiga nisbatan ortda qolishi yoki muvofiq emasligi riski paydo bo'lmoqda. 2023-yilda oliy ta'lim muassasalarida o'quv binolari

[92] Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

quvvati 2016-yilga nisbatan 1.44 barobar oshgan boʻlsa, ushbu davrda jami talabalar soni taxminan 3.6 barobarga oshgan (12-jadval).

**12-jadval.**

**2016-2023-yillarda oliy ta’lim muassasalarida oʻquv binolari quvvati va talaba soni oshish koʻrsatkichlari[93]**

| Koʻrsatkichlar | 2016 | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2023 |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Oʻquv binolari quvvati oʻsish koʻrsatkichi (ming oʻrin) | 274 | 285 | 310 | 328 | 334 | 395 |
| OTMlar talabalar soni oʻsish koʻrsatkichlari (ming kishi) | 268 | 288 | 339 | 414 | 528 | 968 |
| Oʻquv binolari smena koeffitsiyenti | 1 | - | - | 1.4 | 1.7 | 1.9 |

Buning natijasida oliy ta’lim muassasalarida smena koeffitsiyenti ushbu davrda ikki barobarga yaqin oshganligini koʻrish mumkin (12-jadval).




**7-rasm. 2011-2021-yillarda Oʻzbekistonda oliy ta’lim muassasalariga magistratura yoʻnalishi boʻyicha topshirilgan arizalar va qabul qilingan talabalar soni oʻzgarishi[94]**

Oʻzbekistonda oliy ta’limga talab va taklif koʻrsatkichi va oliy ta’lim bilan qamrov darajasi koʻrsatkichlarining tahlili. Mamlakatimizda 2009-2010 oʻquv yilidan 2023-2024 oʻquv yiligacha boʻlgan davr uchun jami talabalar soni va oliy ta’lim tashkilotlari soni dinamikasiga nazar tashlaydigan boʻlsak, talabalar soni taxminan 4.7 barobar, oliy ta’lim tashkilotlari soni 3 barobardan ziyod oshganligini kuzatish mumkin (4-rasm). 2023-2024 oʻquv yiliga kelib oliy ta’lim tashkilotlari soni 219 taga

[93] Oʻzbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi rasmiy saytti ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.
[94] Manba: Oʻzbekiston Respublikasi Davlat Statistika qoʻmitasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

yetgan bo‘lsa, jami talabalar soni bir million uch yuz mingdan oshganligi qayd etilmoqda[95].




**8-rasm. 2009-2010 va 2023-2024-o‘quv yillari davomida O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalari va jami talabalar soni o‘zgarishi [96]**

O‘zbekistonda oliy ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirishda so‘nggi yillarda keskin o‘sish kuzatilmoqda. Davlat va nodavlat oliy ta’lim tashkilotlari soni ortishi, turli shakllardagi talabalar kontingentning ortib borishi fonida ushbu ko‘rsatkichlarga mos bo‘lgan resurs bazasini shakllantirish, hamda akademik va ilmiy salohiyatni tashkil etish oliy ta’lim sohasi siyosatining dolzarb masalasi sifatida qo‘yilmoqda. Mamlakatimizda qabul qilingan oliy ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha 2030-yilgacha belgilangan konsepsiyaga ko‘ra, sohada davlat va nodavlat oliy ta’lim muassasalari faoliyatini izchil yo‘lga qo‘yish va davlat-xususiy sherikchiligini tashkil etish natijasida oliy ta’lim bilan qamrov ko‘rsatkichini 50 foizga yetkazish vazifasi qo‘yilgan. Shu maqsadda 2017-yildan so‘ng mamlakatimiz oliy ta’lim sohasida ommaviy qamrov davri boshlanganligini qayd etish mumkin. Mamlakatimizda oliy ta’lim bilan qamrovning 30 foizga yetishi natijasida oliy ta’lim muassasalari xarajatlarini moliyalashtirish asoslarini ham aynan mana shu ko‘rsatkichlarga mos holda tashkil etish talab etiladi.

---

[95] O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi rasmiy saytti ma’lumotlari
[96] O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi




**9-rasm. O‘zbekistonda 1991-2021-yillarda oliy ta’lim bilan qamrov darajasi o‘zgarishi (%da)**[97]

O‘zbekistonda oliy ta’limga bo‘lgan talab va taklif omillari tahlilidan xulosa qilish mumkinki, mamlakatimizda oliy ta’lim muassasasalari xarajatlari oshishi uchun ekstensiv omillar ta’siri kuchli bo‘lmoqda. Xususan, topshirilayotgan arizalar soni, qabul kvotalari va jami talabalar sonining muttasil oshib borishi natijasida oliy ta’lim tashkilotlari resurs bazasini oshirish, akademik va ilmiy salohiyatini muvofiqlashtirish tizimli qo‘shimcha moliyalashtirish manbalarini jalb etishni talab etadi. Ushbu omillarni hisobga olgan holda tizim ko‘rsatkichlarini istiqbollash va yetarlicha moliyaviy resurslarni safarbar qilish eng dolzarb masala sifatida qaralishi kerak.

**Oliy ta’lim muassasalari tushumlari va ularga ajratilayotgan mablag‘lar dinamikasini, tarkibini va ularning o‘zgarishlari tahlili.** O‘zbekistonda oliy ta’lim jarayonini tashkil etishda albatta davlat oliy ta’lim muassasalari asosiy o‘rinni egallaydi. 2023-yilning 2-choragi yakunlari bo‘yicha jami 210 ta oliy ta’lim muassasalari bo‘lgan bo‘lsa, ularning 115 tasi davlat oliy ta’lim muassasalari hisoblanadi. Shuningdek 30 ta xorijiy oliy ta’lim muassasalari filiallari mavjud bo‘lib, ularning ham ko‘pchiligi davlat va kvazi davlat muasasasalari ta’sischiligidagi oliy ta’lim tashkilotlari hisoblanadi (13-jadval). 2022-yilda mamlakatimiz oliy ta’lim

---

[97] Manba: OTFvaI vazirligi ma’lumotlari, Jaxon banki EdStats ma’lumotlari, Brunner va Tillett (2007), https://data.worldbank.org/indicator/SE.TER.ENRR?locations=UZ

muassasalarida jami talabalar soni taxminan 964 mingdan ortiq bo‘lgan bo‘lsa, ularning 700 mingga yaqini davlat oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotganligi hisobga olinsa, davlat oliy ta’lim muassasalari xarajatlari va tushumlarini o‘rganish tadqiqotning asosini tashkil etadi deb aytish mumkin. Aynan mana shu jihatni hisobga olgan holda xulosa qilish mumkinki, oliy ta’lim sohasini moliyalashtirish davlat moliyasi tarkibida o‘rganilishi muhim hisoblanadi.

**13-jadval.**

**2023-yil 2-choragi yakunlariga ko‘ra O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalari soni[98]**

| OTMlar | Jami | shu jumladan | | |
|---|---|---|---|---|
| | | Davlat oliy ta’lim muassasalari | Nodavlat oliy ta’lim tashkilotlari | Chet el OTMlari filiallari |
| Oliy ta’lim muassasalari soni | 210 | 115 | 65 | 30 |

Davlat oliy ta’lim muassasalari xarajatlarini moliyalashtirish uchun yo‘naltiriladigan tushumlar asosan ikki yirik manbalardan tashkil topgan. Bular davlat budjeti mablag‘lari va to‘lov-kontrakt mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish hisoblanadi. Shuningdek to‘lov-kontrakt mablag‘larining o‘zi ham bazaviy kontrakt miqdorlarida va tabaqalashtirilgan kontrakt miqdorlarida hisoblangan mablag‘lar asosidagi tushumlardan tashkil topgan.

14-jadval asosida ko‘rishimiz mumkinki, 2017-2022-yillar davomida talabalar soning keskin o‘sishi natijasida budjetdan ajratilgan mablag‘larning ham keskin oshishi kuzatilgan. Talabalar soni tarkibi dinamikasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak to‘lov-shartnoma asosida tahsil oladigan talabalar soni keskin oshganligining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Aynan mana shu o‘sish ta’sirida to‘lov-kontrakt asosida tushumlarning oshib borishi kuzatilgan. Ammo masalaning muhim jihati shuki, ushbu oshish asnosida tushumlar tarkibi qanday o‘zgarganligini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

[98] O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi rasmiy saytti ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

**14-jadval.**

**O‘zbekistonda 2017-2022-yillar oliy ta’lim muassasalari asosiy ko‘rsatkichlari to‘g‘risida ma’lumot[99]**

| t/r | Ko‘rsatkichlar | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Yil uchun jami OTMlar soni* | 72 | 91 | 114 | 125 | 147 | 182 |
| 1.1 | Davlat oliy ta’lim muassasalari soni | 64 | 80 | 95 | 99 | 101 | 114 |
| 1.2 | Nodavlat oliy ta’lim tashkilotlari | 1 | 2 | 4 | 8 | 23 | 42 |
| 1.3 | Chet el OTMlari filiallari | 7 | 9 | 15 | 18 | 23 | 26 |
| 2 | Talabalar soni (ming kishi), jami* | 288 | 339 | 414 | 528 | 729 | 964 |
| | *shundan:* | | | | | | |
| 2.1 | Davlat OTMlarida talaba soni (ming kishi) | 265 | 302 | 356 | 445 | 602 | 789 |
| 2.1.1 | Davlat buyurtmasi asosida (ming kishi) | 80 | 84 | 90 | 106 | 133 | 169 |
| 2.1.2 | To‘lov-kontrakt hisobiga (ming kishi) | 185 | 218 | 266 | 339 | 469 | 620 |
| 3 | Sitqi va kechki ta’lim shakllarida tahsil olayotgan talabalar soni (ming kishi) | 6 | 32 | 63 | 109 | 171 | 263 |
| 4 | Davlat oliy ta’lim muassasalari tushumlari (jami), mlrd.so‘m | 2 645,6 | 3 378,4 | 5 625,3 | 8 785,7 | 10 072,2 | 13 067,7 |
| 4.1 | Davlat granti bo‘yicha talabalar uchun budjetdan to‘lovlar, mlrd.so‘m | 738,6 | 875,9 | 1 295,7 | 1 670,1 | 2 237,8 | 2 990,3 |
| 4.2 | Bazaviy to‘lov-kontrakt asosida o‘qiyotgan talabalardan tushum, mlrd so‘m | 1 415,9 | 1 933,6 | 3 500,3 | 5 054,5 | 6 486,7 | 8 234,1 |
| 4.3 | Tabaqalashtirilgan to‘lov-kontrakt asosida o‘qiyotgan talabalardan tushum, mlrd.so‘m | 491,1 | 568,9 | 829,4 | 2 061,1 | 1 347,7 | 1 843,3 |

**o‘quv yilidan kelib chiqqan holda moliya yili uchun hisoblangan*

10-rasmga ko‘ra, 2017-2022-yillar mobaynida 2017-yildan 2020-yilgacha jami tushumlar tarkibida to‘lov-kontrakt asosidagi tushumlar hajmi oshib borganligining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Ammo, keyinchalik 2021-2022-yillar davomida ushbu ulush kamayib borganligini va mos ravishda davlat budjetidan tushumlarning jami tushumlardagi ulushi oshganligini ko‘rish mumkin. Aynan ushbu tendensiyadan

[99] O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi Ijtimoiy sohalar iqtisodiyoti va moliyasi departamenti ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

xulosa qilish mumkinki, jami tushumlar tarkibida nobarqaror vaziyat yuzaga kelmoqda. Moliyalashtirishda aniq, barqaror tushum yo‘nalishining bo‘lmasligi tizimni moliyalashtirishdagi noaniqliklar va chalkashliklarga olib kelishi mumkin. Qolaversa istiqbollash va tizimning moliyaviy mustaqilligini ta’minlash masalasi ham so‘roq ostida qolishi mumkin.




**10-rasm. O‘zbekistonda 2017-2022-yillarda oliy ta’lim muassasalarida tushumlar tarkibi o‘zgarishi (foizda)[100]**

Ushbu jarayonda yana bir e’tibor berilishi lozim bo‘lgan tahlil shundan iboratki, oliy ta’lim muassasalarida talabalar soni oshish sur’atlari va tushumlarning oshish sur’atlarida mutanosiblik bo‘lishi ko‘rib chiqilishi kerak. 2017-2022-yillar davomida ushbu ko‘rsatkichlar dinamikasini tahlil qiladigan bo‘lsak, 2020-yilga qadar tushumlarning oshish dinamikasi talabalar sonining oshish sura’tidan ancha yuqori bo‘lganligini kuzatish mumkin. Ammo so‘nggi yillarda tushumlarning oshish sur’ati sekinlashgani va ortda qolayotganligini ko‘rishimiz mumkin (11-rasm). Tushumlarning yetarlicha sur’atlarda oshmasligi oshib boruvchi xarajatlarni barqaror moliyalashtirish masalasini qiyinlashtirishi mumkin. Shu tufayli ham ushbu pasayishni xavotirli signal sifatida qabul qilish kerak bo‘ladi.

[100] O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi Ijtimoiy sohalar iqtisodiyoti va moliyasi departamenti ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.




**11-rasm. O‘zbekistonda 2017-2022-yillarda oliy ta’lim muassasalarida talaba soni va tushumlar o‘zgarishi (oldingi yilga nisbatan foizda)[101]**

**Bitta talabaga to‘g‘ri keluvchi xarajatlar ko‘rsatkichining dinamikasini kuzatish va ushbu ko‘rsatkichni inflyatsiya sur’atlari bilan solishtirish.** Oliy ta’lim olishning ommaviylashuv davri uchun xos bo‘lgan asosiy jihatlardan biri bu oliy ta’lim muassasalarida xarajatlar va ularning bir nafar ta’lim oluvchiga nisbatan ko‘rsatkichlarining yuqori sur’atlarda o‘sishi hisoblanadi. Ushbu jarayondagi xavotirli jihat shundan iboratki, xarajatlarning o‘sish sur’atlari ularni moliyalashtirish manbalarisiz yuz berishi natijasida oliy ta’lim muassasalarini barqaror moliyalashtirish so‘roq ostida qolishi mumkin. Mamlakatimizda ham 2017-2022-yillar davomida davlat OTMlari xarajatlari dinamikasini tahlil qiladigan bo‘lsak, ushbu davrda jami xarajatlarning taxminan 5 barobarga oshganligini ko‘rish mumkin (15-jadval). Ushbu dinamika fonida bir nafar talabani o‘qitish sarflari ham keltirilgan davr mobaynida 2 barobardan ortiqroq oshganligini kuzatishimiz mumkin. E’tiborli jihati OTMlarda davlat granti asosida tahsil olayotgan talabalar uchun xarajatlar miqdori yuqori bo‘lib, bu ularning barchasi uchun normativ moliyalashtirish me’yorlari va stipendiyalar to‘lanishi bilan izohlanishi mumkin. Shuningdek ushbu davrda OTMlar xarajatlari o‘zgarishida 2020-yilda boshlangan pandemiyaning ham ta’siri bo‘lgan degan xulosaga kelish mumkin. Ushbu yilda xarajatlar oshishida

---

[101] O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi Ijtimoiy sohalar iqtisodiyoti va moliyasi departamenti ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

pasayish kuzatilgan. Bu ushbu davrda darslarning onlayn shaklga o'tkazilishi bilan tushuntirilishi mumkin.

**15-jadval.**

**O'zbekistonda 2017-2022-yillar oliy ta'lim muassasalari xarajatlari to'g'risida ma'lumot[102]**

| t/r | Ko'rsatkichlar | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Davlat oliy ta'lim muassasalari jami xarajatlari, mlrd.so'm | 2 144 | 2 817 | 4 146 | 4 957 | 7 588 | 10 662 |
| 1.1 | Davlat granti bo'yicha talabalar uchun xarajatlar, mlrd.so'm | 739 | 876 | 1 296 | 1 670 | 2 290 | 3 339 |
| 1.2 | To'lov-kontrakt asosida o'qiyotgan talabalar uchun xarajatlar, mlrd.so'm | 1 406 | 1 941 | 2 850 | 3 287 | 5 298 | 7 324 |
| 2 | Davlat OTMlarida bir nafar talabani o'qitish sarflari, mln. so'm | 8.22 | 10.07 | 13.29 | 13.44 | 15.73 | 17.63 |
| 2.1 | Davlat OTMlarida bir nafar davlat granti asosida talabani o'qitish sarflari, mln.so'm | 9.23 | 10.43 | 14.40 | 15.76 | 17.22 | 19.76 |
| 2.2 | Davlat OTMlarida bir nafar to'lov kontrakt asosida talabani o'qitish sarflari, mln.so'm | 7.78 | 9.92 | 12.84 | 12.51 | 15.17 | 16.80 |

OTMlar jami sarflari va bir nafar ta'lim oluvchiga xarajatlar dinamikasini mamlakatimizdagi inflyatsiya darajasi bilan solishtiradigan bo'lsak, 2020-yildan boshqa yillarning barchasida ko'rsatkichlar yuqori bo'lganligini ko'rish mumkin (12-rasm). 2020-yildagi pasayishning sababi esa pandemiya bilan izohlanishini yuqorida ta'kidlab o'tdik.

Xarajatlarning yuqori sur'atlarda oshishida albatta ish haqlari dinamikasi yotadi. Davlat OTMlarida ham 2017-2019-yillar davomida OTMlarda ish haqlarini keskin oshirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilgan. Bu bo'yicha Prezident va Vazirlar Mahkamasi qarorlari qabul qilingan. Ammo so'nggi yillarda xarajatlarning jami va bir talabaga nisbatan miqdorlarining oshish sur'atlari nisbatan pasayganligini qayd etish mumkin. Masalaning muhim jihati shundan iboratki, oliy ta'limda davlat

---

[102] O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi Ijtimoiy sohalar iqtisodiyoti va moliyasi departamenti ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

ta’lim standarti talabalarining bajarilishi va ta’lim sifatini barqaror ushlash OTMlar xarajatlariga bevosita bosimni oshiruvchi omil hisoblanadi.




**12-rasm. O‘zbekistonda 2017-2022-yillarda oliy ta’lim muassasalarida jami xarajatlar va bir nafar talabani o‘qitish sarflari o‘zgarishi hamda inflyatsiya darajasi (oldingi yilga nisbatan foizda)[103]**

Xarajatlarning oshish sur’atlarini ma’muriy yo‘llar bilan cheklash bu borada salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Boshqa tomondan esa oliy ta’lim tizimida raqobatli muhit yuzaga kelishi va OTMlarga moliyaviy mustaqillik berish natijasida xarajatlarni belgilash nisbatan liberallashishi va buning natijasida ma’lum bir natijalar bilan ta’minlanmagan, asoslanmagan xarajatlar oshishi yuz berishi ham mumkin. Bundan holat esa butun dunyoda OTMlar va ushbu tizim uchun xavotirli deb baholanadi.

Oliy ta’limga talab va taklif ko‘rsatkichi va oliy ta’lim bilan qamrov darajasi ko‘rsatkichlarini, oliy ta’lim muassasalari tushumlari va ularga ajratilayotgan mablag‘lar dinamikasini, tarkibini va ularning o‘zgarishlarini tahlil qilish hamda bitta talabaga to‘g‘ri keluvchi xarajatlar ko‘rsatkichining dinamikasini kuzatish va ushbu ko‘rsatkichni inflyatsiya sur’atlari bilan solishtirish natijasida xulosa qilishimiz

[103] O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi Ijtimoiy sohalar iqtisodiyoti va moliyasi departamenti ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

mumkinki, O‘zbekistonda OTMlarni moliyalashtirishda ommaviy qamrov davri uchun butun dunyoda yuzaga kelayotgan xususiyatlar bizning mamlakatimiz uchun ham xosligini ko‘rishimiz mumkin. Zero, tahlillar natijasida ommaviylashuv davri uchun mos bo‘lgan moliyalashtirish talablarini ushbu tahlillar orqali belgilab olish va baholash masalaning asosiy jihati hisoblanadi. Ommaviylashuv orqali ekstensiv omillarning keskin ortishi natijasida davlat budjetiga bosim ko‘payishi va ularni yumshatishga qaratilgan moliyaviy siyosat uchun muhit yuzaga kelishi ushbu jarayonning asosiy xususiyati hisoblanadi (financial austerity in higher education system). So‘nggi yillarda mamlakatimizda ham oliy ta’lim tizimining ommaviylashuv davriga o‘tishi va ushbu jarayonlardan yuzaga keluvchi oqibatlar natijasida oliy ta’lim muassasalari tushumlari oshish sur’atidan xarajatlarning oshish sur’ati yuqoriligi kuzatildi (11 va 12-rasmlar). Bu esa tizimni ushbu xususiyat asosida tahlil qilish lozimligini ko‘rsatadi.

## 2.3. O‘zbekistondagi mavjud davlat oliy ta’lim muassasalarida “xarajatlar xastaligi” muammosi empirik tahlili

Oliy ta’lim muassasalarida “xarajatlar xastaligi” (cost disease) muammosining nazariy asoslari ilmiy ishning birinchi bobida ochib berildi. Ushbu masalaning muayyan tizim uchun tahlil qilish ko‘p jihatdan foydali hisoblanadi. Moliyalashtirish jarayonlarida ushbu omil asosida yondashuv quyidagi asoslarga ko‘ra foydali deb hisoblash mumkin:

1. “Xarajatlar xastaligi” omili tufayli oliy ta’lim muassasalarining umumiqtisodiy tashqi omillar asosida o‘rganish orqali tarmoq moliyalashtirilishi uchun asosiy yo‘nalishlarni baholash imkoniyatiga ega bo‘linadi. Umumiqtisodiy mehnat unumdorligi, o‘rtacha ish haqlari dinamikasi va inflyatsiya hamda ist’mol narxlari indeksi kabi ko‘rsatkichlar asosida oliy ta’lim ko‘rsatkichlarini baholash imkoniyati paydo bo‘ladi.

2. Oliy ta’lim muassasalarini barqaror moliyalashtirish maqsadlarida daromadlar taqchilligi va moliyaviy resurslarni jalb qilish bo‘yicha ishlab chiqilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlar belgilab olinishi imkoniyati bo‘ladi.

3. Oliy ta’lim xizmatlari narxlari dinamikasiga bevosita ta’sir etuvchi omillarni baholash imkoniyati paydo bo‘ladi.

Tadqiqotda O‘zbekistonda mavjud davlat oliy ta’lim muassasalari uchun “xarajatlar xastaligi” muammosi borasida quyidagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha empirik tahlillar o‘tkazish ko‘zda tutiladi:

1. Mehnat unumdorligi ko‘rsatkichlari o‘zgarishi borasida hisob-kitoblar;
2. Ish haqi ko‘rsatkichlari o‘zgarishi borasida hisob-kitoblar;
3. Narx ko‘rsatkichlari o‘zgarish borasida hisob-kitoblar;
4. Daromadlar taqchilligi ko‘rsatkichlari hisob-kitoblari;
5. Baumol indeksi hisob-kitoblari;
6. “Xarajatlar xastaligi” bo‘yicha ekonometrik model asosiy parametrlari hisob-kitoblari.

A.Ya.Rubinshteynning “Xarajatlar xastaligi” omili uchun Rossiya Federatsiyasidagi san’at va madaniyat sohasi tashkilotlari (konsert tashkilotlari,

muzey va ijro san’ati tashkilotlari) uchun ishlab chiqqan metodologiyasi[104] va ushbu metodologiya asosida Rossiya Oliy iqtisod maktabi vakillari bo‘lgan I.Abankina, T.Abankina, P.Derkachevlar tomonidan Rossiya Federatsiyasi oliy ta’lim muassasalari uchun 2000-2012-yillarda “Xarajatlar xastaligi” borasidagi ilmiy izlanishlar asosida[105] O‘zbekistonda mavjud davlat oliy ta’lim muassasalari uchun ushbu omilni tahlil qilishga harakat qilamiz. Metodologiyadagi asosiy maqsad oliy ta’lim muassasalari xarajatlariga bevosita ta’sir etuvchi mehnat unumdorligi, ish haqlari dinamikasi va narxlar o‘zgarishi kabi omillarni kompleks tahlil etish hisoblanadi. Ushbu omillar ekzogen omil sifatida o‘rganiladi hamda asosiy endogen ko‘rsatkich hisoblangan daromadlar taqchilligi ko‘rsatkichi tahlili orqali xarajatlarni moliyalashtirishni kompleks tahlil qilish bo‘yicha ekonometrik model shakllantirish ko‘zda tutiladi.

**Oliy ta’lim muassasalari mehnat unumdorligi ko‘rsatkichlari tahlili.** Baumol nazariyasida asosiy urg‘u berilgan jihat va ma’lum bir standartlashgan xizmatlar sohasida “xarajatlar xastaligi”ga olib keluvchi eng asosiy omil ushbu tarmoqlarda mehnat unumdorligining surunkali ortda qolishi yoki turg‘unlik (stagnatsiya) holatiga tushib qolishi hisoblanadi. Bu tashxisni olish maqsadida oliy ta’lim muassasalaridagi mehnat unumdorligini umumiqtisodiy mehnat unumdorligi bilan solishtirish lozim bo‘ladi. Bu yerda eng asosiy e’tibor berilishi lozim bo‘lgan jihat aynan mehnat unumdorligining oshish jadalligi deb qaraladi. Ya’ni umumiqtisodiy mehnat unumdorligining oshib borish sur’ati va oliy ta’lim muassasalari mehnat unumdorligining oshib borish sur’atini qiyoslash orqali tahlillarni amalga oshirish talab etiladi. Ushbu maqsadda mehnat unumdorligining nominal ko‘rsatkichlari aniqlanadi va ularni bazaviy davrga nisbatan oshish sur’ati hisob-kitob qilinadi.

[104] Рубинштейн А. Я. Опекаемые Блага В Сфере Культуры: Признаки И Последствия" Болезни Цен"[Patronized Goods in the Sphere of Culture:«Price Disease» Features and Effects] //Published Books. – 2012.
[105] Абанкина И. В., Абанкина Т. В., Деркачев П. В. Исследование" болезни издержек" в российском высшем образовании //Университетское управление: практика и анализ. – 2014. – №. 4-5 (92-93). – С. 52-65.

**16-jadval.**

**O‘zbekistonda 2017-2022-yillari davomida umumiqtisodiy o‘zgarishlar va davlat oliy ta’lim muassasalarida mehnat unumdorligiga tegishli ko‘rsatkichlar to‘g‘risida ma’lumot**[106]

| Ko‘rsatkichlar | 2017-y. | 2018-y. | 2019-y. | 2020-y. | 2021-y. | 2022-y. |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Yalpi ichki mahsulot (mlrd.so‘m) | 317 476 | 426 641 | 532 713 | 605 515 | 738 425 | 888 342 |
| Iqtisodiyotda band aholi soni (ming kishi) | 13 520 | 13 273 | 13 541 | 13 236 | 13 539 | 13 706 |
| Davlat OTMlari jami tushumlari (mlrd.so‘m) | 2 646 | 3 378 | 5 625 | 8 786 | 10 072 | 13 068 |
| Davlat OTMlari jami xodimlar soni (kishi) | 47 437 | 47 308 | 46 312 | 49 853 | 54 341 | 58 187 |
| *shundan:* | | | | | | |
| Professor-o‘qituvchilar soni (kishi) | 25 418 | 26 297 | 26 837 | 29 998 | 32 269 | 34 539 |
| Boshqa xodimlar soni (kishi) | 22 019 | 21 011 | 19 475 | 19 855 | 22 072 | 23 648 |

16-jadvalga asosan O‘zbekistonda 2017-2022-yillar davomida joriy YaIM o‘sishi 2.76 barobarni tashkil etgan bo‘lsa, davlat oliy ta’lim muassasalarida ushbu ko‘rsatkich 4 barobar oshganligini ko‘rish mumkin.




**13-rasm. 2017-2022yillarda davlat oliy ta’lim muassasalari va umumiqtisodiy mehnat unumdorligi o‘zgarishi (2017-yilga nisbatan)**[107]

Ushbu holatda davlat oliy ta’lim muassasalaridagi mehnat unumdorligi 2019-2020-yillarda ancha yuqori oshganligini guvohi bo‘lish mumkin (13-rasm). Ushbu

[106] O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi Ijtimoiy sohalar iqtisodiyoti va moliyasi departamenti va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.
[107] O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi Ijtimoiy sohalar iqtisodiyoti va moliyasi departamenti va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

yillarda qabulning keskin oshishi va elitar qamrov bosqichidan keyingi ommaviylashuv bosqichiga o‘tilish omili hamda 2020-yilda boshlangan pandemiyaning ta’siri bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Aynan ta’kidlangan bilvosita omillar ta’sirida oliy ta’lim muassasalarida unumdorlikning oshish sur’ati umumiqtisodiy ko‘rsatkichlardan ancha yuqori bo‘lishiga olib kelgan bo‘lish ehtimoli mavjud. Fikrimizga qo‘shimcha ravishda ta’kidlash mumkinki, so‘nggi ikki yilda davlat oliy ta’lim muassasalarining oldingi yillarga nisbatan olingan mehnat unumdorligi o‘sish sur’ati umumiqtisodiy o‘sish sur’atiga nisbatan pasayganligini qayd etish muhim (14-rasm).




**14-rasm. 2017-2022yillarda davlat oliy ta’lim muassasalari va umumiqtisodiy mehnat unumdorligi o‘zgarishi (oldingi yilga nisbatan)[108]**

Masalaning muhim jihati shundan iboratki, oliy ta’lim muassasalarining pulda ifodalangan mehnat unumdorligi ortida ma’lum bir resurs omilining o‘zgarish dinamikasini ham hisobga olgan holda tahlillar o‘tkazish maqsadga muvofiq. Chunki, oliy ta’lim muassasalarida o‘qituvchi/talaba va xodim/talaba nisbatlaridagi o‘zgarishlarning tahlili orqali mehnat unumdorligini ma’lum standartlarga mos holatda tekshirish Baumol xastaligining xufyona asoratlarini aniqlash imkonini beradi. Zero, ushbu holatda Baumol xastaligi omilining ma’lum bir asosiy resurs

[108] O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi Ijtimoiy sohalar iqtisodiyoti va moliyasi departamenti va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

sarfiga nisbatan o‘zgarishlar ta’sirida tashxislanishi teskari xulosalarga olib kelishi mumkin.

**17-jadval.**

**2017-2022-yillari davomida davlat oliy ta’lim muassasalarida o‘qituvchi/talaba va xodim/talaba ko‘rsatkichlari hisob-kitobi[109]**

| Ko‘rsatkichlar | 2017-y. | 2018-y. | 2019-y. | 2020-y. | 2021-y. | 2022-y. |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Davlat OTMlarida jami talabalar soni (ming kishi) | 265 | 302 | 356 | 445 | 602 | 789 |
| Koeffitsiyentlarni hisoblash uchun olingan kunduzgi ta’lim shakli ekvivalentidagi (KTSHE) talaba soni (ming kishi)* | 261 | 280 | 312 | 369 | 482 | 605 |
| Davlat OTMlari jami xodimlar soni (kishi) | 47 437 | 47 308 | 46 312 | 49 853 | 54 341 | 58 187 |
| *shundan:* | | | | | | |
| Professor-o‘qituvchilar soni (kishi) | 25 418 | 26 297 | 26 837 | 29 998 | 32 269 | 34 539 |
| Boshqa xodimlar soni (kishi) | 22 019 | 21 011 | 19 475 | 19 855 | 22 072 | 23 648 |
| O‘qituvchi/talaba koeffitsiyenti | 10.3 | 10.6 | 11.6 | 12.3 | 14.9 | 17.5 |
| Xodim/talaba koeffitsiyenti | 11.8 | 13.3 | 16.0 | 18.6 | 21.9 | 25.6 |

**Ushbu hisob-kitobda kechki ta’lim shaklidagi talabalar soni uchun 0.5 va sirtqi ta’lim shaklidagi talabalar soni uchun 0.3 koeffitsiyenti qo‘llash orqali hisoblangan.*

17-jadvalga ko‘ra, o‘qituvchi/talaba va xodim/talaba ko‘rsatkichlari tahlil qilinayotgan davr uchun oshib borganligini ko‘rishimiz mumkin. Albatta bunda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2021-yil 30-dekabrdagi 53-2021-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sohalari (ta’lim yo‘nalishlari) bo‘yicha bir nafar o‘qituvchi hisobiga to‘g‘ri keladigan talabalar soni nisbatining normativlari ham katta ta’sir ko‘rsatgan. So‘nggi yillarda ushbu nisbatning ortganligi aynan ushbu normativlar asosida bo‘lgan deyish mumkin. Aynan ushbu tendensiya oliy ta’lim muassasalari mehnat unumdorligiga ekstensiv ta’sir ko‘rsatgan deb hisoblash uchun mehnat unumdorligining pulda oshib borishi va tahlil qilingan nisbatlar o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘liqlikni hisoblashimiz mumkin. Ushbu korrelyatsiya koeffitsiyenti 0.91 ga teng bo‘lib, bunday kuchli bog‘liqlik fikrimizni to‘g‘riligini ko‘rsatadi.

[109] O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi Ijtimoiy sohalar iqtisodiyoti va moliyasi departamenti va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Ushbu tahlilda e’tibor berilishi lozim bo‘lgan asosiy jihat shundan iboratki, yillar davomida talabalar sonining oshish sur’atiga hamohang ravishda o‘qituvchilar va xodimlar sonining ham oshish sur’atlari qiyosiy tahlil qilinishi kerak bo‘ladi. Zero, o‘qituvchilar va xodimlar soni oshishining talabalar soni oshishidan surunkali ortda qolishi ta’lim sifatini shubha ostida qoldiradi. Bunda mehnat unumdorligi ta’lim sifatini “qurbon qilish” bilan ta’minlanishi kuzatilishi mumkin. Bunday holatda esa mehnat unumdorligini intensiv omillar bilan izohlab bo‘lmaydi va bu kelajakda vaqtinchalik berkitilgan oqibatlarni yuzaga chiqarishi mumkin.

**Oliy ta’lim muassasalarida ish haqi ko‘rsatkichlari o‘zgarishi borasida hisob-kitoblar.** Baumolning “xarajatlar xastaligi” konsepsiyasidagi yana bitta asosiy omil bu ish haqi ko‘rsatkichlari dinamikasi hisoblanadi. Bu mehnat unumdorligi omiliga bog‘liq bo‘lmagan holda ish haqlarining muttasil oshib borishi bilan tahlil qilinadi. Bu yerda ushbu tendensiyaning asosiy sababi tarmoqning boshqa sohalardan kam bo‘lmagan ish haqlarini belgilash orqali ishchi kuchi qo‘nimsizligini oldini olish uchun ko‘rilgan choralari deya baholanadi. Tarmoqning ishchi kuchi bozorida yetarlicha mehnat resurslarini jalb qilishga qaratilgan hatti-harakatlari natijasida tarmoqdagi ishchi kuchi mehnat unumdorligiga bog‘liq bo‘lmagan holda yuqori sur’atlarda oshib borishi yuz beradi. Ushbu asoratning yuzaga kelishi barqaror moliyalashtirish uchun to‘sqinlik qilishi tufayli oliy ta’lim muassasalarini ham ushbu omilga nisbatan tahlil qilib borish ko‘zda tutiladi. Mamlakatimizda davlat oliy ta’lim muassasalarida 2017-2019-yillar davomida professor-o‘qituvchilarning ish haqlarini sezilarli oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rildi. Bu bo‘yicha qarorlar qabul qilindi (18-jadval).

Aynan ushbu chora-tadbirlar natijasida 2017-yildan so‘ng ushbu sohadagi ish haqlari iqtisodiyot o‘rtacha ko‘rsatkichlaridan yuqori bo‘lishi kuzatildi. 2012-2022-yillar davomida davlat oliy ta’lim muassasalari nominal o‘rtacha ish haqlari o‘zgarishiga qaraydigan bo‘lsak, 2017-yildan so‘ng ish haqlari yuqori sur’atlarda oshganligini kuzatish mumkin.

**18-jadval.**

**2016-2020-yillar davomida O‘zbekiston davlat oliy ta’lim muassasalarida asosiy professor-o‘qituvchilar ish haqlarining o‘zgarishi (ming so‘mda)[110]**

| **Lavozimlar** | **01.09.2016 holatiga** | **01.09.2017 holatiga** | **01.09.2018 holatiga** | **01.09.2019 holatiga** | **01.09.2020 holatiga** |
|---|---|---|---|---|---|
| Assistent | 1493 | 1717 | 2410 | 4374 | 4680 |
| Katta o‘qituvchi | 1662 | 1911 | 2730 | 4955 | 5302 |
| Dotsent | 1748 | 2011 | 3130 | 5681 | 6079 |
| Professor | 1894 | 2178 | 3700 | 6716 | 7186 |

2012-yilga nisbatan o‘rtacha nominal ish haqlari oshish sur’atlariga qaraydigan bo‘lsak 2019-yildan boshlab ushbu sur’atlar umumiqtisodiy o‘rtachalardan oshganligini kuzatish mumkin (15-rasm). Ushbu davrda nominal o‘rtacha ish haqlarining oshishi oliy ta’limda deyarli 9 barobar bo‘lgan bo‘lsa, iqtisodiyotda ushbu ko‘rsatkich 7 barobardan ortiqroq bo‘lganligini qayd etish mumkin.




**15-rasm. 2012-2022yillarda davlat oliy ta’lim muassasalari, ta’lim sohasi va umumiqtisodiy nominal o‘rtacha ish haqlari o‘zgarishi (mln. so‘mda)[111]**

2018-yilgacha oliy ta’lim muassasalarida nominal o‘rtacha ish haqlari oshishi umumiqtisodiy sur’atlardan ortda qolganligini ko‘rish mumkin. Ammo 2018-yildan so‘ng ushbu ko‘rsatkich yuqori bo‘lganligini guvohi bo‘lishimiz mumkin. Bundan xulosa qilish mumkinki, aynan 2018-yildan so‘ng oliy ta’lim muassasalarida nominal

---

[110] O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi rasmiy sayti ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

[111] O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi Ijtimoiy sohalar iqtisodiyoti va moliyasi departamenti va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

o‘rtacha ish haqlari oshish dinamikasi Baumol nazariyasiga muvofiq bo‘lgan deyish mumkin. Masalaning boshqa jihati borki, unga ko‘ra ish haqlarining oldingi yilga nisbatan o‘zgarish sur’atlari ham tahlil etilishi lozim. Aynan ushbu jihat orqali Baumol indeksini hisoblash imkoniyatiga ega bo‘linadi.




**16-rasm. 2012-2022yillarda davlat oliy ta’lim muassasalari va umumiqtisodiy nominal o‘rtacha ish haqlari o‘zgarishi (2012-yilga nisbatan)[112]**

16-rasmga ko‘ra, 2017-yilgacha oliy ta’lim muassasalaridagi oldingi yilga nisbatan nominal o‘rtacha ish haqlari o‘zgarishi umumiqtisodiy oshish sur’atlaridan past bo‘lganligini ko‘rish mumkin. 2018-2019-yillar davomida ushbu ko‘rsatkich keskin oshgan bo‘lib, ushbu keskin o‘zgarishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-apreldagi “Respublika oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari xodimlarining mehnatiga haq to‘lash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3655-son qarori hamda 2018-yil 20-iyuldagi “Fan va oliy ta’lim sohasi xodimlarining mehnat haqi miqdorini yanada oshirish, ilmiy va ilmiy-texnik faoliyat natijalari joriy etilishini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3876-son qarorlari va bu asosida qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 15-avgustdagi 662-son qarorining ta’siri bo‘lgan deb hisoblash mumkin. Qaror bilan oliy ta’lim muassasalarining barcha xodimlari uchun

[112] O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi Ijtimoiy sohalar iqtisodiyoti va moliyasi departamenti va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

uch bosqichli (2018-yil 1-sentyabrdan, 2019-yil 1-yanvardan va 2019-yil 1-iyuldan) ish haqlarining bazaviy miqdorlarini oshirish bo‘yicha qaror qabul qilingan.




**17-rasm. 2012-2022yillarda davlat oliy ta’lim muassasalari va umumiqtisodiy nominal o‘rtacha ish haqlari o‘zgarishi (oldingi yilga nisbatan)[113]**

17-rasmga ko‘ra, OTMlarda oldingi yilga nisbatan ish haqlarining o‘zgarishini kuzatish mumkin. Unga ko‘ra 2018-yildan so‘ng ish haqlari dinamikasi oldingi yilga nisbatan ham umumiqtisodiy ko‘rsatkichlardan yuqori oshganligini qayd etish mumkin. Ushbu dinamkada ham tegishli qarorlarning bevosita ta’siri bo‘lgan degan xulosaga kelish mumkin.

**Oliy ta’lim muassasalarida narx ko‘rsatkichlari o‘zgarish borasida hisob-kitoblar.** Baumol nazariyasiga ko‘ra oliy ta’lim muassasasi xarajatlari o‘sishining narxlar oshish sur’atidan yuqori bo‘lishi ularda daromadlar taqchilligiga olib keladi va bu orqali ularni barqaror moliyalashtirish so‘roq ostida qolishi mumkin. Barqaror moliyalashtirish maqsadlarida narxlarni jadal sur’atlarda oshirish esa oliy ta’lim xizmatlarini olish imkoniyatlarini cheklashi mumkin. Ushbu ziddiyat ta’sirini baholash aynan mana shu maqsadda muhim hisoblanadi.

[113] O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi Ijtimoiy sohalar iqtisodiyoti va moliyasi departamenti va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

**1-toifa**

- Pedagogika, shu jumladan kasbiy ta'lim
- Gumanitar fanlar
- Matematika, amaliy matematika va informatika, tabiiy fanlar
- Sotsiologiya va psixologiya
- Jurnalistika va axborot
- Muhandislik ishi, ishlab chiqarish texnologiyalari
- Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi, qishloq xo‘jaligida menejment, qishloq xo‘jalik texnikasi, veterinariya, irrigatsiya va melioratsiya
- Ijtimoiy ta’minot
- Sport faoliyati
- Атроф муҳит муҳофазаси, ҳаётий фаолият хавфсизлиги

**2-toifa**

- Sharq filologiyasi, turkiy tillar filologiyasi, roman-german filologiyasi, tarjima nazariyasi va amaliyoti, o‘zbek-ingliz tarjima nazariyasi va amaliyoti
- Kompyuter texnologiyalari va informatika, aloqa va axborotlashtirish, telekommunikatsiya texnologiyalari
- Arxitektura va qurilish
- Xizmat ko‘rsatish sohasi

**3-toifa**

- San’at
- Arxitektura, qishloq hududlarini arxitektura-loyihaviy tashkil etish

**4-toifa**

- Iqtisod
- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida iqtisodiyot va menejment
- Sog‘liqni saqlash

**5-toifa**

- Jahon siyosati
- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar
- Huquq

**18-rasm. O‘zbekistonda davlat oliy ta’lim muassasalarida to‘lov shartnoma narxlarini belgilash maqsadlarida ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari toifalari**[114]

O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalarida mavjud ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklarini aynan narx belgilash maqsadlarida 5 ta toifaga ajratish mumkin (18-rasm). To‘lov-shartnoma narxlarini belgilash ushbu toifalar kesimida farqlanadi va ularni ushbu toifalar kesimida o‘zgarishini tahlil qilishimiz mumkin bo‘ladi.

[114] O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi rasmiy sayti ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

**19-jadval.**

**2016-2023-yillar davomida O‘zbekiston davlat oliy ta’lim muassasalarida stipendiyali to‘lov shartnoma narxlarining o‘zgarishi (ming so‘mda)**[115]

| Ta’lim yo‘nalish-lari va mutaxassis-liklari toifalari | Ta’lim shakli | 2016/2017 o‘quv yili | 2017/2018 o‘quv yili | 2018/2019 o‘quv yili | 2019/2020 o‘quv yili | 2020/2021 o‘quv yili | 2021/2022 o‘quv yili | 2022/2023 o‘quv yili |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **Bakalavriat** | | | | | | | | |
| 1-toifa | kunduzgi | 6 650 | 8 294 | 8 708 | 10 793 | 11 549 | 12 627 | 13 974 |
| | sirtqi | - | - | - | 6 349 | 6 793 | 7 473 | 7 473 |
| 2-toifa | kunduzgi | 7 250 | 8 478 | 8 902 | 11 428 | 12 228 | 13 307 | 14 796 |
| | sirtqi | - | - | - | 6 984 | 7 473 | 8 220 | 8 220 |
| 3-toifa | kunduzgi | 7 900 | 9 215 | 9 676 | 12 063 | 12 907 | 13 986 | 15 618 |
| | sirtqi | - | - | - | 7 619 | 8 152 | 8 967 | 8 967 |
| 4-toifa | kunduzgi | 8 800 | 10 137 | 10 643 | 13 333 | 14 266 | 15 345 | 17 262 |
| | sirtqi | - | - | - | 8 888 | 9 511 | 10 462 | 10 462 |
| 5-toifa | kunduzgi | 9 850 | 11 058 | 11 611 | 13 967 | 14 945 | 16 024 | 18 084 |
| | sirtqi | - | - | - | 9 523 | 10 190 | 11 209 | 11 209 |
| **Magistratura** | | | | | | | | |
| 1-toifa | | 7 210 | | 9 031 | 12 063 | 12 907 | 13 986 | 15 618 |
| 2-toifa | | 7 950 | | 9 399 | 12 698 | 13 587 | 14 665 | 16 440 |
| 3-toifa | | 8 730 | | 10 137 | 13 333 | 14 266 | 15 345 | 17 262 |
| 4-toifa | | 9 660 | | 11 242 | 14 602 | 15 625 | 16 703 | 18 906 |
| 5-toifa | | 10 830 | | 12 164 | 15 237 | 16 304 | 17 383 | 19 728 |

Narxlarni belgilashda 2019-yildan so‘ng stipendiyali va stipendiyasiz to‘lov shartnoma narxlari farqlanishi amalga kiritilgan. Shuningdek to‘lov shartnoma narxlari ta’lim bosqichlari, yo‘nalishlari va mutaxassisliklari, ta’lim shakllari kesimida farqlanadi. Bundan tashqari amalda belgilangan bazaviy shartnoma narxlaridan kelib chiqib aniqlanadigan tabaqalashtirilgan to‘lov-kontraktlari miqdorlari ham mavjud. 2016-2017 o‘quv yilidan boshlab bazaviy to‘lov-kontrakt narxlari bo‘yicha olingan tahlillarga ko‘ra oliy ta’lim muassasalarida faqat stipendiyali shaklda to‘laqonli dinamika kuzatilgan bo‘lib (19-jadval), stipendiyasiz

[115] O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi rasmiy sayti ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

to‘lov shartnoma narxlari so‘nggi uch yilda o‘zgarmaganligini ko‘rishimiz mumkin (20-jadval).

**20-jadval.**

**2019-2023-yillar davomida O‘zbekiston davlat oliy ta’lim muassasalarida stipendiyasiz to‘lov shartnoma narxlarining o‘zgarishi (ming so‘mda)[116]**

| Ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari toifalari | 2019/2020 o‘quv yili | 2020/2021 o‘quv yili | 2021/2022 o‘quv yili | 2022/2023 o‘quv yili |
|---|---|---|---|---|
| **bakalavriat** | | | | |
| 1-toifa | 5 993 | 6 413 | 6 413 | 6 413 |
| 2-toifa | 6 628 | 7 092 | 7 092 | 7 092 |
| 3-toifa | 7 263 | 7 771 | 7 771 | 7 771 |
| 4-toifa | 8 533 | 9 130 | 9 130 | 9 130 |
| 5-toifa | 9 167 | 9 809 | 9 809 | 9 809 |
| **magistratura** | | | | |
| 1-toifa | 7 263 | 7 771 | 7 771 | 7 771 |
| 2-toifa | 7 898 | 8 451 | 8 451 | 8 451 |
| 3-toifa | 8 533 | 9 130 | 9 130 | 9 130 |
| 4-toifa | 9 802 | 10 489 | 10 489 | 10 489 |
| 5-toifa | 10 437 | 11 168 | 11 168 | 11 168 |

Davlat oliy ta’lim muassasalarida to‘lov-kontrakt narxlarining o‘zgarish dinamikasini umumiqtisodiyotdagi inflyatsiya darajasi, iste’mol narxlari, tovar va xizmatlar narxlari o‘zgarish sur’atlari bilan solishtirsak, oliy ta’lim xizmatlarining bazaviy narxlari o‘sishi so‘nggi yillarda surunkali ortda qolayotganligini ko‘rishimiz mumkin (19-rasm). Baumol nazariyasiga ko‘ra odatda xarajatlarning mehnat unumdorligi oshish sur’atidan yuqori bo‘lishi muassasalarni narxlarni oshirish orqali ushbu taqchillikni qoplashga undaydi deb tushuntiriladi. Ya’ni muassasalarda daromadlarning mehnat unumdorligi oshishi bilan ta’minlanishi yuz bermasligi oqibatida ular ushbu tanqislikni narxlarni oshirish bilan kompensatsiyalashi kuzatiladi. Ammo masalaning ta’lim tarmog‘i uchun boshqa jihati ham mavjud. Narxlarning yuqori sur’atlarda oshirilishi ta’lim xizmatlarini olish imkoniyatlarini (accessibility) cheklashi mumkin. Bunday oqibatlarning oldini olish uchun ham ta’lim sohasidagi xizmatlar narxlarining aholi daromadlariga va ijtimoiy omillardan kelib chiqqan holda nazorat qilish ko‘zda tutiladi. Ayrim mamlakatlarda bunday

[116] O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi rasmiy sayti ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

narxlar oʻsishini monitoring qilib boruvchi regulyator va platformalar ham faoliyat yuritadi. Ammo Baumolning nazariyasiga koʻra bunday cheklovlar muassasalarning barqaror moliyalashtirilishini soʻroq ostiga qoʻyishi mumkin. Bu esa oʻz-oʻzidan kompensatsiyalanmagan narx oʻsishining oʻrnini bosuvchi muqobil moliyalashtirish manbalarining topilishini kun tartibiga qoʻyadi.




**19-rasm. 2017-2022-yillar davomida Oʻzbekistonda davlat oliy taʼlim muassasalarida toʻlov shartnoma narxlari va umumiqtisodiy narxlar oʻzgarish surʼatlari (oldingi yilning mos davriga nisbatan % da)[117]**

**Daromadlar taqchilligi koʻrsatkichlari hisob-kitoblari.** Baumol nazariyasi boʻyicha yuqorida biz “xarajatlar xastaligi”ni tushuntirishi mumkin boʻlgan uchta ekzogen omillarni koʻrib chiqdik. Ulardagi oʻzgarishlar va koʻrsatkichlarning natijalari oʻz-oʻzicha biror xulosa chiqarilishini taʼminlamaydi. Ushbu tahlilda tushuntiriluvchi endogen omil ham kiritilishi talab etiladi. Baumol nazariyasiga koʻra “xarajatlar xastaligi” mavjud tarmoqlardagi ushbu muammoning oqibatlaridan eng

[117] Oʻzbekiston Respublikasi Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi rasmiy sayti maʼlumotlari, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi maʼlumotlari ham Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki maʼlumotlari asosida muallif ishlanmasi.

asosiysi bu bir nafar xizmat ko‘rsatiluvchiga nisbatan daromadlarning oshish sur’ati xarajatlarning oshish sur’atidan ortda qolishiga olib keladi. Buning natijasida oshgan xarajatlarni qoplashda daromadlarning taqchilligi yuzaga keladi. Agar narxlarning mutanosib oshishi bilan ushbu taqchillik qoplanmasa yillar davomida ushbu muammo yig‘ilib boradi va tizimda surunkali moliyaviy taqchillik yuzaga kelishi mumkin. Shu ma’noda OTMlarda bir nafar talaba uchun daromadlarning o‘zgarish sur’atlarini va bir nafar talabaga nisbatan xarajatlarning oshish sur’atlarini tahlil qilishimiz kerak bo‘ladi.

**21-jadval.**

**2013-2022-yillar davomida O‘zbekiston davlat OTMlarida bir nafar talabaga daromadlar, xarajatlar hamda daromadlar ortiqligi va taqchilligi o‘zgarishi [118]**

| Yil | OTMlarda 1 nafar talabaga | | |
|---|---|---|---|
| | Daromadlarning ortishi (+) yoxud kamayishi (-) (% da) | Xarajatlarning ortishi (+) yoxud kamayishi (-) (% da) | Daromadlar ortiqligi (+) yoxud taqchilligi (-) (mln.so‘mda) |
| 2013 | 20.23 | 10.49 | -0.77 |
| 2014 | 6.02 | 8.47 | -0.95 |
| 2015 | 5.13 | 9.49 | -1.28 |
| 2016 | 25.92 | 5.01 | -0.17 |
| 2017 | 20.89 | 14.12 | 0.28 |
| 2018 | 15.86 | 22.53 | -0.23 |
| 2019 | 50.60 | 31.95 | 1.54 |
| 2020 | 14.29 | 1.15 | 3.51 |
| 2021 | -10.71 | 17.02 | -0.60 |
| 2022 | -0.94 | 12.04 | -2.63 |

2013-2022-yillar uchun davlat OTMlarida bir nafar talabaga nisbatan daromadlar va xarajatlar dinamikasi qaraydigan bo‘lsak[119], 2014-2015-yillarni hisobga olmaganda bitta talabaga daromadlar oshishi yaxshi ko‘rsatkichga ega bo‘lgan. Ammo so‘nggi yillarda ushbu ko‘rsatkich manfiy ko‘rinishga kelgani ayon bo‘lmoqda. 2013-2022-yillarda bir nafar talabaga nisbatan xarajatlarning doimiy musbat bo‘lishi fonida so‘nggi yillarda daromadlar taqchilligi masalasi keskin tus olayotgan bo‘lishi mumkin degan xulosaga kelish mumkin. Ushbu jarayonda

[118] O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi Ijtimoiy sohalar iqtisodiyoti va moliyasi departamenti va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

[119] Bu yerda tabaqalashtirilgan to‘lov shartnomalar bo‘yicha tushumlar hisobga olinmadi. Sababi ushbu daromadlar OTMlarning barqaror tushumlari manbasi hisoblanmaydi va tahlillarning sifatiga salbiy ta’sir qilishi mumkinligi hisobga olingan.

OTMlarning budjet subsidiyalari va tabaqalashtirilgan to‘lov shartnomalaridan tushumlarga moliyaviy bog‘lanishi kuzatilayotgan bo‘lishi mumkin degan xulosaga kelinishi mumkin.




**20-rasm. 2013-2022-yillar davomida O‘zbekistonda davlat OTMlarida bir nafar talabaga daromadlar va xarajatlarning o‘zgarish sur’atlari (oldingi yilning mos davriga nisbatan % da)[120]**

20-rasmga ko‘ra 2019-yilda to‘lov shartnoma narxlari oshirilishi va ish haqlarining uch bosqichli oshirilishi borasida qabul qilingan qarorlar natijasida bir nafar talabaga daromadlar ham xarajatlar ham yuqori sur’atlarda oshganligini ko‘rish mumkin. 2021-2022-yillar uchun xavotirli jihat shundan iboratki, ushbu davrda xarajatlarning oshish sur’atlari daromadlarning oshish sur’atlaridan yuqori bo‘lishi kuzatilmoqda. Bu albatta daromadlarning taqchilligiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

Bir nafar talabaga daromadlarning ortiqligi yoxud taqchilligi ko‘rsatkichlari tahlilidan ko‘rishimiz mumkinki (21-rasm), 2020 pandemiya yilidan boshqa davrlarda ushbu ko‘rsatkich taqchillikka moyil bo‘lgan. So‘nggi yillarda esa ushbu taqchillik keskin tus olayotganligini kuzatishimiz mumkin.

---

[120] O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi Ijtimoiy sohalar iqtisodiyoti va moliyasi departamenti va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.




**21-rasm. 2013-2022-yillar davomida O‘zbekistonda davlat OTMlarida bir nafar talabaga daromadlar ortiqligi va taqchilligi o‘zgarishi (mln.so‘mda)**[121]

**Baumol indeksi hisob-kitoblari.** Daromadlar taqchilligini yuqorida tahlil qilingan asosiy 3 ta omillar bilan tushuntirish va “xarajatlar xastaligi” (ayrim tadqiqotlarda “narx xastaligi”) muammosini tashxislash maqsadlarida ushbu omillar uchun maxsus indekslar kiritish taklif etiladi. Ushbu indekslarni hisoblash va ularning qiymatlarini tarmoq uchun ayrim xulosalar olish maqsadlarida ishlab chiqiladigan ekonometrik modelda qo‘llash nazarda tutiladi. Ushbu omillar, ya’ni oliy ta’lim muassasalarida mehnat unumdorligi oshishining umumiqtisodiy mehnat unumdorligi oshishi sur’atlari bilan hisoblash orqali o‘sish sur’atlarining ortda qolish omiliga tegishli Baumol indeksini hisoblash ($B_1$), oliy ta’lim muassasalarida ish haqlari oshish sur’atlari va umumiqtisodiy ish haqlari oshish sur’atlari bilan hisoblash orqali o‘sish sur’atlarining yuqoriligini tushuntiruvchi Baumol indeksi ($B_2$) hamda oliy ta’lim muassasalarida narxlar o‘zgarishini umumiqtisodiy narxlar va inflyatsiya darajasi bilan hisoblash orqali tushuntiruvchi Baumol indekslarini ($B_3$) hisoblash talab etiladi. Ushbu omillar ekonometrik model uchun ekzogen omil sifatida, ya’ni daromadlar taqchilligini tushuntiruvchi omil sifatida olinadi. Mos ravishda tushuntiriluvchi omil bo‘lgan daromadlar taqchilligi uchun ham Baumol indeksi (B) endogen omil sifatida hisob-kitob qilinishi nazarda tutiladi.

[121] O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi Ijtimoiy sohalar iqtisodiyoti va moliyasi departamenti va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Ushbu indekslarni hisoblash uchun oliy ta'lim muassasalarida joriy yilda ushbu ko'rsatkich o'zgarishini oldingi yilga nisbatan o'zgarishlarini aniqlash talab etiladi. Shuningdek ushbu hisob-kitoblar umumiqtisodiy ko'rsatkichlar uchun ham aynan mana shu tartibda amalga oshirish talab etiladi. Baumol indekslari quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$B_{HE}^{t+1}=(V_{HE}^{t+1} / V_{E}^{t+1} - V_{HE}^{t} / V_{E}^{t}) / (V_{HE}^{t} / V_{E}^{t})=[(V_{HE}^{t+1} / V_{E}^{t+1}) / (V_{HE}^{t} / V_{E}^{t})]-1 \quad (1)$$

Bu yerda: $B_{HE}^{t+1}$- joriy davr uchun aniqlangan Baumol indeksi, $V_{HE}^{t+1}$ – joriy davr uchun oliy ta'lim muassasalari uchun aniqlangan ko'rsatkichlarning o'zgarishi, $V_{E}^{t+1}$- joriy davr uchun umumiqtisodiyot uchun aniqlangan ko'rsatkichlarning o'zgarishi, $V_{HE}^{t}$ – o'tgan davr uchun oliy ta'lim muassasalari uchun aniqlangan ko'rsatkichlarning o'zgarishi, $V_{E}^{t}$ - o'tgan davr uchun umumiqtisodiyot uchun aniqlangan ko'rsatkichlarning o'zgarishi. Baumol indekslari musbat va manfiy oraliqqa tegishli ko'rsatkich bo'lib, oliy ta'lim muassasalari mehnat unumdorligi, ish haqlari va narx ko'rsatkichlarining oshish sur'atining umumiqtisodiyotdagi mehnat unumdorligi, ish haqlari va narxlar o'sishidan ortda qolishini yoxud oliy ta'lim muassasalari mehnat unumdorligi, ish haqlari va narxlar oshish sur'atining umumiqtisodiyotdagi mos ko'rsatkichlardan yuqori sur'atda oshishini ifodalaydi. Shuningdek daromadlar taqchilligi uchun hisoblangan Baumol indeksi mos ravishda joriy davr uchun bitta talabaga to'g'ri keluvchi daromadlar taqchilligi ko'rsatkichining oldingi yilga nisbatan o'zgarishi sifatida hisoblanadi.

Baumol jamlangan indeksining $B<0$ holati daromadlar taqchilligi ulushining kamayishini ("xarajatlar xastaligi" omili ta'sirining kamayishini) va $B>0$ holat esa daromadlar taqchilligi ulushining o'sishini ("xarajatlar xastaligi" omili ta'sirining kuchayishi) anglatadi. Endogen omil sifatida ushbu indeks tahlilida "xarajatlar xastaligi" omilining oliy ta'lim muassasalari barqaror moliyalashtirilishiga ta'sirini baholash imkoniyatiga ega bo'linadi.

**22-jadval.**

**Baumol indekslari uchun olingan ko‘rsatkichlar holatlari tavsifi**[122]

| Ko‘rsatkichlar | Holat | Tavsifi |
|---|---|---|
| Mehnat unumdorligi o‘zgarishi | $B_1>0$ | OTMlarda mehnat unumdorligining umumiqtisodiyotdagidan yuqori sur’atda oshishini anglatadi. |
| | $B_1<0$ | OTMlarda mehnat unumdorligining umumiqtisodiyotdagi oshish sur’atidan ortda qolishini anglatadi. |
| Ish haqlari o‘zgarishi | $B_2>0$ | OTMlarda ish haqlarining umumiqtisodiy ish haqi oshish sur’atlaridan yuqori bo‘lishini anglatadi. |
| | $B_2<0$ | OTMlarda ish haqlarining umumiqtisodiy ish haqi oshish sur’atlaridan ortda qolishini anglatadi. |
| Narxlar o‘zgarishi | $B_3>0$ | OTMlarda shartnoma narxlarining umumiqtisodiy narx o‘sish sur’atlaridan yuqori bo‘lishini anglatadi. |
| | $B_3<0$ | OTMlarda shartnoma narxlarining umumiqtisodiy narx o‘sishidan ortda qolishini anglatadi. |
| Daromadlar taqchilligi | $B<0$ | Daromadlar taqchilligi darajasining kamayishini anglatadi. |
| | $B>0$ | Daromadlar taqchilligi darajasining ortishini anglatadi. |

6-ilovaga ko‘ra 2013-2022-yillar uchun O‘zbekistonda davlat oliy ta’lim muassasalari uchun mehnat unumdorligi, ish haqlari, narxlar va daromadlar taqchilligi o‘zgarishi uchun xususiy va jamlangan Baumol indekslari hisob-kitob qilingan.

**“Xarajatlar xastaligi” bo‘yicha ekonometrik model asosiy parametrlari hisob-kitoblari.** Yuqorida Baumol nazariyasi asosida “xarajatlar xastaligi” muammosini ijtimoiy sohalar hisoblangan san’at va madaniyat sohasi subyektlari va Rossiya oliy ta’lim muassasalari uchun hisoblangan modellari haqida ma’lumot berildi. Ushbu modellarda ekzogen omillar hisoblangan Baumol indekslari asosida uch o‘lchovli indeks makonida ($I\ \{B_1; B_2; B_3\}$) endogen omil hisoblangan daromadlar taqchilligini ko‘rsatkichini tashxislash uchun ekonometrik model taklif etiladi. Uch o‘lchovli indekslarda eng avvalo mehnat unumdorligi va narx omillari asosida tushuntiriluvchi xarajatlar funksiyasi $Cost = f_1(B_1; B_2)$ kiritilishi kerak. Ikkinchi funksiya sifatida daromadlarni tushuntiruvchi $Income = f_2(B_1; B_3)$ bog‘liqligi

[122] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

kiritilishi kerak. Xarajatlarning oshgan qismini kompensatsiyalovchi funksiya sifatida narxlarning oshishi yoxud subsidiyalar hajmi bilan tushuntiriluvchi Cost = $f_3(B_3; Sub)$ bog‘liqlik ham kiritilishi lozim bo‘ladi. Albatta bu yerda subsidiyalar hajmi (Sub) taqchillikni ifodalashi kerak (Def), chunki subsidiyalarning asosiy maqsadi taqchillikni qoplashga qaratilgan bo‘ladi. Ushbu bog‘liqliklar zamirida $B = F(B_1; B_2; B_3; \xi)$ shaklidagi umumiy tenglama kiritilishi taklif etiladi. Aynan ushbu bog‘liqliklar asosida quyidagi umumiy ekonometrik model taklif etiladi.

$$B = \omega_0 + \omega_1 B_1 + \omega_2 B_2 + \omega_3 B_3 + \xi \qquad (2)$$

Bu yerda B – “xarajatlar xastaligi”ni ifodalovchi umumiy Baumol indeksini ko‘rsatadi, $B_1$, $B_2$, $B_3$ – mehnat unumdorligi, ish haqlari va narx uchun xususiy Baumol indekslari, $\omega_1$, $\omega_2$ ,$\omega_3$ – doimiy (o‘zgarmas) regressiya koeffitsiyenti, $\omega_0$ – o‘zgaruvchan regressiya koeffitsiyenti va $\xi$ - regressiyadagi xatolik.

O‘zgaruvchi bo‘lgan ekzogen omillar o‘rtasida korrelyatsion bog‘liqlikni tekshirib ko‘ramiz. 23-jadvalga ko‘ra ekzogen omillar hisoblangan mehnat unumdorligini ifodalovchi Baumol indeksi va narxlar o‘zgarishini ko‘rsatuvchi Baumol indekslari o‘rtasida nisbatan yuqori korrelyatsiya mavjudligi ko‘rindi. Ammo ularni qo‘llash borasida yakuniy ekonometrik model tahliliga qarab qaror qabul qilish mumkin bo‘ladi. Ya’ni $B_1$ indeksni modelda qoldirish yoki olib tashlash masalasida modellarni tahlil qilishda xulosaga kelishimiz mumkin.

**23-jadval.**

**O‘zgaruvchan (ekzogen) Baumol indekslari uchun olingan korrelyatsion matritsa[123]**

| | Ma’lumotlar | B1 | B2 | B3 |
|---|---|---|---|---|
| **B1** | Koeffitsiyent | 1,000 | 0,294 | 0,479 |
| | Ahamiyatlilik (Probibility) | n/a | 0,779 | 0,852 |
| **B2** | Koeffitsiyent | 0,294 | 1,000 | 0,080 |
| | Ahamiyatlilik (Probibility) | 0,779 | n/a | 0,675 |
| **B3** | Koeffitsiyent | 0,479 | 0,080 | 1,000 |
| | Ahamiyatlilik (Probibility) | 0,852 | 0,675 | n/a |

[123] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

2013-2022-yillar uchun 10 ta kuzatuvlar va 3 ta o‘zgaruvchilar tahlilidan quyidagi ikki model hisob-kitob qilindi:

$$B = -0.936 + 2.20B_1 – 16.40B_2 - 19.26B_3 \qquad [1\text{-model}]$$

$$B = -0.931 – 15.29B_2 - 17.05B_3 \qquad [2\text{-model}]$$

Modellarda mehnat unumdorligi o‘zgarishi orqali daromadlarni tushuntirish indeksi nisbatan ahamiyatsiz ekanligi aniqlandi. Sababi Baumol $B_1$ indeksi ishtirok etgan 1-model va ishtirok etmagan 2-model $R^2$ ko‘rsatkichlari orasida tafavvut uncha katta emas (1-model $R^2 = 0.730$ bo‘lsa, 2-model uchun $R^2 = 0.712$).

2-modelda o‘zgaruvchan regressiya koeffitsiyentlari uchun standart xatolik ham nisbatan kamayganligini ko‘rish mumkin. Shuningdek 2-modelimizda tartibga solingan (adjusted) $R^2$ ko‘rsatkichi ham 1-modelimizga nisbatan yaxshilanganligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi (24-jadval). Regression modelimizda barcha ko‘rsatkichlar 5 % darajadagi ahamiyatlilik bo‘yicha hisoblangan bo‘lib, avtokorrelyatsiya testi uchun Durbin-Vatson ko‘rsatkichi 1-model uchun 0.995 bo‘lgan bo‘lsa, 2-modelimiz uchun ushbu ko‘rsatkich 1.033 ga teng bo‘lgan. Ushbu ko‘rsatkichning 0 dan uzoqlashishi qancha yuqori bo‘lsa avtokorrelyatsiya past bo‘lishidan kelib chiqadigan bo‘lsak 2-modelda avtokorrelyatsiya ko‘rsatkichi pastroq bo‘lganligini xulosa qilishimiz mumkin.

**24-jadval.**

**Regression model asosiy ko‘rsatkichlari to‘g‘risida ma’lumot (o‘zgaruvchan koeffitsiyent uchun standart xatolik qavs ichida ko‘rsatilgan)[124]**

| Regressiya ko‘rsatkichlari | 1-model uchun* | 2-model uchun* |
|---|---|---|
| Baumol indeksi B1 | 2.20 (3.44) | - |
| Baumol indeksi B2 | -16.4 (5.91) | -15.29 (5.41) |
| Baumol indeksi B3 | -19.26 (7.21) | -17.05 (6.06) |
| Regressiya koeffitsiyenti (konstanta) | -0.936 | -0.931 |
| Kuzatuvlar soni | 10 | 10 |
| $R^2$ | 0.730 | 0.712 |
| Adjusted $R^2$ | 0.595 | 0.630 |

**ko‘rsatkichlarning ahamiyatliligi 5% darajada hisoblangan*

Hisob-kitob orqali aniqlangan regressiya modeli orqali 2013-2022-yillar uchun daromadlar taqchilligini ifodalovchi endogen, jamlangan Baumol indeksi (V) ning

[124] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

tanlangan model orqali qiymatlarini ushbu davr uchun tahlillar natijasida olingan qiymatlari bilan qiyoslash orqali modelning ishonchliligini tekshiramiz.




**22-rasm. 2013-2022-yillar davomida O‘zbekistonda davlat OTMlarida daromadlar taqchilligi bo‘yicha tahlil qilingan va olingan model asosida Baumol jamlangan indeksi o‘zgarishlari**[125]

7-ilovaga ko‘ra “xarajatlar xastaligi” muammosini tashxislash maqsadlarida o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalari keltirib o‘tilgan. Xususan, akademik A.Ya.Rubinshteyn tomonidan Rossiya Federatsiyasi san’at sohasi tashkilotlari va I.V.Abankina, T.V.Abankina, P.V.Derkachevlar tomonidan Rossiya Federatsiyasi oliy ta’lim muassasalari uchun o‘tkazgan tadqiqotlari asosida olingan ekonometrik modellar ma’lumotlari keltirib o‘tilgan. Rossiya oliy ta’lim muassasalari uchun taklif etilgan modelda narx o‘zgarishini belgilovchi Baumol indeksi modeldan chiqarib tashlangan. Bizning tadqiqotimizda esa tadqiq etilgan davr uchun mehnat unumdorligi bo‘yicha birinchi Baumol indeksi modelda o‘z aksini topmadi. Ammo 2-model asosida tekshirish mobaynida shu narsa ma’lum bo‘ldiki, so‘nggi yillarda tahlillar natijasida olingan daromadlar taqchilligini ifodalovchi umumiy Baumol indeksi uchun mehnat unumdorligi omili ham kiritilishi kerak. 2-model asosida olingan empirik ko‘rsatkichlar ushbu fikrimizni tasdiqladi. Agar 2021-2022-yillar davomida mehnat unumdorligi ko‘rsatkichlarining umumiqtisodiy ko‘rsatkichlar

[125] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

bilan olingan Baumol indeksida boshqa o‘zgaruvchilar bilan korrelyatsion bog‘liqlik kuchli bo‘lmasa, avtokorrelyatsiya ko‘rsatkichi maqsadga muvofiq bo‘lsa va modelda ahamiyatli bo‘lsa 1-modelga asoslanish ahamiyatli bo‘ladi deb xulosa qilish mumkin.

Kelajakda ushbu yo‘nalishda olib borilishi ko‘zda tutiladigan tadqiqotlarda quyidagilarga e’tibor berish taklif etiladi:

- kuzatuv uchun olinadigan davrni kengaytirish orqali “xarajatlar xastaligi”ni tushuntiruvchi omillarning dinamikasini sifatliroq va kengroq tahlil qilishni nazarda tutish;

- “xarajatlar xastaligi” muammosini nodavlat OTMlari uchun ham modellashtirish va bu orqali mamlakat OTMlarida ushbu muammoning kechishining qiyosiy tahlilini amalga oshirish orqali OTMlarni moliyalashtirishga tegishli tashqi omillarni baholash.

# III-BOB. O‘ZBEKISTONDA OLIY TA’LIM MUASSASALARI XARAJATLARINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

## 3.1. O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalari xarajatlarini moliyalashtirish muammolari

Butun dunyodagi yoxud alohida olingan mintaqa va davlatlardagi oliy ta’limning tadrijiy rivojlanish yo‘li tahlili shuni ko‘rsatadiki, mamlakatning oliy ta’lim tizimining rivojlanish davridagi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uni moliyalashtirishga yondashuv ham o‘zgacha bo‘ladi. 2017-2018-yillargacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston oliy ta’lim bilan qamrovning elitar yondashuvga xos bo‘lgan ko‘rsatkichlariga mos bo‘lgan, past qamrov darajasi asosida shakllangan, xususiy oliy ta’lim unsurlari mavjud bo‘lmagan oliy ta’lim tizimi amal qilgan. Aynan shundan keyin qamrov darajasining keskin oshishi, xususiy oliy ta’lim elementlari kirib kelishi va oliy ta’lim muassasalarining xususiyatlari o‘zgarishi borasidagi tub islohotlar davri boshlandi. Ushbu ikki davr o‘z xususiyatiga ko‘ra moliyalashtirishga yondashuv nuqtayi nazaridan va moliyalashtirishda kelib chiquvchi muammolar jihatidan ham keskin tafavvutlarga ega. Past qamrov va ommaviylashuv davrining o‘z xususiyatlari, ta’sir qiluvchi ekstensiv omillari farqli bo‘ladi va ushbu davrda talab va taklifning xususiyatlari ham o‘zgacha bo‘lishi kuzatiladi. Albatta ushbu davrlardagi kompleks muammolarni alohida tahlil qilish va ko‘rib chiqish, hamda moliyalashtirish muammolarini ularga hamohang ravishda o‘rganish to‘g‘ri bo‘ladi. Aynan shu maqsadda O‘zbekistondagi oliy ta’limni samarali moliyalashtirish borasidagi eng asosiy (birlamchi) masalalardan biri bu – ta’lim sohasidagi, xususan oliy ta’lim iqtisodiyoti sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning sifatini va qamrovini takomillashtirish va yuksaltirish hisoblanadi. Butun dunyoda, xususan MDH davlatlarida  ushbu yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlarni chuqur o‘rgangan holda ta’lim bo‘g‘inlarini moliyalashtirish xususiyatlarini ochib berish, empirik tahlillar asosida tashxislash va istiqbollash, hamda bu orqali islohot dasturlari ishlab chiqilishiga ko‘maklashuvchi infratuzilma shakllantirilishi masalasi asosiy muammo sifatida kun tartibiga qo‘yilishi kerak.

Mamlakat oliy tizimini barqaror moliyalashtirishning eng asosiy omillaridan biri bu albatta ta’limga qilinayotgan xarajatlarning iqtisodiy qaytim bilan to‘g‘ri bog‘lanishiga erishish orqali tashkil etilishi hisoblanadi. Ya’ni oliy ta’limga sarflangan mablag‘ va undan xususiy qaytim orasida “sog‘lom” bog‘liqlik bo‘lishiga erishish lozim bo‘ladi. Bu yerdagi asosiy adolatli mantiq shuki, daromadlarini oliy ta’lim orqali oshirilishiga erishgan mutaxassisning oshgan daromadlari oliy ta’limni moliyalashtirilishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi va qo‘llab-quvvatlovchi omil o‘laroq namoyon bo‘lishi kerak. Bu yerda masalaning konseptual jihati ham juda muhim bo‘lib, aynan shu jihatdan ta’limni ijtimoiy emas balki, iqtisodiy kategoriya sifatida qarash, uni iqtisodiy o‘sishning asosiy sababi (drayveri) hamda aholi turmush faravonligini va daromadlarini oshirishda asosiy omil deya tasniflash lozim bo‘ladi. Bundan tashqari, ishlab chiqarish omillari sifatida inson kapitalining o‘rnini ham anglash tubdan o‘zgarishi asosiy shartlardan biridir.

Aynan mana shu konseptual jihatlardagi muammolar zamirida ilgari quyi budjet tashkiloti va budjet jarayonlarining oddiy subyekti sifatida qaralgan oliy ta’lim tashkilotlari, oliy ta’lim oldiga qo‘yilayotgan vazifa va kutishlarga to‘liq javob bera olmasligi oydinlashmoqda.

Oliy ta’limga qilingan xarajatlarni iqtisodiy va ijtimoiy qaytim tahlillari asosida ta’limning barcha bo‘g‘inlari kesimida o‘rganish muammosini hal etish talab etiladi. Chunki, ta’limning barcha bo‘g‘inlariga sarf-xarajatlarning taqsimlanishida ularning birlamchi va ikkilamchi yondashuvi iqtisodiy va moliyaviy qaytim nuqtayi nazaridan farqlanishi ilmiy isbotlangan. Tahlillarga ko‘ra davlat moliyaviy resurslarni ijtimoiy va hususiy qaytim farqi katta bo‘lgan ta’lim bo‘g‘inlariga yo‘naltirishi kerak[126]. Aynan rivojlanayotgan davlatlarda ta’limning quyi bo‘g‘inlariga davlat moliyasining katta qismini yo‘naltirish ta’limning yuqori bo‘g‘inlariga nisbatan muhimligi empirik ma’lumotlar asosida o‘rganilgan. Tahlillarga ko‘ra ta’limning quyi bo‘g‘inlariga mablag‘larning yetarlicha yo‘naltirilishi ijtimoiy qaytimning ijobiy samarasini yuqori bo‘lishini ta’minlaydi. Natijada ta’limning xususiy qaytimi va ijtimoiy qaytimi

---

[126] Birdsall N. Public spending on higher education in developing countries: too much or too little? //Economics of Education Review. – 1996. – T. 15. – №. 4. – S. 407-419.

o‘rtasidagi tafavvut kamayadi. Aynan ushbu holat yuzaga kelishi natijasida ta’limning yuqori bo‘g‘inlariga mablag‘larni yo‘naltirish ularning samaradorligini oshirishi mumkin. Mamlakatimizda ham ta’limning quyi bo‘g‘inlarida moliyalashtirish masalasi samarali hal etilishi juda muhim va aynan shu orqali oliy ta’lim moliyasi samarasini ta’minlash imkoniyatlari yuzaga keladi.

Oliy ta’lim muassasalari xarajatlarini samarali moliyalashtirishdagi yana bir muhim muammolardan biri tizimda shakllanib ulgurmagan narx siyosatidir. Tizimda ekstensiv omillar hisobiga o‘sish sur’atlari resurs salohiyatining o‘sish sur’atlariga mos emasligi ziddiyati mavjudligi tahlillar jaryonida ko‘rib chiqildi. Bu yerda moliyaviy resurslar oshish sur’atlari narxlarning muvofiq darajada shakllanishini dolzarb masala sifatida qo‘yadi. Butun dunyoda oliy ta’lim uchun narx belgilashda yondashuv qanday bo‘lishi kerak degan masala ko‘p tadqiq qilingan. Birinchi qarashga ko‘ra narxlarning kiritilishi va ularni erkinlashtirish hamda dinamik bo‘lishi qabul va oliy ta’lim olish imkoniyatlarini cheklaydi deb hisoblasa, ikkinchi qarashga ko‘ra narxlarni o‘rnatish va ularni erkinlashtirishga nisbatan qabul va ta’lim olish imkoniyatlari deyarli ta’sirchan emas deb hisoblashadi[127]. Boshqa bir qarashga ko‘ra esa, oliy ta’limda narxlar erkin va dinamik bo‘lishi kerak va uning salbiy ta’sirlari talabalarga moliyaviy ko‘mak dasturlari yordamida isloh qilinishi (muvofiqlashtirilishi) kerak deb hisoblaydi[128]. Mamlakatimizda ham oliy ta’lim muassasalarida narx siyosati borasida aniq shakllangan tartiblar masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. So‘nggi yillarda bazaviy shartnoma narxlarining surunkali “muzlatib” qo‘yilishi oliy ta’lim muassasalari xarajatlarining kelajakda barqaror moliyalashtirish masalasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Chunki, narxlarning sarflar oshishini kompensatsiyalovchi (to‘ldiruvchi) funksiyasi amalga oshmas ekan, ikkinchi tomondan oliy ta’lim tizimi tomonidan davlat budjetiga fiskal bosim ortib borar ekan ta’lim berish jarayonining o‘rnatilgan standartlar asosida tashkil etilishi uchun barqaror resurslarni ta’minlash ziddiyatli ahvolga kelib qolishi mumkin.

---

[127] Levin B. Tuition fees and university accessibility //Canadian Public Policy/Analyse de Politiques. – 1990. – S. 51-59.

[128] Vossensteyn H., Canton E. Tuition fees and accessibility: the Australian HECS //Higher Education Reform: Getting the Incentive Right, The Hague. – 2001.

Shuningdek, tizimda keyinchalik to‘satdan keskin narxlar oshishiga olib boruvchi sabablar “pishib” borishi mumkin. Aholi real daromadlari oshish sur’atlarini hisobga olgan holda oliy ta’lim shartnoma narxlarini ham dinamik bo‘lishiga erishish lozim. Zero yillar davomida yig‘ilgan va amalga oshirilmagan indeksatsiyalash tartiblari kelajakda narxlarni keskin oshirishga majbur bo‘lish qaroriga olib kelishi mumkin. Mamlakatimizda ham bunday holat mavjudligini qayd etish mumkin (23-rasm).




**23-rasm. 2000-2022-yillar davomida O‘zbekistonda davlat oliy ta’lim muassasalarida to‘lov shartnoma narxlari va va aholi daromadlari o‘zgarish sur’atlari (oldingi yilning mos davriga nisbatan % da)[129]**

Narxlarni o‘rnatish va ularning miqdorlarini belgilashda xarajatlar tarkibi, ularni to‘lash bo‘yicha tartiblar va ta’lim dasturlari, OTMlar xususiyatlari, ilmiy salohiyati va yana bir qancha ichki va tashqi omillar ta’sirini hisobga olish muhim masala hisoblanadi. Zero, narxlarning ekzogen va endogen omillar ta’sirida shakllanishi hisobga olinmasa, tizimda nomutanosib va teskari natijalarga olib keluvchi narxlar shakllanib qolish xavfi paydo bo‘ladi. Bu masala ham tadqiq etilgan[130].

[129] O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi rasmiy sayti ma’lumotlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari ham O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

[130] Дмитриенко А. С. Факторы ценообразования в российских государственных вузах //Экономический журнал Высшей школы экономики. – 2021. – Т. 25. – №. 3. – С. 379-402.

Bundan tashqari narxlarni surunkali muzlatish natijasida oliy ta'limni muttasil subsidiyalash ham o'zining turli oqibatlariga ega. Ushbu muammolar Turkiya, Argentina, Rossiya, Tailand kabi bir qancha rivojlanayotgan davlatlar tajribasida qo'llanilgan va ularning oqibatlari ilmiy tadqiq etilgan[131,132,133,134]. OTMlarni davlat tomonidan subsidiyalash qanday shakl va tartiblarda bo'lmasin, ushbu jarayonda quyidagi jihatlarni albatta hisobga olishnishi muhim:

- Oliy ta'limga xususiy va davlat moliyasi ulushlarining to'g'ri proporsiyalarda shakllanib borishiga bog'liq bo'lgan oliy ta'limdan xususiy qaytim darajasi, oliy ta'lim olish sarflari, oliy ta'lim olishdan muqobil sarflar miqdorlari va oliy ta'lim xizmatlari ta'minlanishidan ijobiy samaralar (positive externalities) omillarining baholanishi;
- Oliy ta'limdan xususiy qaytim yuqori va nisbatan o'sib boruvchi yo'nalishlarni aniqlash, ijobiy samaralarga tegishli ko'rsatkichlar majmuasini shakllantirib olish (bu bo'yicha ko'pgina tadqiqotlar amalga oshirilgan);
- Jamiyatda oliy ma'lumotli mutaxassislarga bo'lgan talab va taklif miqdorlarini istiqbollash va mehnat bozori konyunkturasini baholovchi ko'rsatkichlar majmuasini ishlab chiqish;
- Ajratiladigan subsidiyalar samaradorligi va maqsadliligini baholovchi ko'rsatkichlarni joriy etish va h.z.

Shuningdek, bugungi kunda ko'pgina oliy ta'lim muassasalari moliyasida tabaqalashtirilgan to'lov-kontrakt shartnomalari asosida tushumlar ta'siriga bog'lanish holati kuchayib borayotganligi ham xavotirli belgilardan deb aytish mumkin. Ushbu tushum manbalari barqaror hisoblanmasligi va ta'lim sifati borasida ham muammolar keltirib chiqarishi hisobga olinsa, ushbu masalani ham uzoq muddatda OTMlarning tushum manbasi sifatida qarab bo'lmasligini anglatadi.

---

[131] Rozada M. G., Menendez A. Public university in Argentina: subsidizing the rich? //Economics of Education Review. – 2002. – T. 21. – №. 4. – S. 341-351.

[132] Caner A., Okten C. Higher education in Turkey: Subsidizing the rich or the poor? //Economics of Education Review. – 2013. – T. 35. – S. 75-92.

[133] Liu, Jin-Tan, Shin-Yi Chou, and Jin-Long Liu (2006), "Asymmetries in progression in higher education in Taiwan: Parental education and income effects", Economics of Education Review, 25, 647–658.

[134] Абанкина И. В., Абанкина Т. В., Филатова Л. М. Ловушки дифференциации в финансировании российских вузов //Russian Journal of Economics and Law. – 2016. – №. 2 (38). – С. 38-58.

Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlariga ishonch ortib borishi va tizimda raqobat muhiti kuchayib borishi oqibatida bunday tushumlarga ham bosim ortib boradi. Shunday ekan hozirda OTMlarning passiv tushumlari o'rnini bosuvchi tushum bo'lib turgan bunday tushumlarning o'rniga haqiqiy passiv tushumlar shakllantirilishi maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida keltirilgan omillar va ko'rsatkichlar asosida davlat budjeti orqali OTMlarni subsidiyalash masalasida ilmiy asoslangan va samarali dasturlar ishlab chiqilishi nazarda tutilishi kerak. Zero, OTMlarni hech qanday konkret ko'rsatkichlar va baholashlarsiz OTMlarning moliyaviy ahvoliga bog'langan holda ajratilishi oliy ta'limga moliyaviy resurslarning samaradorligi va maqsadliligini yomonlashtirishi mumkin. Bu esa tarmoqni davlat budjetining "qora tuynuk"iga aylantirib qo'yishi mumkin.

Oliy ta'lim muassasalarida samarali narx siyosati albatta samarali bo'lgan talabalarga moliyaviy ko'mak dasturlari bilan uyg'unlashtirilishi kerak. Talabalarga moliyaviy ko'mak dasturlari davlatning oliy ta'lim muassasalariga nisbatan olib boradigan moliyaviy siyosatida bilvosita mexanizm o'laroq namoyon bo'ladi. Butun dunyoda talabalarga moliyaviy ko'mak berishning keng tarqalgan quyidagi usullari mavjud:

a) davlatning budjeti orqali subsidiyalanadigan imtiyozli kreditlar berish orqali talabalarga moliyaviy ko'mak dasturlari;

b) OTMlarni tugatgan bitiruvchilar uchun maxsus soliq joriy etish orqali ularga joriy davr uchun moliyaviy ko'mak ajratishni nazarda tutuvchi dasturlar (graduate tax system (GT));

v) kelajakda olinadigan daromadlarga mutanosib ravishda to'lab beriladigan joriy moliyalashtirishni nazarda tutuvchi talabalarga moliyaviy ko'mak dasturlari (income contingency loans (ICL)); g) talabalarni to'g'ridan-to'g'ri grantlar berish orqali moliyalashtirishni nazarda tutuvchi moliyaviy ko'mak dasturlari.

Ushbu usullarning ko'pchiligi zamonaviy universal oliy ta'lim tizimlari uchun ishlab chiqilgan moliyaviy ko'mak dasturlari bo'lib, ommaviy oliy ta'lim olish bosqichi uchun to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy ko'mak ajratish va imtiyozli kreditlar

berish amaliyoti ko‘p uchraydi. Mamlakatimizda talabalarga moliyaviy ko‘mak dasturlarini optimallashtirish va ularning ma’murchiligi borasida ham turli muammolar mavjud. OTMlarda to‘g‘ri narx siyosatining shakllanishi albatta moliyaviy ko‘mak dasturlari samaradorligi bilan hamohang bo‘lishi kerak. Shunday bo‘lmasa OTMlarda surunkali debitor qarzlari ortib borishi, OTMlarning likvidligi yomonlashuvi va ulardan kelib chiquvchi oqibatlar OTMlarni barqaror moliyalashtirish masalasini so‘roq ostiga qo‘yishi mumkin. Shu tufayli ilmiy asoslangan va ijtimoiy adolat mezonlariga mos keluvchi hamda OTMlar va talabalarning to‘lovga qobilligini maksimal hisobga oluvchi dasturlar ishlab chiqilishi zarur. Zero butun dunyo tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, OTMlarni barqaror moliyalashtirishda xususiy manbalarning o‘rni keskin oshmoqda va shundan kelib chiqqan holda xususiy manbalardan moliyaviy resurslar oqimini tizimli va oqibatlarsiz tashkil etish davlat va mutassadi tuzilmalardan alohida yondashuvni talab etishi kuzatilmoqda. Aynan shu maqsadda mamlakatimizda ham talabalarga moliyaviy ko‘mak dasturlari bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar va samarali ishlovchi infratuzilma tashkil etilishi lozim.

OTMlar xarajatlarini samarali moliyalashtirishda eng asosiy yo‘nalishlardan biri bu ularning passiv tushum manbalarini tubdan yaxshilash ham hisoblanadi. Ko‘pchilik tadqiqotchilar ushbu masalani takror va takror ta’kidlashadiki, oliy ta’lim xizmatlari “ijtimoiy-ommaviy mahsulot” (public good)  o‘laroq doimo vasiylikka muxtoj soha deb qaralishi kerak. Oliy ta’lim xizmatlarini tijoratlashtirishni kuchli qo‘llab-quvvatlovchi dasturlarsiz (dastaklarsiz) rag‘batlantirish esa oliy ta’lim olish imkoniyatlarini (accessibility) keskin cheklashi tufayli ustuvor yo‘nalish sifatida qaralmaydi. Oliy ta’lim muassalari rivojlangan tizimlarning deyarli barchasida eng kuchli va barqaror OTMlar sifatida nodavlat (xususiy) notijorat OTMlari qayd etiladi[135,136]. Aynan ushbu OTMlarni moliyalashtirishning asosiy jihati bu ulardagi passiv tushumlarning yuqori va barqarorligi hisoblanadi. Endaument fondlari va vasiylik jamg‘armalari orqali tushumlar OTMlarni barqaror moliyalashtirishiga

[135] https://www.topuniversities.com/qs-world-university-rankings
[136] https://www.timeshighereducation.com/world-university-rankings/2023/world-ranking

salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi qabul kvotalari bajarilmasligi, narxlar siyosatidagi oqibatlar va surunkali likvidlik pasayishi bilan bog‘liq muammolarni ijobiy hal etishda muhim o‘rin egallaydi. Shunday ekan, O‘zbekistonda mavjud oliy ta’lim muassasalarida ham vasiylik va endoument fondlarining samarali faoliyatini yo‘lga qo‘yish masalasi hal etilishi kerak. Aynan ushbu institutlar OTMlarda yuzaga keladigan daromadlar taqchilligi muammosini ijobiy hal etilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ularni tashkil etilishidagi tashkiliy, huquqiy va iqtisodiy-moliyaviy chora-tadbirlarni belgilash va tizimli hal etish bir tomondan OTMlarning moliyaviy mustaqilligining ta’minlanishini kafolatlasa, boshqa tomondan davlat moliyasiga nisbatan fiskal bosimlarni ortishining oldini oladi.

O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalari sarflarini samarali moliyalashtirish borasidagi muhim yo‘nalishlardan biri bu oliy ta’lim tizimida nodavlat, xususiy sektorning barqaror va samarali faoliyatini ta’minlovchi huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy chora-tadbirlarning samarali joriy etilishi hisoblanadi. Zero, butun dunyoda resurslarning samarali ishlatilishida tizimda sog‘lom raqobat muhiti shakllanishi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ham nodavlat sektorni rivojlantirish va davlat-xususiy sherikchiligi asosida sohada sog‘lom raqobat muhitini yaratish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Ushbu islohotlar samarasi o‘laroq mamlakatimizda nodavlat oliy ta’lim muassasalari soni keskin oshishi kuzatildi. Ularga mos qonunchilik asoslari va ularni litsenziyalash tartiblari ishlab chiqildi. Ushbu nodavlat OTMlarning sarflari asosida davlat tomonidan o‘rnatilgan litsenziya talablaridan kelib chiquvchi resurs talablari yotadi. Ushbu talablarni hisobga olgan holda nodavlat oliy ta’lim tashkilotlari sarflari amalga oshirilishi amal qila boshladi. Masalaning muhim jihati shundan iboratki, ushbu qonunchilik talablari va litsenziyalash shartlarining nodavlat oliy ta’lim tashkilotlariga nisbatan moliyaviy yuki bir qancha jihatlarni yuzaga chiqardi. Jumladan:

- Nodavlat oliy ta’lim tashkilotlari tomonidan qonunchilik asosida belgilangan litsenziya talablarini bajarish borasidagi o‘rtacha xizmatlar tannarxini sezilarli darajada yuqori bo‘lishi kuzatildi.

- Ushbu talablar asosida xizmatlarning bevosita xarajatlarga nisbatan ko‘rsatkichlari ham shartnoma narxlarining yuqori bo‘lishini talab etishi ayon bo‘ldi.

- Oliy ta’lim bozorida to‘lovga qobillik va davlat oliy ta’lim muassasalari narxlari asosida shakllangan tarmoq shartnoma narxlari hamda qonunchilik talablari asosida kelib chiquvchi nodavlat sektor narxlar o‘rtasida yuqori tafavvutlar yuzaga keldi.

- Natijada ko‘pgina nodavlat oliy ta’lim tashkilotlarining litsenziya talablaridan chetga chiqib bo‘lsada, o‘z xarajatlarini va investorlarning normal foyda miqdorlarini ta’minlash hamda zararsizlik nuqtasiga erishishga harakatlari kuzatildi.

- Ko‘pgina nodavlat oliy ta’lim tashkilotlarida talabalar kontingenti va resurs salohiyati o‘rtasidagi nomuvofiqlik keskinlashuvi kuzatildi.

Yuqorida keltirilgan jarayonlar oliy ta’lim sifati va ma’lum standartlarni ta’minlash borasidagi talablarni so‘roq ostiga qo‘yish xavfini paydo qildi. Nisbatan yosh tarmoq hisoblangan oliy ta’lim tizimi tarkibidagi nodavlat oliy ta’lim sohasi uchun davlat moliyaviy ko‘mak dasturlari paketining ishlab chiqilishi orqali sohada muvozanatni tiklashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqilishi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Butun dunyo tajribasida nodavlat oliy ta’lim sohasi uchun davlatning bevosita va bilvosita dastaklari amal qiladi. Ular orqali tizimni muvozanatlashtirish va ta’lim standartlarini ta’minlash nazarda tutiladi. Bu yerda davlat, talabalar, investorlar va OTMlar o‘rtasida samarali ishlovchi tizimning qonuniy va tashkiliy tizimi amal qilishi nazarda tutilishi kerak.

Shuningdek, mamlakatimizda aholi tomonidan nodavlat oliy ta’lim tashkilotlariga bo‘lgan ishonch masalasida ham turli chora-tadbirlar ko‘rilishi kerak. Ushbu masalada ish beruvchilar va mehnat bozorining barcha ishtirokchilari o‘rtasida nodavlat oliy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilariga nisbatan ishonch va ijobiy baho berish kayfiyati shakllanishi juda muhimdir. Zero, nodavlat oliy tashkilotlariga nisbatan barqaror ishonch ta’minlanmas ekan, bu omil ushbu ta’lim tashkilotlarining mehnat bozoridagi muvaffaqiyati so‘roq ostida qolish xavfini paydo qiladi. Bu esa ushbu tarmoqning kelajakda qisqarib borishi va rivojlanmasligiga sabab bo‘lishi mumkin. Albatta ushbu holatda oliy ta’lim uchun belgilangan litsenziya talablarini

ba’zi nodavlat oliy ta’lim tashkilotlari tomonidan qo‘pol ravishda buzish hollari ham kuzatilmoqda. Ammo sohada samarali monitoring va nazorat mexanizmlari joriy etilmas ekan ushbu nisbatan yosh bo‘lgan tarmoqni qisqa fursatlarda samarali shakllanib borishi uchun uzoq vaqt talab etilishi va tarmoq rivojlanishi mavhum holatga kelib qolishi mumkin.




**24-rasm. O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalarini samarali moliyalashtirishni tashkil etishga tegishli muammolar**[137]

Shuningdek sohada davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish masalasida olib borilayotgan islohotlarni samarali yakuniga yetkazish va oliy ta’lim muassasalari boshqaruviga korporativ boshqaruv elementlarini joriy etish borasidagi masalalarning ijobiy hal etilishi kabi yo‘nalishlarni qo‘shish maqsadga muvofiq.

Qayd etilgan muammolar biri-birini to‘ldiruvchi yo‘nalishlar bo‘lib, ularning kompleks chora-tadbirlar asosida tizimli hal etilishi oliy ta’lim tizimini va uning asosiy qismi hisoblangan oliy ta’lim muassasalarini samarali moliyalashtirishni tashkil etishga imkon beradi.

[137] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

## 3.2. O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalari xarajatlarini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish yo‘llari

Tahlil etilgan muammolar asosida mamlakatimizda oliy ta’lim muassasalari xarajatlarini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirishga oid kompleks chora-tadbirlarni asoslashimiz mumkin bo‘ladi. Qayd etilganidek, eng avvalo oliy ta’limning barcha ta’lim tizimi bo‘g‘inlarining asosiy qismlaridan biri o‘laroq iqtisodiyotdagi o‘rni, aholining daromadlarini oshirishdagi imkoniyatlari va oliy ta’limga nisbatan xarajatlar qilishning konseptual va iqtisodiy asoslarini ishlab chiqish lozim. Butun dunyoda ta’limga yo‘naltiriladigan resurslarni xarajatlar emas, balki investitsiyalar deya baholash keng qabul qilinadi. Chunki, ta’limni moliyalashtirishning asosida iqtisodiyotni rivojlantiruvchi va aholi daromadlarini oshirishda muhim o‘rin tutuvchi inson kapitali nazariyasi turadi. Ushbu konsepsiyaning asosida esa bunday ta’limga sarflar ushbu kapitalni oshiruvchi va uni kengaytiruvchi sabab sifatida qabul qilinadi. Ammo ushbu konsepsiyaning har bir mamlakat va jamiyat uchun empirik asosi va ilmiy tadqiqotlar bilan asoslangan ko‘rsatkichlari majmui bo‘lishi kerak. Shu nuqtayi nazardan ushbu masalaga oid tadqiqotlarni ma’lum taksonomiya asosida kompleks o‘rganish lozim bo‘ladi. 8-ilovada oliy ta’lim muassasalarini samarali moliyalashtirishga tegishli olib borilishi lozim bo‘lgan ilmiy tadqiqotlar taksonomiyasi keltirilgan. Ushbu yo‘nalishlardagi tadqiqotlarni quyidagi jihatlarni hisobga olgan holda atroflicha o‘rganish oliy ta’lim muassasalariga xarajatlarni tashkil etish samaradorligini va yondashuvning sifatini oshirishi mumkin:

- har bir yo‘nalishga tegishli mamlakatimiz oliy ta’lim tizimining o‘ziga xos jihatlarini tadqiqotlarda hisobga olish;
- ushbu yo‘nalishlarda xorijiy davlatlarda olib borilgan tadqiqotlarni chuqur o‘rgangan holda, ulardan olinadigan xulosalar asosida tadqiqotlarni tashkil etish;
- tadqiqotlarda oliy ta’lim sohasiga tegishli davlat dasturlari va vazifalaridan kelib chiqqan holda yondashish va ularni ilmiy xulosalar bilan boyitish;
- ushbu tadqiqot yo‘nalishlarida tizimli va doimiy asosda ishlovchi kichik “maktab” tashkil etishni nazarda tutish.

Oliy ta’lim muassasalariga qilinadigan xarajatlarning iqtisodiy, tashkiliy va konseptual jihatlari ochib berilishi natijasida ushbu yo‘nalishda turli manbalardan (davlat va nodavlat sektorlardan) amalga oshirilgan sarflarning iqtisodiy mohiyatini ochib berishga va asoslanishiga erishiladi. Sohaga qilingan sarflarni kelajakda qaytimini baholash orqali OTMlarni samarali moliyalashtirish dasturlariga yondashish maqsadga muvofiq bo‘ladi[138].

Umuman olganda oliy ta’limga qilingan sarf-xarajatlarni ta’limning oldingi bosqichlaridan boshlab olingan daromadlar o‘sishi bilan tahlil qilish taklif etiladi (25-rasm). Oliy ta’limga qilingan sarf-xarajatlarni aynan ijobiy qaytim asosida baholash, har bir ta’lim bosqichidagi o‘zgarishlarining tahlil qilinishi orqali sohaga qilingan xarajatlarning o‘zini oqlash yoxud oqlamasligi to‘g‘risida ayrim hulosalarni chiqarish imkonini beradi. Ushbu ko‘rsatkichlarni baholash umumiqtisodiy nuqtayi nazardan davlat va hususiy mablag‘larning oliy ta’limga yo‘naltirilishi borasida qarorlar qabul qilish uchun juda muhim hisoblanadi. Ushbu tahlil uslubidan foydalanish oliy ta’limga yo‘naltirilgan mablag‘larni harajat yoxud sarflar deb emas balki investitsiyalar va sarmoyalar deya tasniflashni ko‘zda tutadi. Daromadlilikning va xususiy hamda ijtimoiy qaytimning yaxshi yoki yomon bo‘lishi oliy ta’limning o‘z vazifasini qanday bajarishi orqali yuzaga chiqadi degan yondashuv ushbu tahlillarning asosida turadi.

---

[138] Oliy ta’limga qilingan sarf-xarajatlardan kelajakdagi qaytimlarni hisoblashda asosan quyidagi ikki usul orqali aniqlash farqlanadi:
1-usul. Daromad funksiyasi usuli (earnings function method). ln Wi = α + βSi + γ1EXi + γ2EXi2 + εi
Bu yerda W - jismoniy shaxsning daromadi, S – ta’lim jarayonida o‘qigan yillar soni, EX – mehnat bozoridagi tajribasi. S – Maktabni boshlash yoshi. Ushbu funksiyada ta’lim yillari bo‘yicha β koeffitsiyenti qaysi ta’lim darajasidan qat’i nazar, qo‘shimcha bir yil o‘qishning o‘rtacha daromadlilik darajasi sifatida talqin qilinishi mumkin. Bu usul o‘tkazib yuborilgan daromadlar ta’lim uchun yagona xarajatlarni ifodalaydi va shuning uchun faqat shaxsiy daromad darajasini (private rate of return) o‘lchaydi, deb taxmin qiladi. Ushbu usul 1974-yilda Jeykob Minser tomonidan ishlab chiqilgan.
2-usul. Chegirma (diskontlash) usuli (discounting method).
Ushbu usulga ko‘ra, ma’lum bir ta’lim darajasiga investitsiyalarning ijtimoiy daromadlilik darajasi diskontlangan imtiyozlar oqimini ma’lum bir vaqtdagi xarajatlarga tenglashtiradigan chegirma stavkasini (r) topish yo‘li bilan baholanadi. Besh yil davom etadigan universitet ta’limida, diskontlash formulasi quyidagicha bo‘ladi:

$$\sum_{t=1}^{42} \frac{(W_u - W_s)}{(1+r)^t} = \sum_{t=1}^{5} (W_s + C_u)_t (1+r)^t$$

Bu yerda (W_u-W_s) – universitet bitiruvchisi (u – pastki belgisi) va o‘rta maktab bitiruvchisi (s – pastki belgisi) o‘rtasidagi daromad farqi. C_u universitet ta’limiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlarni (to‘lov-kontrakt summalari bo‘yicha xarajatlar, turar joy bo‘yicha xarajatlar, ovqatlanish va transport sarflari va boshqa tegishli sarflar), W_s esa talabaning oldindan ko‘rsatilgan daromadlarini yoki bilvosita xarajatlarini bildiradi. Xuddi shunday hisob-kitob boshqa ta’lim darajalari uchun ham amalga oshirilishi mumkin. Formulada to‘g‘ridan-to‘g‘ri maktabda o‘qish xarajatlarini o‘tkazib yuborish xususiy daromad darajasini keltirib chiqaradi.




**25-rasm. O‘rta maktab va oliy ta’lim bitiruvchilari daromadlari o‘zgarishi bo‘yicha yosh-daromad profili**[139]

Aynan oliy ta’limga qilingan sarflar bo‘yicha xususiy qaytim va ijtimoiy qaytim farqlari asosida oliy ta’lim sarflari asoslanadi. Aynan shu asosida oliy ta’lim xizmatlarini davlat moliyasi orqali subsidiyalashning maqsadga muvofiq yoki muvofiq emasligi kelib chiqadi. Ta’limning umumta’lim bosqichining davlat tomonidan to‘liq moliyalashtirilishi (subsidiyalanishi) butun dunyoda ilmiy asoslangan va ushbu masalada deyarli hech qanday ixtilof mavjud emas. Ammo oliy ta’limni davlat moliyasi orqali subsidiyalash yoki OTMlarga turli davlat budjeti manbalari orqali resurslarni yo‘naltirish bo‘yicha turli yondashuvlar mavjud. Bu esa tizimni tan olingan yakdil qarashlar asosida barqaror moliyalashtirilishini tashkil etishni birmuncha qiyinlashtiradi. Bu yerda oliy ta’lim xizmatlarini olish orqali mutaxassis bo‘lgan ta’lim oluvchining daromadlari oshirilishi nuqtayi nazaridan oliy ta’limni moliyalashtirish yukini xususiy manbalarga yuklash miqdorlari ko‘rib chiqilishi kerak. Agar mutaxassisni tayyorlashdan va uning faoliyatidan ijobiy qaytimlar yuqori bo‘lsa, ushbu holatda davlat moliyasi intervensiyasi maqsadga muvofiq bo‘lishi ta’kidlanadi. Ushbu muhim tezislarga asoslangan holda oliy ta’lim yo‘nalishlari (OTY), ularning kelajakda daromadlar oshishi (DO) imkoniyatlari,

[139] Johnes G., Johnes J. (ed.). International handbook on the economics of education. – Cheltenham^ eUKNorthampton UK : Edward Elgar, 2004. – S. 613-627. – maqola asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

ta'limga to'g'ridan to'g'ri (TTS) va muqobil sarflar (MS) hamda ijobiy qaytimlar (IQ) holatiga mos bo'lgan subsidiyalash rejimlari (SR) ishlab chiqilishi lozim. Ushbu omillarning holatiga qarab davlatning subsidiyalash siyosati, oliy ta'lim hizmatlariga narx belgilash hamda xarajatlarning qaysi qismini xususiy manbalar hisobiga qoplash kerakligi aniqlanadi. Aynan omillar holatiga mos bo'lgan xarajatlarni moliyalashtirish tartiblari matritsasini ishlab chiqish mumkin (9-ilova). Bu orqali OTMlarni moliyalashtirishning keng qamrovli yondashuvlarini tashkil etish imkoniyatiga ega bo'linadi. Umuman olganda ushbu omillar holatidan kelib chiqqan holda oliy ta'lim muassasalariga subsidiyalar hajmi quyidagi qoidaga asosan shakllantirilishi kerak:

$$Sub = TC+O-W_p \qquad (3)$$

Bu yerda: Sub – subsidiyalar hajmi, TC – to'g'ridan-to'g'ri sarflar (shartnoma narxlari va ta'lim olishga tegishli boshqa sarflar), O – muqobil sarflar (yo'qotilgan yoxud boy berilgan daromadlar), $W_p$ – oliy ta'lim olishdan so'ng daromadlar oshish ko'rsatkichlari.

Davlat moliyasining OTMlarni subsidiyalash rejimlarini muayyan ta'lim yo'nalishiga nisbatan qo'llash holatini ko'rib chiqamiz. Oliy ta'lim sohasida pedagog kadrlar tayyorlash bo'yicha ta'lim yo'nalishlarini ishlab chiqilgan subsidiyalash rejimlari asosida tahlil qilib ko'ramiz. 2023-yilning 1-choragi yakunlari bo'yicha mamlakatimizda maktabgacha va maktab ta'limi yo'nalishida o'rtacha ish haqlari ko'rsatkichlari mos ravishda 1 621.2 ming so'm va 2 951.7 ming so'm bo'lgan (25-jadval). Bu iqtisodiyot o'rtachasidan juda past ko'rsatkich bo'lib, yillar davomida olingan dinamika ham ushbu ko'rsatkichning yetarli sur'atda oshmaganligini ko'rsatmoqda.

**25-jadval.**

**O‘zbekistonda 2023-yil 1-choragi yakunlari bo‘yicha sohalar bo‘yicha o‘rtacha nominal ish haqlari ko‘rsatkichlari[140]**

| Klassifikator | 2023-yil 1-choragi yakunlari (so‘mda) |
|---|---|
| Moliyaviy va sug‘urta faoliyati | 11 043 141,20 |
| Axborot va aloqa | 9 500 180,00 |
| Tog‘-kon sanoati va konlarni ishlash | 7 686 430,40 |
| Tashish va saqlash | 6 197 771,70 |
| Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash | 6 000 314,90 |
| Davlat boshqaruvi va mudofaa, majburiy ijtimoiy ta’minot | 5 739 567,70 |
| Professional,ilmiy va texnik faoliyat | 5 034 271,40 |
| Ishlab chiqarish sanoati | 4 889 478,30 |
| Qurilish sohasi | 4 877 182,20 |
| Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari | 4 543 147,00 |
| Boshqa turdagi xizmatlar ko‘rsatish | 3 938 647,60 |
| Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 3 581 362,10 |
| San’at, ko‘ngil ochish va dam olish | 3 461 737,40 |
| Boshqarish bo‘yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko‘rsatish | 2 945 340,20 |
| Ta’lim o‘rtachasi | 2 925 848,90 |
| Shu jumladan: Oliy ta’lim | 6 887 800.00 |
| Texnik va professional ta’lim | 2 930 400.00 |
| Umumiy o‘rta ta’lim (maktab ta’limi) | 2 951 700.00 |
| Maktabgacha ta’lim | 1 621 200.00 |
| Ko‘chmas mulk bilan operatsiyalar | 2 807 379,60 |
| Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish | 2 731 278,20 |
| Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish | 2 693 902,30 |
| Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi | 2 482 342,50 |

Aynan mana shu ko‘rsatkichlar asosida pedagogika ta’lim yo‘nalishlari uchun to‘lov shartnoma asosida narx belgilash va subsidiyalash siyosati ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq. Unga ko‘ra pedagogika ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha oliy ma’lumotli kadrlarni tayyorlash davlat moliyasiga o‘tkazilishi maqsadga muvofiq. Chunki ushbu ta’lim yo‘nalishining moliyalashtirilishida $DO < TTS+MS$ va $IQ > 0$ holati yuzaga kelmoqda va aynan pedagog kadrlarning tayyorlanishidan ijtimoiy ijobiy qaytimlar juda yuqoriligi ma’lum. Shu asosida pedagog kadrlarni tayyorlash davlat moliyasiga o‘tkazilishi maqsadga muvofiq deb hisoblash mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son “Pedagogik ta’lim

[140] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori 3-bandiga ko‘ra o‘qishga qabul qilishda shakllantiriladigan davlat buyurtmasi parametrlarida ehtiyojdan kelib chiqqan holda pedagogik ta’lim yo‘nalishlari uchun ajratiladigan davlat granti asosidagi qabul ko‘rsatkichlari miqdorini bosqichma-bosqich oshirib borish choralarini ko‘rish belgilandi. Bu albatta pedagogika sohasiga layoqatli yoshlarni jalb qilishga ijobiy turtki berishi kerak. Ammo masalaning boshqa tomoni borki, unga ko‘ra pedagoglarning o‘rtacha daromadlari kamida iqtisodiyot sohasining o‘rtacha ko‘rsatkichlaridan yuqori bo‘lishiga qisqa muddatlarda erishilishi kerak. 2018-2019-yillarda oliy ta’lim sohasida ish haqlarini sezilarli oshishi kuzatilganidek, ta’limning quyi bo‘g‘inlarida ham bunday o‘zgarishlar bo‘lishi juda muhim. Chunki bu orqali iqtidorli yoshlarning ushbu mutaxssislikka nisbatan daromadlar kutilmalari yaxshilanadi va maktab ta’limi kadrlar zahirasini sifat jihatidan yangi bosqichga chiqishini ta’minlaydi.

Oliy ta’lim muassasalari xarajatlarini moliyalashtirishda narxlarni shakllantirish borasida to‘lov kontrakt narxlarida xususiy manbalar salmog‘ini oshirish hisobiga xarajatlar qoplanishini yaxshilash nazarda tutilishi kerak. Bunda ham eng kamida quyidagi jihatlar hisobga olinishi kerak:

- oliy ta’limda o‘qituvchi/talaba va xodim/talaba nisbatlarini hisobga oluvchi to‘g‘ri (bevosita) xarajatlarni hisobga olish;
- to‘lov shartnoma narxlari dinamik bo‘lishiga erishish. Ularning surunkali muzlatishning salbiy oqibatlari hisobga olinishi kerak;
- shartnoma narxlarida talab va taklif holati hisobga olinishiga erishish va ta’lim bozoriga nisbatan narxlarning ta’sirchanligini ta’minlash kerak;
- narxlar oliy ta’lim muassasalari tomonidan raqobat muhitini va samaradorlik ko‘rsatkichlarini ta’minlovchi omillardan biriga aylanishiga erishish lozim.

Davlat buyurtmasi asosida va to‘lov shartnoma asosida amal qiluvchi shartnoma narxlari bo‘yicha dinamikani kuzatadigan bo‘lsak, davlat buyurtmasi asosida tushumlar dinamikasi nisbatan yaxshi ta’minlanganligini ko‘rish mumkin (26-rasm). Zero, ikki usulda hisoblangan bir talabaga to‘lovlarning tarkibida davlat

buyurtmasi to‘lovlarida to‘g‘ri xarajatlar yetarlicha hisobga olinganligini qayd etish mumkin. To‘lov-kontrakt asosida tahsil olayotgan shartnoma narxlarida ham to‘g‘ri sarflarni yetarlicha hisobga olish maqsadga muvofiqdir.




**26-rasm. 2017-2022-yillarda davlat granti va to‘lov-kontrakt asosida tahsil olayotgan bir nafar talabadan tushumlar dinamikasi (mln.so‘mda)[141].**

Narxlarda xususiy manbalar hisobidan qoplanishi lozim xarajatlarning asosiy turi bo‘lgan ish haqi va unga yaqin sarflarda vazirlikning 2021-yil 30-dekabrdagi 53-2021-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sohalari (ta’lim yo‘nalishlari) bo‘yicha bir nafar o‘qituvchi hisobiga to‘g‘ri keladigan talabalar soni nisbatining normativlari va hisob-kitob uchun olinadigan o‘qituvchi toifasining ish haqlariga nisbatan narxlarning ta’sirchanligini ta’minlash nazarda tutilishi taklif etiladi (10-ilova). Narxlarni aynan to‘g‘ri xarajatlarga nisbatan ta’sirchanligini ta’minlash ta’lim yo‘nalishlari uchun o‘qituvchilar normativlarini hisobga olish va ta’lim yo‘nalishlaridan marja miqdorlarini aniqlash imkonini beradi. Normativlar asosida aniqlanadigan narxlarda 3,4,5,9 va 10-bloklar bo‘yicha ta’lim soha hamda yo‘nalishlari uchun mavjud narxlar juda pastligi ko‘rinmoqda. Bu yerda asosiy e’tiborli jihat shundan iboratki, yuqori talabga ega ta’lim yo‘nalishlarida mavjud narxlar aniqlangan narxlardan ancha yuqoriligini ko‘rish mumkin. Nisbatan pastroq

[141] O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi Ijtimoiy sohalar iqtisodiyoti va moliyasi departamenti ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

talabga ega yo‘nalishlarda esa buning teskarisini ko‘rish mumkin. Demak, narxlarni belgilashda ushbu jihat ham hisobga olinishi kerak. Bunda talab darajasi va oliy ta’lim muassasalari xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ma’lum koeffitsiyentlar qo‘llash mumkin. Bu yerda tizim uchun ikki holatni ta’kidlash maqsadga muvofiq:

Birinchidan, agar tizim to‘liq davlat moliyasi tamoyillari asosida markazlashgan holda moliyalashtirilishi nazarda tutilsa, narxlarni barcha ta’lim yo‘nalishlarida to‘liq o‘z hisobidan moliyalashtiriluvchi va subsidiyalanuvchi yo‘nalishlarga mos ravishda moliyalashtirish tashkil etilishi mumkin.

Ikkinchidan, to‘liq moliyaviy mustaqillik berilgan oliy ta’lim muassasalarida esa yuqori talab mavjud va past talab mavjud bo‘lgan ta’lim yo‘nalishlarini nisbatan yuqori marja hisobiga qoplanishi nazarda tutilishi maqsadga muvofiqdir.

Ammo hamisha narxlarning yuqori chegarasi ma’muriy dastaklar orqali nazorat qilinishi lozim. Shuningdek, narxlarning dinamikasi, asoslanishi va ularni samarali moliyalashtirish tizimli hal etib borilishi kerak. Oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida sog‘lom raqobat muhiti shakllanishi va talab-taklif qoidalarining samarali ishlashi natijasida narxlarning maqsadga muvofiq shakllanishiga erishib borishi kutilishi mumkin. Zero, to‘lov-kontrakt narxlari xarajatlar va ma’lum bir standartlarga asoslangan holda shakllanmas va kiritilmas ekan, oliy ta’lim muassasalarining tashqi muhit va tizim “chaqiriqlari”ga nisbatan ta’sirchanligi (responsiveness) pasayib borishi va oliy ta’lim muassasalari tushumlari masalasini boshi berk ko‘chaga kiritib qo‘yishi mumkin.

Asoslangan narxlarning joriy etilishi barobarida ularga mos bo‘lgan talabalarga moliyaviy ko‘mak dasturlari borasidagi islohotlar ham takomillashtirib borilishi kerak. Bunda eng avvalo mamlakatda samarali ishlovchi va ijtimoiy jihatlarni hisobga oluvchi talabalarga moliyaviy ko‘mak dasturlari tashkil etilishi lozim. Talabalarga moliyaviy ko‘mak berish masalasi alohida tadqiqot obyekti hisoblanadi. Chunki bunda moliyaviy ko‘mak ko‘rinishi, uning ma’murchiligi, berilish maqsadlari, shakllari va shartlari borasida turli yondashuv va amaliyotlarni tahlil qilgan holda mamlakatimiz oliy ta’lim tizimi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yondashish talab etiladi. Ammo bu borada quyidagi yo‘nalishlarda ko‘mak dasturlarini

kengaytirish mamlakatimizda oliy ta’lim bilan ommaviy qamrov davri uchun juda muhim deb hisoblash mumkin:

- mamlakatimizda akademik iqtidori yuqori bo‘lgan qatlamning yuqori darajadagi moliyaviy ko‘mak olish imkoniyati ta’minlanishiga erishish kerak. Bunda grantlar berish amaliyoti nafaqat davlatning markazlashgan buyurtma institutlari orqali balkim, oliy ta’lim muassasalarining o‘zlari, yirik davlat tashkilotlari, institutsional donorlar va xalqaro institutlar tomonidan ham keng joriy etilishiga erishish lozim;
- moliyaviy ko‘mak dasturlarining asosiy ko‘rinishi bo‘lgan va xalqaro amaliyotda keng joriy etiladigan talabalarga foizsiz qarz berish amaliyotini keng miqyosda kiritish lozim. Bunda qarzlar bo‘yicha resurs hajmi va ularning qamrovi oliy ta’lim bozori va umuman OTMlar tushumlariga nisbatan mutanosib bo‘lishi kerak;
- talabalarga moliyaviy ko‘mak dasturlari ma’murchiligini tubdan yaxshilash lozim. Bunda hozirda tijorat banklari va OTMlar orqali amal qilayotgan tartiblar va qarzlarni qaytarish amaliyoti bo‘yicha tranzaksion sarflarni kamaytirish va resurslarning maqsadlilik asosida targetlash masalasini kuchaytirish nazarda tutilishi kerak.

Oliy ta’lim muassasalari xarajatlarini moliyalashtirishni barqarorlashtirish va tubdan yaxshilashda ularning passiv tushumlarini oshirish bo‘yicha ham chora-tadbirlar ishlab chiqilishi lozim. Albatta bunday islohotlar OTMlarga chin ma’noda moliyaviy mustaqillik berilishi va ularning boshqaruvida korporativ boshqaruv elementlari joriy etilgandan so‘ng yanada dolzarblik kasb eta boshlaydi. Aynan shu nuqtayi nazardan OTMlarning moliyaviy mustaqilligi va ularda boshqaruvning samarali usullari joriy etilishi borasida boshlangan islohotlar yakuniga yetkazilishi kerak. Oliy ta’lim muassasalarida passiv tushumlarni jonlantirish maqsadida ularning tadbirkorlik faoliyati, ilmiy izlanmalar va turli jamoat fondlari tashkil etish orqali mablag‘larni jalb qilish imkoniyatlari kengaytirilishi lozim. Bunda OTMlar va tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri moliyalashtirish uchun ko‘mak loyihalari joriy etilishi yaxshi samara berishi mumkin. Endoument fondlar shaklidagi

jamoat fondlari, kraudfanding jamg‘armalari, vasiylik hamda vaqf jamg‘armalari kabi maqsadli jamg‘armalar faoliyati ham ommaviy qamrov davri talablariga mutanosib ravishda tashkil etilishi talab etiladi. Ularning qonuniy, tashkiliy va iqtisodiy samaradorlik nuqtayi nazaridan faoliyati yo‘lga qo‘yilishi lozim bo‘ladi.

Oliy ta’lim muassasalarining daromadlar taqchilligi muammosini optimal yumshatish hamda ularni oqibatlarsiz hal etishda ularning passiv tushumlar orqali istiqbollash bizningcha maqsadga muvofiq bo‘lishi mumkin. Bunda passiv tushumlar yo‘nalishlari borasida quyidagilar nazarda tutilishi kerak:

- *homiylik mablag‘lari (HM)* – bunda vasiylik organlari, filantrop shaxslar, OTM bitiruvchilari tomonidan ajratmalar kabi homiylik yo‘nalishlarining shakllantirilishi va bu orqali daromadlar taqchilligini yumshatishi ko‘zda tutilishi kerak;

- *ilmiy-tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish natijasida olingan mablag‘lar (ITNTM)* – ushbu tushumlar masalasida so‘ngi vaqtlarda qabul qilingan Universitet 3.0 tashabbuslari orqali “tadbirkor universitet” konsepsiyasining joriy qilinishi va bu orqali daromadlar taqchilligini yumshatishi ko‘zda tutilishi kerak;

- *maqsadli kapital va boshqa mablag‘lar hisobiga moliyalashtiriladigan endaument jamg‘armalari (MK)* – ushbu jamg‘armalar OTMlarning passiv daromadlarini tizimli shakllantirish amalga oshirilishi va bu orqali daromadlar taqchilligini yumshatishi ko‘zda tutilishi kerak.

Yuqoridagi passiv tushumlar yo‘nalishlaridan kelib chiqqan holda istiqbollash modelini homiylik va ilmiy-tadqiqot natijalarini tijoratlashtirishdan tushgan, maqsadli kapital va boshqa mablag‘lar hisobiga moliyalashtiriladigan endaument jamg‘armalarini kiritish orqali takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Bunda, $B_4$ – passiv tushumlarning oldingi yil (lar) ga nisbatan o‘zgarishini ifodalovchi (kompensatsion) Baumol indeksini kiritish orqali quyidagi ko‘rinishga keltirish mumkin bo‘ladi:

$$B = \omega_0 + \omega_1 B_1 + \omega_2 B_2 + \omega_3 B_3 + + \omega_4 B_4 + \xi \qquad (4)$$

Ushbu ekzogen omilning kiritilishi OTMlarning daromadlar taqchilligini baholash hamda ularning o‘zini-o‘zi moliyalashtirish imkoniyatlarini istiqbollash modelini takomillashtirishi mumkin.

Istiqbollash modelini homiylik va ilmiy-tadqiqot natijalarini tijoratlashtirishdan tushgan, maqsadli kapital va boshqa mablag‘lar hisobiga moliyalashtiriladigan endaument jamg‘armalarini kiritish orqali takomillashtirish maqsadida daromadlar taqchilligining oldingi yillarga nisbatan o‘zgarishi va passiv tushumlarning oldingi yillarga nisbatan o‘zgarishi nisbatlarining dinamikasi asosida $B_4$ – Baumol indeksini 2013-2022-yillar uchun hisoblagan holda modelga kiritib ko‘ramiz va model sifatini solishtirib ko‘ramiz (26-jadval).

**26-jadval.**

**Regression model asosiy ko‘rsatkichlari to‘g‘risida ma’lumot (o‘zgaruvchan koeffitsiyent uchun standart xatolik qavs ichida ko‘rsatilgan)[142]**

| Regressiya ko‘rsatkichlari | 1-model uchun* | 2-model uchun* | Takomillashtirilgan model uchun |
|---|---|---|---|
| Baumol indeksi B1 | 2.20 (3.44) | - | 1.37 (2.90) |
| Baumol indeksi B2 | -16.4 (5.91) | -15.29 (5.41) | -11.99 (5.45) |
| Baumol indeksi B3 | -19.26 (7.21) | -17.05 (6.06) | -19.19 (6.04) |
| Baumol indeksi B4 | - | - | -0.12 (0.06) |
| Regressiya koeffitsiyenti (konstanta) | -0.936 | -0.931 | -1.365 |
| Kuzatuvlar soni | 10 | 10 | 10 |
| $R^2$ | 0.730 | 0.712 | 0.847 |
| Adjusted $R^2$ | 0.595 | 0.630 | 0.725 |

**ko‘rsatkichlarning ahamiyatliligi 5% darajada hisoblangan*

26-jadvalga ko‘ra modelni homiylik va ilmiy-tadqiqot natijalarini tijoratlashtirishdan tushgan, maqsadli kapital va boshqa mablag‘lar hisobiga moliyalashtiriladigan endaument jamg‘armalarini kiritish orqali uning daromadlar taqchilligiga nisbatan tushuntirish imkoniyatlari ancha yaxshilanganini ko‘rishimiz mumkin.

Kelajakda albatta daromadlar taqchilligi muammosini samarali hal etish ko‘p jihatdan OTMlarning passiv tushumlari orqali yumshatilishi borasida yetarlicha

[142] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

chora-tadbirlar ishlab chiqish zarurligini ta'kidlash o'rinlidir. Bu borada tegishli tashkiliy, qonuniy va moliyaviy dasturlar ishlab chiqqan holda islohotlar o'tkazish taklif etiladi.

Oliy ta'lim muassasalari xarajatlarini moliyalashtirishda nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yish ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda nodavlat oliy ta'lim institutlari faoliyatini samarali joriy qilish quyidagi asoslarga ko'ra oliy ta'lim tizimi xarajatlarini moliyalashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin:

- oliy ta'lim xizmatlari sohasida sog'lom raqobat muhiti shakllanishiga turtki bo'ladi va tarmoqda moliyaviy resurslar ishlatilishi samaradorligini yaxshilaydi;
- sohaga xususiy manbalardan moliyaviy resurslarning jalb qilinishi ta'minlaydi hamda tarmoq diversifikatsiyasi masalasi ijobiy hal etilishiga erishiladi;
- oliy ta'lim sifati va xizmat ko'rsatish sifati yaxshilanishiga erishiladi. Shuningdek, talabalar va o'zaro manfaatdor tomonlar hohishiga mos bo'lgan ta'lim sifatiga erishish imkoniyatlari yaxshilanadi;
- oliy ta'lim sohasida innovatsiyalar va xalqaro tajribalarning o'zlashtirilishiga tegishli ijobiy muhit shakllanishiga erishiladi.

Aynan shu ko'rinishdagi afzalliklar nodavlat oliy ta'lim institutlariga nisbatan davlat tomonidan mutanosib bevosita va bilvosita qo'llab-quvvatlash dasturlari joriy etilishi dolzarb masala sifatida qo'yadi. Bunda eng avvalo oliy ta'lim xizmatlarini tashkil etishga tegishli litsenziya talablari puxta va samarali ishlab chiqilishi, tadbiq etilishi talab etiladi. Ushbu yo'nalishda ularga imtiyozlar berish, moliyaviy va investitsion ko'mak berish dasturlari hamda ularni nazorat qilish ma'murchiligi nazarda tutilishi kerak.

Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari uchun litsenziya talablarini ishlab chiqilishida ushbu talablarning moliyaviy yukini ham hisobga olish muhim masala hisoblanadi. Buning uchun tarmoq uchun o'rnatilgan standartlar asosida hisoblangan o'rtacha ko'rsatkichlar topilishi kerak. Chunki "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning 3-moddasiga ko'ra davlat ta'lim muassasalariga ham nodavlat ta'lim tashkilotlariga ham davlat ta'lim standartlariga va davlat ta'lim talablariga muvofiq ta'lim berish talabi

qo‘yilgan. Nodavlat oliy ta’lim tashkilotlari va davlat oliy ta’lim muassasalarining ushbu standartlarni ta’minlash uchun moliyaviy imkoniyatlari hisobga olinmasligi natijasida bir xil soha va mutaxassisliklar uchun aynan bir xil standart va talablar uchun turli xil tannarx shakllanishiga zamin yaratiladi. Natijada nodavlat va davlat muassasalaridagi moliyalashtirish jarayonlariga bilvosita ta’sirlar yuzaga keladi. Misol uchun iqtisodiyot ta’lim sohalarini ushbu tahlil yuzasidan solishtiradigan bo‘lsak, davlat oliy ta’lim muassasalarida sohadagi o‘rtacha ish haqlari bo‘yicha eng quyi talablar bo‘yicha o‘qituvchilarga to‘g‘ri sarflar 3.9 mln so‘mni tashkil etadi. Nodavlat ta’lim tashkilotlari uchun esa eng quyi talab bo‘yicha hisoblangan bunday sarflar taxminan 5.8 mln so‘mni tashkil etadi. Bu esa ushbu ta’lim yo‘nalishidagi farqlar 1.5 barobarni tashkil qilishini anglatadi. Taklif qilinadigan tartib shunday bo‘lishi kerakki, u qonunchilik bilan o‘rnatilgan standartlarni ta’minlashi ham kerak va bir yo‘la tarmoqdagi sog‘lom raqobat muhitiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatmasligi kerak. Zero, oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining asosiy maqsadlaridan biri sohada sog‘lom raqobat muhitining bo‘lishiga erishish hisoblanadi.

Keltirilgan takliflarni amalga oshirish bo‘yicha tizimlashtirilgan tahlillar ushbu takliflarni u yoki bu shaklda joriy etilishi orqali muntazam tahlil qilib borilishi lozim (monitoring qilish). Ushbu takliflar kompleks qo‘llanilishi orqali istiqbolda ijobiy ta’sirlar kuzatilishi mumkin. Zero, oliy ta’lim tizimini barqaror moliyalashtirish bir necha ichki va tashqi omillarning samarali ishlashi va jamiyatda ta’limning boshqa bo‘g‘inlari holati hamda davlat organlarining ish faoliyati natijasida u yoki bu shaklda ta’sirlanishi mumkin. Mamlakatimizda boshlangan oliy ta’lim olishning yangi ommaviylashuv bosqichida ham oliy ta’lim muassasalarini samarali moliyalashtirish jamiyatdagi barcha tarmoqlar bilan uyg‘unlikda rivojlanib borishi ko‘zlangan maqsadga erishishni ta’minlashi mumkin.

# XULOSA

So‘nggi besh yillikda mamlakatimizda oliy ta’lim olishning yangi ommaviylashuv davri boshlanganligini guvohi bo‘lmoqdamiz. Ushbu davr o‘z xususiyatlariga ko‘ra mustaqillik yillaridan so‘ng uzoq vaqt davom etgan oliy ta’lim olishning past qamrovli elitar yondashuv davridan ko‘p jihatdan farqlanuvchi bosqich hisoblanadi. Elitar yondashuv davrida oliy ta’lim olish o‘ziga xos ijtimoiy imtiyoz o‘laroq namoyon bo‘lgan bo‘lsa, ommaviylashuv davrida ushbu oliy ta’lim olish bosqichi rag‘batlantiriluvchi huquq o‘laroq namoyon bo‘lganligini qayd etish mumkin. Aynan shu jihatlarni hisobga olgan holda ommaviylashuv davrida oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirish ham o‘ziga xos xususiyatlarni namoyon qiladi. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda oliy ta’lim sohasida yuz bergan o‘zgarishlar va olib borilgan islohotlar natijasida butun dunyoda ommaviylashuv davrida kuzatilgan turli jihatlar bizning yurtimiz uchun ham o‘rinli ekanligi tahlillar natijasida ma’lum bo‘ldi. Ommaviylashuv davrida oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishda duch kelinadigan muammolar va ularning yuzaga chiqish omillari ilmiy nazariy qarashlar va olib borilgan keng qamrovli tadqiqotlar natijasi bilan solishtirish orqali o‘rganildi. Solishtiruvlar va empirik tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, mamlakatimizda boshlangan oliy ta’lim olishning ommaviylashuv davrida quyidagi jihatlar kuzatilayotganligini xulosa qilishimiz mumkin:

- Mamlakatimizda oliy ta’lim olish qamrovining oshib borishi natijasida oliy ta’lim muassasalari va talabalar kontingenti oshib borishi kuzatilmoqda. Boshqacha qilib aytganda oliy ta’lim muassasalari soni va talabalar soni oshishi natijasida oliy ta’limni *moliyalashtirishga bosim ortib borayotganligini* xulosa qilish mumkin;
- Mamlakatimizda oliy ta’lim muassasalarining *tushumlari oshib borishi, ularning tarkibi va qamrovning oshish sur’atiga tushumlar oshishining mutanosibligi borasida* ham moliyalashtirish jarayoniga tegishli *xavotirli dinamika mavjudligini* xulosa qilish mumkin. Bunda talabalar kontingenti oshish sur’atlari va tushumlarning oshib borish sur’atlarining nomutanosibligini qayd etish o‘rinlidir;

- Oliy ta’lim muassasalari *jami xarajatlari va bir nafar talabani o‘qitish sarflari borasida* ham ularning yildan yilga oshib borish sur’atlari *mamlakatdagi inflyatsiya darajasidan yuqoriligi* tendensiyasi mavjudligini xulosa qilishimiz mumkin;

- Mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalarida yuqorida qayd etilgan tendensiyalar mavjudligini xulosa qilgan holda ularda *moliyaviy tejamkorlik va iqtisod qilish muhitiga moyillik shakllanib borayotganligini* xulosa qilishimiz mumkin. Bunda OTMlarning ko‘p vazifali subyektlar ekanligini hisobga olsak, ularda o‘z vazifalarini to‘laqonli bajarish uchun resurslarni jalb qilish imkoniyatlari cheklanishi muammosi yuzaga kelishi mumkin.

Tadqiqot ishining ikkinchi bob ikkinchi bo‘limida olib borilgan empirik tahlillar natijasida xulosa qilishimiz mumkinki, oliy ta’lim muassasalari xarajatlarini moliyalashtirishda oliy ta’limning ommaviylashuv davriga xos elementlar hisobga olinishi talab etiladi. Bunda xarajatlarni shakllanishi, ularni qoplash manbalari, talabalarga moliyaviy ko‘mak dasturlari qamrovi hamda oliy ta’limni davlat tomonidan moliyalashtirish siyosati ham aynan ushbu o‘zgarishlarga hamohang ravishda shakllanib borishi talab etiladi. Butun dunyoda ommaviylashuv davriga xos bo‘lgan va oliy ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirishda e’tibor berish talab etiladigan hamda mamlakatimiz uchun ham o‘rinli bo‘lgan quyidagi yo‘nalishlarni qayd etish mumkin:

*Birinchidan,* mamlakatimizda kuchli moliyaviy tejamkorlik va iqtisod muhitini taqazo etuvchi tashqi omillar hisoblangan OTMlar va talabalar soni, qamrov darajasi, tushumlar o‘zgarishi va ularning tarkibi, jami xarajatlar va bir nafar talabani o‘qitish sarflari kabi ko‘rsatkichlar dinamikasi tabaro ommaviylashuv bosqichi oqibatlarini paydo qilmoqda;

*Ikkinchidan,* ommaviylashuv davrida OTMlar hajmi, xarajatlarga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillar tasnifi hamda ularning o‘zgarishi ham ushbu davrga xos bo‘lgan xususiyatlarni namoyon qilmoqda. Bunday xususiyatlarga OTMlarda mehnat unumdorligi, ularda narxlar shakllanishi, umumiqtisodiy va OTMlardagi ish haqi

dinamikasi hamda OTMlarda tannarx shakllanishiga tegishli koʻrsatkichlar kabilarni kiritish mumkin;

*Uchinchidan,* OTMlarning tushumlari, ularning oʻzgarishi, tarkibi hamda ularning passiv tushumlari manbalarining shakllanishi kabi yoʻnalishlarda yuz berayotgan oʻzgarishlar. Ushbu yoʻnalishda OTMlarning oʻqitish, ilmiy va tadbirkorlik faoliyatiga qaratilgan tushumlar koʻrsatkichlari dinamikasidan kelib chiqib xulosalar amalga oshirilishi nazarda tutiladi;

*Toʻrtinchidan,* OTMlarning davlat moliyasi, institutsional donorlar va homiylar mablagʻlari hisobidan moliyalashtirish zaruriyatlarining dolzarblashuvi. Bunda oliy ta'limning doimiy vasiylikka muxtoj "ijtimoiy mahsulot" oʻlaroq namoyon boʻlishi nazarda tutiladi;

*Beshinchidan,* talabalarga moliyaviy koʻmak dasturlarining ahamiyati ortib borishi va ularning ham kuchli qoʻllab-quvvatlov hamda islohotlar natijasida ommaviylashib borishi nazarda tutiladi;

*Oltinchidan,* oliy ta'lim sarflarining moliyalashtirish manbalaridagi qayta taqsimotning yuzaga chiqishi. Ilgari nisbatan davlat moliyasiga tayanilgan moliyalashtirish manbalarining bosqichma-bosqich talaba va uning homiylari tomon "siljishi" kuzatilishi bilan xarakterlanadi.

Yuqorida keltirib oʻtilgan xulosalar mamlakatimizda soʻnggi yillarda kuzatilayotgan ommaviylashuv davrida oliy ta'lim muassasalari xarajatlarni moliyalashtirishning asosiy xususiyatlarini ochib beradi. Mavjud ilmiy nazariy qarashlar, xorijiy davlatlar oliy ta'lim muassasalarining moliyalashtirish tajribasini oʻrganish natijasida mamlakatimiz uchun ham ushbu jihatlar empirik tadqiqotlar asosida tahlil qilindi. Tahlillar natijasida OTMlarni moliyalashtirishda e'tibor berilishi lozim boʻlgan hamda ilmiy nazariy qarashlar asosida shakllantirilgan konseptual modelga tayangan holda tahlillar oʻtkazish talab etilar edi. Shunga koʻra 2013-2022-yillar (10 yil) uchun mamlakatimizda davlat oliy ta'lim muassasalari uchun "xarajatlar xastaligi" muammosining oʻrinli yoki oʻrinli emasligi hamda namoyon boʻlish xususiyatlari tahlili amalga oshirildi. Ilmiy qarashlarda ushbu tahlillar OTMlarni moliyalashtirishning tashqi omillarga asoslangan xususiyatlarini

ochib berishi hisobga olingan holda tahlillar amalga oshirildi. Ushbu omilning nazariy asoslari va turdosh sohalarda namoyon bo‘lishi borasida olib borilgan empirik tahlillar asosida mamlakatimiz OTMlarida myehnat unumdorligi ko‘rsatkichlari o‘zgarishi borasida hisob-kitoblar, ish haqi ko‘rsatkichlari o‘zgarishi borasida hisob-kitoblar, narx ko‘rsatkichlari o‘zgarish borasida hisob-kitoblar hamda daromadlar taqchilligi ko‘rsatkichlari hisob-kitoblari amalga oshirildi. Tahlillar va model tahlili natijasida quyidagi xulosalar olindi:

1. Mamlakatimiz davlat oliy ta’lim muassasalarida so‘nggi yillarda oliy ta’lim standartlari tez-tez o‘zgarishi natijasida talaba/o‘qituvchi va talaba/xodim ko‘rsatkichlarida nisbatan nobarqaror vaziyat kuzatilgan. Shuningdek, so‘nggi yillarda OTMlardagi mehnat unumdorligi o‘sish sur’atlari umumiqtisodiy mehnat unumdorligi o‘sish sur’atlaridan ortda qolishi yoki unga moyilligi borasida dinamika mavjud degan xulosaga kelish mumkin. Shu tufayli tahlillar natijasida taklif etilgan 2-modeldan ko‘ra 1-model quvvatliroq bo‘lishi mumkin degan qarashni ham qabul qilish mumkin. Ushbu tahlildan asosiy xavotirli signal shundan iboratki, OTMlarda barqaror standartlar hali shakllanib ulgurmaganligi va ularning moliyaviy asosi shunga mos ravishda qanday shakllanadi degan savol ochiq qolmoqda.

2. Davlat oliy ta’lim muassasalarida ish haqi ko‘rsatkichlari dinamikasi va umumiqtisodiy ish haqi dinamikalarida ham so‘nggi yillarda barqaror moliyalashtirish masalasida hisobga olinishi lozim bo‘lgan sur’atlar mavjudligi tahlillar natijasida ko‘rib chiqildi. Xususan, 2018-2019-yillar davomida amalga oshirilgan uch bosqichli ish haqlarini oshirish bo‘yicha ko‘rilgan choralar natijasida OTMlarda ish haqlari o‘sish sur’atlari umumiqtisodiy o‘sish sur’atlaridan ancha yuqori bo‘lganligi kuzatilgan. Aynan ushbu dinamika ta’sirida OTMlarning xarajatlari oshish sur’atlariga bevosita ta’sirlar bo‘lganligi xulosa qilindi. Shuningdek ushbu tahlillar bo‘yicha olingan ko‘rsatkichlar “xarajatlar xastaligi” bo‘yicha olingan model uchun ahamiyatli ekanligi xulosa qilindi.

3. OTMlarda narxlar va ularning umumiqtisodiy narxlar hamda inflyatsiya dinamikasi bilan solishtirganda stipendiyali narxlar uchun ahamiyatli ekanligi ma’lum bo‘ldi. Shuningdek so‘nggi yillarda OTMlarda to‘lov shartnoma narxarining

surunkali “muzlatib” qo‘yilishining OTMlar xarajatlarini barqaror moliyalashtirishga ta’siri ham baholandi. Aynan OTMlardagi moliyaviy taqchillik borasida ularning narx siyosati o‘rni yuqori ekanligini alohida ta’kidlash o‘rinlidir. Ushbu masalada muammo va takliflar qismida ham alohida to‘xtab o‘tildi.

4. OTMlardagi daromadlar taqchilligi va ularning moliyalashtirilishida bir nafar talabaga taqchillik dinamikasi ham tahlil qilindi. Ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha ham so‘nggi yillarda xavotirli dinamika kuzatilayotganligini alohida qayd etish lozim. Ushbu taqchillik ko‘rsatkichlari yuqorida qayd etilgan omillar asosida endogen omil sifatida ko‘rib chiqildi. Ekonometrik modelda ham ko‘rib chiqilgan omillar ushbu endogen o‘zgaruvchi uchun ahamiyatli ekanligi xulosa qilindi.

5. Tahlillarda asosan OTMlarning tabaqallashtirilgan to‘lov shartnoma tushumlaridan boshqa tushumlari asosida kuzatishlar olib borildi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad “xarajatlar xastaligi” tashxisi bunday nobarqaror tushumlar ortiga “berkinganligi” borasidagi xavotirlar bilan bog‘langan. Ya’ni OTMlarda daromadlar taqchilligi va moliyaviy muammolarning nobarqaror tushumlar hisobiga yumshatilishi natijasida yashirin oqibatlarning yuzaga kelishi mumkinligi hisobga olinmasligining oldini olish maqsadi ko‘zda tutildi.

Tahlillar natijasida olingan ko‘rsatkichlar so‘nggi besh yildagi ommaviylashuv davri va oliy ta’lim sohasidagi islohotlar natijasida shakllangan bo‘lib, ushbu tahlillar keyingi yillardagi ekzogen va endogen omillar o‘zgarib borishi bilan uzoqroq vaqt oralig‘i uchun takroran amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda tadqiqotlardagi ekzogen omillarning modeldagi ahamiyatliligi va modelning sifat ko‘rsatkichlari yaxshilanishini taxmin qilish mumkin bo‘ladi. Chunki, ayrim ekzogen omillar endogen omilga nisbatan qisqa vaqt oralig‘ida hamda umumiqtisodiy o‘zgarishlar ta’sirida o‘zgacha natijalarni ko‘rsatishi mumkin. Ammo, OTMlarni moliyalashtirishda ushbu omillarni doimiy tahlil qilib borish va ularning dinamikasi asosida daromadlar taqchilligi masalasini muolaja qilib borish maqsadga muvofiqdir. OTMlarda xarajatlarning shakllanishida shuningdek quyidagi jihatlarni ham hisobga olish juda muhimligini xulosa qilish mumkin:

*Birinchidan,* mamlakatda boshlangan davlat OTMlariga moliyaviy mustaqillik berish borasidagi islohotlarni samarali yakuniga yetkazish talab etiladi. Bunda ularning qabul ko‘rsatkichlari, narxlarni belgilash, xarajat yo‘nalishlarini mustaqil belgilash va ish haqlarini belgilash borasidagi qarorlari o‘zgacha namoyon bo‘ladi. Aynan ushbu o‘zgarishlar ta’sirida tarmoqda moliyalashtirish jarayoni va unga tegishli omillarning dinamikasi ham o‘zgacha namoyon bo‘lishi kuzatilishi mumkin.

*Ikkinchidan,* OTMlarda boshqaruvning korporativ usullarini joriy etish orqali ularda qabul qilinadigan qarorlarning bozor mexanizmlari va talab-taklif qonuniyatlariga nisbatan muvofiqlashib borishining ta’minlanishi. Buning natijasida ham xarajatlarga tegishli ko‘rsatkichlar va omillar o‘zgacha shakllanib borishi kuzatilishi mumkin.

*Uchinchidan,* mamlakatimizda nodavlat oliy ta’lim tashkilotlarining kengayib borishi va xususiy oliy ta’lim subyektlarining ko‘payib borishi natijasida oliy ta’lim sohasida nisbatan raqobatli muhit shakllanishiga erishish bo‘yicha islohotlarning ta’minlanishi. Sohada raqobatli muhit ham OTMlar moliyalashtirilishiga tegishli omillarning o‘zgacha shakllanishiga turtki bo‘lishi va ushbu omillar dinamikasining o‘zgacha bo‘lishini taqazo etishi mumkin.

*To‘rtinchidan,* OTMlarni moliyalashtirishga va turli manbalardan OTMlar tushumlarining shakllanib borishi natijasida OTMlar tushumlarining diversifikatsiyasi yaxshilanishi ta’minlanishi. Ushbu tendensiya oqibatida ham OTMlar xarajatlarini moliyalashtirishga yondashuvlar o‘zgarib borishi kutilishi mumkin.

*Beshinchidan,* ta’lim tarmoqlari (ta’limning boshqa bo‘g‘inlari) diversifikatsiyasida ham tub o‘zgarishlar yuz berishi. Bunda ta’limning quyi bo‘g‘inlaridagi o‘zgarishlar natijasida oliy ta’lim sohasiga bo‘lgan ta’sirlar oqibatida ularni moliyalashtirishda yuz beradigan o‘zgarishlar hisobga olinadi.

OTMlarni moliyalashtirishga doir ilmiy-nazariy qarashlar va ular asosida ishlab chiqilgan tahlil usullarini tadbiq etgan holda olingan xulosalarga ko‘ra mamlakatimizda OTMlarni moliyalashtirishga taaluqli muammolarni tizimlashtirgan holda aniqlashga harakat qilindi. Ushbu muammolar biri-birini to‘ldiruvchi va butun

dunyoda OTMlarni moliyalashtirishda duch kelinadigan muammolar bo‘lib, ularning ijobiy hal etilishi oliy ta’lim sohasida samaradorlik, yuqori qamrov darajasini ta’minlash va tizimning universallashuvi borasidagi islohotlar samarali kechishiga olib keladi. Bunday muammolarga oliy ta’lim sohasiga qilingan sarflardan iqtisodiy va ijtimoiy qaytim masalasida ilmiy tadqiqotlar olib borilishi, OTMlar uchun narx siyosati borasida ilmiy asoslangan dasturlar ishlab chiqish va joriy etish masalasi, OTMlarni subsidiyalashning samarali va ilmiy asoslangan shakllarini ishlab chiqish va joriy etish, talabalar uchun samarali ishlovchi moliyaviy ko‘mak dasturlarining ishlab chiqilishi va tizimli hal etilishi masalasi, OTMlarning passiv tushum manbalarini tubdan yaxshilash masalasi hamda nodavlat OTMlarning faoliyatini samarali tashkil etish bo‘yicha qonuniy, tashkiliy va iqtisodiy chora-tadbirlarni ishlab chiqish va joriy etish kabi muammolarni kiritish mumkin. Ushbu muammolarni tizimli hal etish va ular bo‘yicha tegishli ilmiy asoslangan dasturlar ishlab chiqish maqsadida quyidagi yo‘nalishlarda takliflar kiritilishi maqsadga muvofiqdir:

*Birinchidan,* mamlakatimizda oliy ta’lim sohasiga qilingan sarflardan iqtisodiy va ijtimoiy qaytim masalasida ilmiy tadqiqotlar olib borishni jadallashtirish hamda tizimlashtirish maqsadida tegishli tadqiqot yo‘nalishlari bo‘yicha konkret taksonomiya asosida ilmiy izlanishlar olib borish taklif etiladi. Ushbu tadqiqotlar OTMlarning o‘zida yoki maxsus “aqliy markaz” hisoblangan tadqiqot institutlari bazasida tashkil etilishi mumkin. Shuningdek ushbu tadqiqotlarning sifati va samarasini ta’minlash maqsadida ularga tegishli ma’lumotlar bazasi va tahliliy materiallarning ham takomillashtirib borilishi maqsadga muvofiq.

*Ikkinchidan,* oliy ta’lim yo‘nalishlar, ular bo‘yicha tayyorlangan mutaxassislarning kelajakda daromadlar oshishi imkoniyatlari, ta’limga to‘g‘ridan to‘g‘ri va muqobil sarflar hamda ijobiy qaytimlar holatiga mos bo‘lgan subsidiyalash rejimlarini qo‘llash taklif etiladi. Bunda bevosita oliy ta’lim xizmatlariga narx belgilash, ularni subsidiyalash hamda oliy ta’limning mehnat bozori talablari bilan integratsiyasini yaxshilashga ham ijobiy ta’sir kutilishi mumkin.

*Uchinchidan,* OTMlarda narxlarni to‘g‘ri xarajatlarga nisbatan ta’sirchanligini ta’minlash. Bunda ta’lim yo‘nalishlari uchun o‘qituvchi/talaba normativlarini hisobga

olish va ta’lim yo‘nalishlarining har biridan marja miqdorlari aniqlanishi kerak. Bu usul ta’lim yo‘nalishlariga talabni hisobga olish, to‘g‘ri xarajatlarga nisbatan narxlarning ta’sirchanligini va oliy ta’lim bozorida narxlarning o‘z funksiyalarini yaxshiroq bajarishiga olib keladi.

*To‘rtinchidan,* davlat oliy ta’lim muassasalarida xarajatlarni moliyalashtirish tartiblarida bir talabaga o‘rtacha xarajatlarda davlat ta’lim standartlari va talablarini hisobga olgan holda ularga ta’sir etuvchi omillarni baholash orqali oliy ta’lim muassasasini o‘zini-o‘zi to‘liq moliyaviy ta’minlashiga erishish bo‘yicha o‘rtacha xarajatlarga ta’sir etuvchi omillar bo‘lgan ish haqlari, mehnat unumdorligi, ta’lim standartlari asosida amalga oshirilishi lozim xarajatlar, daromadlar taqchilligi va davlat oliy ta’lim muassasalarining o‘zini o‘zi to‘liq moliyalashtirishi o‘rtasidagi bog‘liqlik hisobga olib, daromadlar taqchilligini istiqbollash modelidan oliy ta’lim muassasalarida daromadlar taqchilligini istiqbollash hamda ularning o‘zini-o‘zi moliyalashtirish imkoniyatlarini prognozlashda foydalanish. Shuningdek, daromadlar taqchilligini yumshatish va istiqbollashda homiylik va ilmiy-tadqiqot natijalarini tijoratlashtirishdan tushgan, maqsadli kapital va boshqa mablag‘lar hisobiga moliyalashtiriladigan endaument jamg‘armalarini ko‘rsatkichlarini baholash orqali tegishli chora-tadbirlar ko‘rib borish taklif etiladi.

*Beshinchidan,* mamlakatimizda ommaviylashuv davriga mos bo‘lgan talabalarga moliyaviy ko‘mak dasturlarini joriy etish. Hozirda ushbu masaladagi vakolatlar va vazifalar turli organlar va subyektlarda tarqoq holda mavjud va ularning ko‘maklashish uchun salohiyati yetarli emas. Shuningdek ushbu jarayonni amalga oshirishning tranzaksion yo‘qotishlari ham yuqori. Shu maqsadda hozirda OTMlar, tijorat banklari va davlatning ijtimoiy reestrlarga javobgar mutassadi organlari tomonidan amalga oshirilayotgan vazifa va vakolatlarni tanqidiy baholash va ularni takomillashtirish yo‘llari taklif etilishi kerak.

*Oltinchidan,* OTMlarning passiv daromadlarini yaxshilash borasida chora-tadbirlarni kuchaytirish lozim. Ushbu masalada qonuniy va tashkiliy ishlarni yakuniga yetkazish lozim. Shuningdek, OTMlarning yirik ishlab chiqiarish subyektlari bilan integratsiyasini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha ham turli dasturlar ishlab

chiqish taklif etiladi. Bunday yondashuvning ijobiy tomoni shuki, ushbu holatda OTMlar bilan yirik ish beruvchilar o‘rtasida o‘zaro manfaatli aloqalar yo‘lga qo‘yilishi ham ta’minlanadi. Shuningdek bu yerda e’tibor qilinishi lozim bo‘lgan yana bir jihat mavjud. Hozirda ko‘pgina OTMlarning tabaqalashtirilgan to‘lov kontraktlaridan tushumlari o‘ziga xos passiv tushumlar vazifasini bajarmoqda. Ya’ni ushbu bo‘shliqni to‘ldirmoqda. Shunday ekan bunday tushumlarning ham xarajatlarni moliyalashtiruvchi manba sifatida emas ularni ham investitsiya shaklida qabul qilish lozim bo‘ladi.

*Yettinchidan,* nodavlat oliy ta’lim tashkilotlari uchun litsenziya talablarini ishlab chiqilishida ushbu talablarning moliyaviy yukini ham hisobga olish taklif etiladi. Buning uchun tarmoq uchun o‘rnatilgan davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablari asosida hisoblangan o‘rtacha ko‘rsatkichlarga murojaat qilish taklif etiladi. Bu taklif tarmoqda sog‘lom raqobat muhtini ta’minlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Yuqorida keltirilgan takliflar asosida ularni amalga oshirish mexanizmlari ham OTMlarning holati, oliy ta’lim bozori holati va davlat mutassadi organlarining dasturlariga asosan ishlab chiqilishi nazarda tutilishi kerak.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

### 1. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1.1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

1.2. O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi 2013 yil 26 dekabrdagi O‘RQ-360-son Qonuni bilan tasdiqlangan.

1.3. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.

1.4. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktyabrdagi O‘RQ-576-son “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni.

1.5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 31-martdagi PF-371-son “O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi huzurida Oliy attestatsiya komissiyasi (O‘zbekiston Respublikasi OAK) ni tashkil qilish to‘g‘risida”gi Farmoni.

1.6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida"gi Farmoni.

1.7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni.

1.8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagi PF-5763-son “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

1.9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.

1.10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli

iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni.

1.11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.

1.12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida“”gi Farmoni.

1.13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrdagi PF-269-son “Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida“”gi Farmoni.

1.14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 24-iyuldagi PQ-926-son “Respublika oliy ta’lim muassasalari xodimlari mehnatiga haq to‘lash tizimini takomillashtirish va uni moddiy rag‘batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

1.15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

1.16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

1.17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-apreldagi PQ-3655-son “Respublika oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari xodimlarining mehnatiga haq to‘lash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

1.18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-iyuldagi PQ-3876-son “Fan va oliy ta’lim sohasi xodimlarining mehnat haqi miqdorini yanada oshirish, ilmiy va ilmiy-texnik faoliyat natijalari joriy etilishini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

1.19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagi

PQ-4391-son “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

1.20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

1.21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

1.22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi PQ-61-son “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

1.23. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-son "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarori.

1.24. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 1-avgustdagi 164-son “Respublika oliy ta’lim muassasalari xodimlari mehnatiga haq to‘lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori.

1.25. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-son "Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Qarori.

1.26. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 15-avgustdagi 662-son “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi Qarori.

1.27. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 26-avgustdagi 517-son “Respublika oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari va boshqa toifadagi xodimlarini budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan moddiy rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarori.

1.28. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil

21-fevraldagi 80-son “Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to‘g‘risidagi yagona Nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarori.

1.29. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-avgustdagi 419-son “Moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta’lim muassasalarida davlat buyurtmasi (davlat granti) asosida kadrlar tayyorlash uchun O‘zbekiston Respublikasi davlat budjetidan moliyalashtirish tartibini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori.

1.30. O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2017-yil 16-oktyabrdagi 18-2017-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sohalari bloklari va shakllari bo‘yicha bir nafar o‘qituvchi hisobiga to‘g‘ri keladigan talabalar soni nisbatining normativlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2945, 2017-yil 7-noyabr).

1.31. O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2018-yil 14-sentyabrdagi 22-2018-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sohalari bloklari va shakllari bo‘yicha bir nafar o‘qituvchi hisobiga to‘g‘ri keladigan talabalar soni nisbatining normativlariga o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi Buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2945-1, 2018-yil 10-oktyabr).

1.32. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2021-yil 30-dekabrdagi 53-2021-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sohalari (ta’lim yo‘nalishlari) bo‘yicha bir nafar o‘qituvchi hisobiga to‘g‘ri keladigan talabalar soni nisbatining normativlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Buyrug‘i (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2022-yil 24-yanvarda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, ro‘yxat raqami 3345).

## 2. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to‘plamlar


2.1. W.J. Baumol and W.G. Bowen Performing Arts. The Economic Dilemma. A study of Problems common to Theater, Opera, Music and Dance. New York, The Twentieth Century Fund, 1966, XVI p. 582 p.

2.2. Bowen W. G. The ’cost disease’in higher education: is technology the answer? //The Tanner Lectures Stanford University. – 2012.;

2.3. Becker, G.S. and B.R. Chiswick (1966), 'Education and the distribution of earnings', American Economic Review, 56 (2), 358–69.;

2.4. Becker G.S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis. New York: Columbia University Press for NBER. 1964. Ch. 2.;

2.5. Mincer J., Polachek S. Family Investment in Human Capital: Earnings of Women // Journal of Political Economy. 1974. Vol.82. P.S76-S108.;

2.6. Stigler G.J. Information in the Labor Market // Journal of Political Economy. 1962. Vol. 70. P. 94–105.;

2.7. Arrow K. Higher Education as a Filter // .Journal of Public Economics. 1973. Vol. 2. P. 193-216.;

2.8. Spence M. Job Market Signaling // The Quarterly Journal of Economics. 1973. Vol. 87. P. 355-374;

2.9. Balassa, B. (1964). The purchasing-power parity doctrine:A reappraisal. The Journal of Political Economy, 72, 584–596.

2.10. Samuelson, P. (1964). Theoretical notes on trade problems. Review of Economics and Statistics, 23(May), 145–154.

2.11. Getz, M., & Siegfried, J. J. (1991). Cost and productivity in American colleges and universities. In C. Clotfelter, R. Ehrenberg, M. Getz, & J. J. Siegfried (Eds.), Economic challenges in higher education (261–392). Chicago: University of Chicago Press.

2.12. Ricardo, D. (1821). On foreign trade. In On the principles of political economy and taxation (chap. 7). London: John Murray.

2.13. Bowen, H. R. (1980). The costs of higher education: How much do colleges and universities spend per student and how much should they spend? San Francisco: JosseyBass.;

2.14. Archibald R. B., Feldman D. H. Explaining increases in higher education costs //The Journal of Higher Education. – 2008. – T. 79. – №. 3. – S. 268-295.;

2.15. Psacharopoulos G., Patrinos H. A. Human capital and rates of return //International handbook on the economics of education. – 2004. – S. 1-57.;

2.16. Psacharopoulos G. “Economics of education: A Research Agenda” , Economics of Education Review, Vol. 15, No. 4, pp. 339-344, 1996.

2.17. Psacharopoulos G. On the weak versus the strong version of the screening hypothesis // Economics Letters. 1979. Vol. 4. P. 181-185.

2.18. Mingat, Alain, and Jee-Peng Tan. "The full social returns to education: Estimates based on countries’ economic growth performance." (1996).

2.19. Birdsall N. Public spending on higher education in developing countries: too much or too little? //Economics of Education Review. – 1996. – T. 15. – №. 4. – S. 407-419.

2.20. Psacharopoulos G. Public Spending on Higher Education in Developing Countries: Too Much Rather Than Too Little //Economics of Education Review. – 1996. – T. 15. – №. 4. – S. 421-22.

2.21. Pranevičienė B., Pūraitė A. The financing methods of higher education system //Jurisprudencija. – 2010. – T. 122. – №. 4. – S. 335–356-335–356.

2.22. Cohn, E. and J.T. Addison (1998), ’The economic returns to lifelong learning‘, Education Economics, 6 (3), 253–308.;

2.23. Schultz T. Investment in Human Capital // American Economic Review. 1961. Vol. 51. P. 1–17.;

2.24. Elchanan Cohn and Samuel T. Cooper, Multi-product cost functions for universities: economies of scale and scope - International handbook on the economics of education/edited by Geraint Johnes, Jill Johnes.pp. 579-612.

2.25. Johnstone D. B., Marcucci P. N. Financing higher education worldwide: Who pays? Who should pay?. – JHU Press, 2010.;

2.26. Johnstone D. B. Higher education finance and accessibility: Tuition fees and student loans in Sub-Saharan Africa //Journal of Higher Education in Africa/Revue de l’enseignement supérieur en Afrique. – 2004. – S. 11-36.

2.27. Johnstone D. B., Marcucci P. N. Worldwide trends in higher education finance: Cost-sharing, student loans, and the support of academic research //Commissioned paper V. Lynn Meek and Dianne Davies. – 2007. – T. 81. – S. 1-36.

2.28. Sanyal B. C., Johnstone D. B. “International trends in the public and private financing of higher education”, Published online: 18 March 2011, UNESCO IBE 2011;

2.29. Teixeira P. N. et al. (ed.). Cost-sharing and accessibility in higher education: A fairer deal?. – Springer Science & Business Media, 2006. – T. 14.;

2.30. Cerdeira L. Cost-sharing policy in the European higher education: A comparative perspective //Problems of Education in the 21st Century. – 2009. – T. 15. – S. 60.;

2.31. Johnes G., Johnes J., Thanassoulis E. An analysis of costs in institutions of higher education in England //Studies in Higher Education. – 2008. – T. 33. – №. 5. – S. 527-549.

2.32. Worthington A. C., Higgs H. Economies of Scale and Scope in Australian Higher Education // Higher Education. 2011. Vol. 61, nr. 4. P. 387–414. DOI 10.1007/ s10734-010-9337-3.

2.33. Laband D. N., Lentz B. F. New Estimates of Economies of Scale and Scope in Higher Education // Southern Economic Journal. 2003. Vol. 70, nr 1. P. 172–183. DOI 10.2307/1061638.

2.34. Levin B. Tuition fees and university accessibility //Canadian Public Policy/Analyse de Politiques. – 1990. – S. 51-59.

2.35. Vossensteyn H., Canton E. Tuition fees and accessibility: the Australian HECS //Higher Education Reform: Getting the Incentive Right, The Hague. – 2001.

2.36. Hashimoto K., Cohn E. Economies of Scale and Scope in Japanese Private Universities // Education Economics. 1997. Vol. 5. P. 107–116. DOI 10.1080/09645299700000010.

2.37. Rozada M. G., Menendez A. Public university in Argentina: subsidizing the rich? //Economics of Education Review. – 2002. – T. 21. – №. 4. – S. 341-351.

2.38. Caner A., Okten C. Higher education in Turkey: Subsidizing the rich or the poor? //Economics of Education Review. – 2013. – T. 35. – S. 75-92.

2.39. Liu, Jin-Tan, Shin-Yi Chou, and Jin-Long Liu (2006), "Asymmetries in progression in higher education in Taiwan: Parental education and income effects", Economics of Education Review, 25, 647–658.

2.40. Daghbashyan Z. The Economic Efficiency of Swedish Higher Education Institutions. Working Paper Series in Economics and Institutions of Innovation (CESIS). Stockholm : KTH Royal Institute of Technology, 2011. 23 p.

2.41. Koshal R. K., Koshal M. Economies of scale and scope in higher education: a case of comprehensive universities //Economics of education review. – 1999. – Т. 18. – №. 2. – S. 269-277.

2.42. Martin R. E. The college cost disease: Higher cost and lower quality. – Edward Elgar Publishing, 2011.;

2.43. Morris D. Economies of Scale and Scope in E-Learning. Studies in Higher Education, 2008, vol. 33, nr 3, pp. 331–343. doi 10.1080/03075070802066164. (In Eng.).

2.44. Barr N., Crawford I. Funding higher education in an age of expansion //Education Economics. – 1998. – Т. 6. – №. 1. – S. 45-70.

2.45. Winter, Stefan; Pfitztner, Alexander (2013) : Externalities and subsidization of higher education, Beiträge zur Jahrestagung des Vereins für Socialpolitik 2013: Wettbewerbspolitik und Regulierung in einer globalen Wirtschaftsordnung - Session: Health and Education: Empirics, No. E07-V2, ZBW - Deutsche Zentralbibliothek für Wirtschaftswissenschaften, Leibniz-Informationszentrum Wirtschaft, Kiel und Hamburg

2.46. Аистов А. В. О фильтрующей роли образования в России //Экономический журнал Высшей школы экономики. – 2009. – Т. 13. – №. 3. – С. 452-481.;

2.47. Абанкина И. В. Финансирование образования: тренд на персонализацию //Журнал Новой экономической ассоциации. – 2019. – Т. 41. – №. 1. – С. 216.;

2.48. Абанкина И. В., Абанкина Т. В., Деркачев П. В. Исследование" болезни издержек" в российском высшем образовании //Университетское управление: практика и анализ. – 2014. – №. 4-5 (92-93). – С. 52-65.;

2.49. Абанкина И. В., Абанкина Т. В., Филатова Л. М. Ловушки дифференциации в финансировании российских вузов //Russian Journal of Economics and Law. – 2016. – №. 2 (38). – С. 38-58.

2.50. Баумол У. Д. Анатомия дефицита //Отечественные записки. – 2005. – №. 4. – С. 25.

